5. Konina N.Yu. Features of the market position of European TNCs in modern conditions // Modern Europe. – 2017. – No. 5. – p. 78-91. – doi: 10.31857/ S0201708322050060.

6. Luchko M.L. Modern trends in the internationalization of the activities of transnational corporations // International trade and trade policy. – 2023. – No. 3. – p. 36-50. – doi: 10.21686/2410-7395-2023-3-36-50.

7. Molochkova V.V., Shalneva M.S. Transnational corporations of the USA, China and Russia in the conditions of transformation of the world economy

// Economy and management: problems, solutions. – 2023. – No. 12. – p. 112-122. – doi: 10.36871/ek.up.p.r.2023.12.11.016.

8. Rodionova i.a., Dirin D.A. The largest transnational corporations in the world: shifts in country and sectoral affiliation // Geographic Bulletin. – 2023. – No. 1. – p. 52-71. – doi: 10.17072/2079-7877-2023-1-52-71.

9. Rodionova i.a., Kalashnikov D.B. China in the ratings of the largest corporations in the world: transformation of the model of participation in the international division of labor // Izvestia of the Russian Academy of Sciences. Geographical series. – 2023. – No. 5. – p. 666-676. – doi: 10.31857/S2587556623050072.

10. Balakhanova D.K., Kozlov V.A., Kuznetsov P.V., Chudnaya A.D., Bui n.a. Specifics, trends and prospects for the development of transnational corporations // Economics and management: problems, solutions. – 2023. – No. 10. – p. 72-79. – doi: 10.36871/ ek.up.p.r.2023.10.06.009.

11. Стрелкова И.А. Доминирование цифровых транснациональных корпораций на международных рынках как фактор нарастания рисков в мировой экономике // Вопросы региональной экономики. – 2023. – № 2. – с. 175-181.

12. World Investment Report 2025: International investment in the digital economy. United Nations (UNCTAD), New York and Geneva, 2025. [Electronic resource]. URL: https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025 (date accessed: 11.11.2025).

13. World Investment Report 2024: Investment facilitation and digital government. United Nations (UNCTAD), New York and Geneva, 2024. [Electronic resource]. URL: https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024 (date accessed: 13.09.2025).

14. World Investment Report 1990-2024. Unctad.org. [Electronic resource]. URL: https://unctad.org/publications-search?f[0]=product%3A397 (date accessed: 15.10.2025).

15. Forbes Global 2000. Forbes.com. [Electronic resource]. URL: https://www.forbes.com/ lists/global2000/ (date accessed: 21.09.2025).

Kudratova Iroda Turdibayevna – *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti*

AGROKLASTERLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi, Agrar iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish masalalari yoritilgani holda, Koreyada agroklasterlarning rivojlanishi va uni O‘zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish masalalari bayon etilgan.*

Kalit so‘z: *Klaster, Agrar-iqtisodiyot, Qishloq xo’jaligi mahsulotlari, Agroklaster, Agrosanoat majmui.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные задачи сельского хозяйства, аграрной экономики и диверсификации сельского хозяйства, а также развитие агрокластеров в Корее и их учет в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *Кластер, Аграрная экономика, Сельскохозяйственная продукция, Агрокластер, Агропромышленный комплекс.*

Abstract: *This article examines the main tasks of agriculture, agrarian economy and agricultural diversification, as well as the development of agro-clusters in Korea and their consideration in the context of Uzbekistan.*

Key words: *Cluster, Agricultural economy, Agricultural products, Agrocluster, Agro-industrial complex.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, - Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o‘z samarasini bermoqda.[1]

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi bu – qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir.

Agrar-iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor shakllariga o‘tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog‘i oshdi.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to‘qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.

Agroklaster – qishloq xo‘jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishlash – biznes kabisubyektlarning o‘zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan subyekt hisoblanadi.

Agroklasterlar uch xususiyatga asoslanadi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliylashtirish;
- tarmoqning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar;
- turli tarmoqlar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o‘zaro aloqalarning shakllanganligi.

Agroklasterning mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari (tuman hokimligi), qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman fermerlar kengashi va dehqonlar), qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro hamkorlikdagi yoki alohida tashabbusi bo‘yicha tashkil etiladi. Uni tashkil etishning muhim

jihatlaridan biri ishtirokchilarining birgalikdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish – ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyotda qo‘llash orqali bir-birlariga ishonchlarining yuqoriligi hisoblanadi.

Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta’kidlagan holda **O‘zbekiston sharoitida** ham ularni inobatga olish mumkin. **Jumladan:**

- qishloq xo‘jaligiga davlatning amaliy yordami va qo‘llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;

-tarixiy va milliy an’analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo‘nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;

-hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta‘minlash;

- davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o‘zaro mutanosibligini ta‘minlash mexanizmi;

- olimlar mavqei va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo‘llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;

- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

- marketing tizimiga rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **538 919,7 mlrd so‘mni,** shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **518 822,7 mlrd so‘mni,** o‘rmon xo‘jaligi – **15 081,5 mlrd so‘mni,** baliqchilik xo‘jaligi **– 5 015,5 mlrd so‘mni** tashkil qildi.[2]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahonda iqtisodiy va oziq-ovqat inqirozlari tobora chuqurlashayotgan bir davrda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday agrar siyosat mamlakatimiz aholisi turmush darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.

Agrosanoat majmui (ASM) - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimot, ayirboshlash va iste‘moli bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. ASM tarkibiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash saqlash, sotish ASM uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M. Mirziyoyev Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir//Xalq so‘zi. 10.12.2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi stat.uz

3. R.X.Ergashev, Sh.Sh.Fayziyeva, S.N.Xamrayeva; – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik / T.: - Iqtisod-Moliya, 2018. – 404 b.

Fattoyev Mirzopo‘lot A’zamovich *– magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

HOZIRGI SHAROITDA KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Annotatsiya: *Maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash iqtisodiyotni modernizatsiyalash omili sifatida baholanib, moliyaviy barqarorlikning mohiyati, uni aks ettiruvchi turli ko‘rsatkichlar va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *korxona, modernizatsiya, moliyaviy barqarorlik, mezon.*

Аннотация*: В статье оценивается финансовая стабильность предприятий как фактор модернизации экономики, представлены выводы и предложения относительно сущности финансовой стабильности, различных показателей, отражающих её, и путей обеспечения финансовой стабильности.*

Ключевые слова*: предприятие, модернизация, финансовая стабильность, критерий.*

Abstract*: This article assesses the financial stability of enterprises as a factor in economic modernization. It presents conclusions and proposals regarding the essence of financial stability, various indicators reflecting it, and ways to ensure financial stability.*

Keywords*: enterprise, modernization, financial stability, criterion.*

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati eng muhim tavsifi uning to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Agar korxona moliyaviy barqaror, to‘lovga layoqatli bo‘lsa, u shu yo‘ldagi korxonalar oldida investitsiyalar jalb qilishda, kreditlar olishda, ta’minotchilarni tanlashda va yuqori malakali kadrlarni jalb qilishda ustunlikka ega bo‘ladi.

Korxona qanchalik barqaror bo‘lsa, u bozor kon’yunkturasining kutilmagan o‘zgarishlariga chidamli bo‘ladi va shu bilan birga bu iqtisodiy nochorlik sohasida kichik risk bo‘lib ko‘rinadi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh vazifasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, shu jumladan, milliy va xalqaro bozorlarda korxonalarning barqaror o‘rinlarni egallashi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati faoliyati o‘z-o‘zini moliyalashtirish, o‘z moliyaviy resurslari yetmagan taqdirda moliyaviy resurslarni jalb qilish bo‘lib hisoblanadi.

A. Yo‘ldoshev tomonidan korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri ularning mavjud ishlab chiqarish va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, korxonada moliyaviy resurslarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasida mutanosiblikka erishishdan iborat deb e’tirof etiladi [1].

Prof. E.Akramov moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta’kidlaydi [2].

Professor T.S. Malikovning fikriga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsienti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuv koeffitsienti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsienti) va nisbiy ko‘rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, o‘z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti) ifodalaydi [3].

Moliyaviy barqarorlikning ortiqcha soddalashtirib aniqlanish holatlari K.Makkonnell va S.Bryuning «Ekonomiks» kitobida o‘z aksini topgan. Aynan shu ishda moliyaviy barqarorlik omillariga nisbatan miqdoriy yondashuv aniq ifodalangan. Jumladan, unda xaqiqatda moliyaviy barqarorlik yetarlicha darajada asoslanmagan bo‘lsa-da quyidagi aniqlanish keltirilgan: «Iqtisodiy o‘sish nazariyasiga kelganda, uning asosiy muammosi quyidagicha shakllantiriladi»; «To‘liq bandlik sharoitida ishlab chiqarish quvvatlari yoki yalpi milliy mahsulot hajmini qanday qilib ko‘paytirib borish mumkin?» [4].

L.T. Gilyarovskaya korxonalar moliyaviy barqarorligini birinchi navbatda ancha yuqori tadbirkorlik riski, o‘zgaruvchan ishbilarmonlik sharoitida samarali ishlash (mulk egalari farovonligini oshirish, shuningdek korxonaning raqobatbardosh ustunliklarini kuchaytirish) qobiliyati [5], deb ta’kidlaydi. Aynan ushbu ta’rif iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dolzarbdir.

Shunga mos ravishda moliyaviy barqarorlikni hisoblash ham sof miqdoriy o‘lchamlarga keltiriladi. Ta’kidlab o‘tilgan ishda moliyaviy barqarorlikni iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda aniqlash va hisoblashning haqiqatda faqat ikkita o‘zaro bog‘liq holda ajratib ko‘rsatilgan;

⇒ma’lum vaqt oralig‘ida real yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi sifatida;

⇒ ma’lum vaqt oralig‘ida real yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshi hisobiga ko‘payishi sifatida.

Moliyaviy barqarorlik va milliy iqtisodiy potensiali o‘zaro bog‘liqligining to‘g‘riligi shak-shubhasiz aniq va shubhalarga berilmaydi. Amaliy nuqtai nazardan esa u faqat investitsiyalar va moliyaviy barqarorlikning bog‘liqligi nuqtai nazardan tasavvur qilinadi. Albatta, investitsion faollik moliyaviy barqarorlikning eng muhim shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi, lekin bunda u to‘liq aniqlovchi emas. Investitsiyalarning moliyaviy barqarorlik jarayonidagi rolini maxsus qarab chiqish maqsadga muvofiq, ammo buni moliyaviy barqarorlik tushunchasining asosiy mazmuni ochib berilgandan keyin amalta oshirish lozim.

Moliyaviy barqarorlik holati raqobat muhiti ta’siridan o‘zgaradi. Raqobatga layoqatlilining asosiy o‘lchamlarini endi rivojlanayotgan yoki milliy iqtisodiyoti o‘zgarishlarga uchrayotgan mamlakatlar emas, balki o‘zlarining iqtisodiy o‘sishdagi muammolarni uchinchi dunyo mamlakatlari o‘sib boruvchi bozorlari bilan bog‘langan, sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar belgilab beradi. Ular yalpi talabning o‘sishini o‘zlarining milliy yoki birgalikdagi ishlab chiqarishlar

tomonidan bildiriltan taklif bilan mos ravishda to‘ldiradi. Bulardan tashqari, agar moliyaviy barqarorlik muammolariga yondashish haqida gap ketganda, uning omillarini baholashga yondashishiing o‘zgarishi kabi dalillarga alohida to‘xtalib o‘tish ham zarur bo‘ladi. Umuman omillarni o‘rganishga yondashuv odatiga asosan ikkita-ekstensiv va intensiv mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotning samarali tuzilishi, nafaqat moliyaviy barqarorlik mazmuniga, balki uning omillariga ham daxldor bo‘ladi. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning eng keskin muammolarini hisobga olib, bu ish doirasida nafaqat YaIMning aholi jon boshiga o‘sish muammolariga, balki kutilgan tarkibiy samarani ta’minlash mumkin bo‘lgan moliyaviy barqarorlikni moliyalashtirishning xususiyatlariga asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlash hamda ularni baholashga nisbatan yondashuvlardan shuni xulosa qilish mumkinki, moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlashni ilmiy asoslash va uning ko‘rsatkichlarini tasniflash uchun asosan o‘rganilayotgan ob’ekt (soha yoki tarmoq) o‘ziga xos xususiyatlari va ixtisosligidan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi.

Moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlashni mutlaq ko‘rsatkichlar tizimini zahira va xarajatlar hajmi o‘rtasidagi farq ko‘rinishida yuzaga keladigan zahira va xarajatlarni shakllantiruvchi mablag‘lar manbalarining ortiqligi yoki yetishmasligi sifatida umumiy talqin etish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi, bozor muhitining noaniqligi, kuchli raqobat muhiti, o‘zgaruvchan talab va qonunchilikdagi o‘zgarish va yangiliklar korxona barqarorligiga uzluksiz ta’sir ko‘rsatib turadi. Korxonaning turli xususiyatdagi ta’sirlarga barqarorligi kelgusida uning “yashab qolishi” va taraqqiy etishini belgilab beradi.

Korxonalar moliyasida yetakchi iqtisodchi olimlar va mutaxassislar korxonalarning barqarorligini baholash bo‘yicha turli xil mezonlarni ajratib ko‘rsatadilar. Bu korxonalarning raqobatbardoshligi, ijtimoiy muhitdagi barqarorligi, savdo jarayonini tashkil qiluvchi texnik vositalar bilan jihozlanganligi, moliyaviy holati, moslashuvchanlik holati, boshqaruv samaradorligi va ish faolligidir.

Korxonaning joriy davr uchun barqarorligi noaniqliklarning xavfli darajagacha ko‘tarilish xatarini pasaytiradi.

Joriy barqarorlikka resurslarga bo‘lgan joriy talab va ularga egalik qilish va ulardan foydalanish imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatga erishish, ushbu muvozanatni ma’lum davr mobaynida saqlab qolish orqali erishiladi. Bunda korxonaning bozor segmentida faoliyat ko‘rsatishi va raqobat muhitining aniq shart-sharoitlarini shak-shubhasiz e’tiborga olish muhimdir. Bundan tashqari korxonalar faoliyati doimiy ravishda talab o‘zgarishi ta’siri ostida bo‘ladi.

Korxonaning barqarorligini ta’minlash qat’iy chora-tadbirlar yoki vaziyatli boshqaruv yordamida amalga oshirilmaydi. Bu korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan turli noaniqliklarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun rejali amalaga oshirilidagin kompleks vazifa hisoblanadi. Barqarorlikni

ta’minlash unga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va barqarorsizlikka olib keluvchi omillarga qarshi turish demakdir.

Muayyan korxonani tashqi sharoitlar o‘zgarishiga qaramasdan, rahbariyatning o‘z ichki aloqalar tizimini va hayotiy ahamiyatga ega muhim jihatlarini saqlab qolishga imkon beruvchi boshqaruv darajasiga ega bo‘lgan taqdirdagina barqaror deb talqin etishimiz mumkin. Barqaror yashovchanlik tashkilot tizimining moliyaviy resurs, lividlilik, bozorning barqarorligi, raqobat muhitidagi barqarorliki kabi belgilar majmuini o‘zida aks ettiradi.

Barqarorlikni baholash tashqi muhit o‘zgarishi bilan korxona rivojlanishini prognozlash imkonini beradigan joriy holatni ifodalovchi sifat va miqdor ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Barqarorlikni baholashning asosiy muammosi – uning darajasini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalovchi yagona ko‘rsatkichning mavjud emasligidir.

Iqtisodiy jarayonlar nafaqat korxona miqyosida, balki uning tashqi muhitida ham juda xilma-xil, shu bois, zamonaviy iqtisodchilar ularni bir-biri bilan bog‘laydigan yaxlit ko‘rsatkichni ifodalab berish imkoni yo‘q degan xulosaga keldilar. Korxonaning barqarorligi to‘g‘risida xulosaga kelish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Barqarorlik mezoni va ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

– faoliyat samaradorligi;

– resurs salohiyatidan foydalanish darajasi;

– foyda olish maqsadida qo‘llaniladigan va talab qilinadigan moliyaviy, tovar va boshqa resurslarning balanslanganligi;

– faoliyatni amalga oshirish sharoitlarining o‘zgarib turishiga tezkorlik bilan moslasha olish va javob qaytarish imkoniyatining mavjudligi.

Faoliyat samaradorligi barqarorlikni aniqlashda zarur mezon hisoblanib, uning yordamida korxonaning rivojlanish darajasini va unga zarur bo‘ladigan resurslarni aniqlash, ularni mavjud imkoniyatlar bilan o‘zaro taqqoslash, faoliyat xususiyati va mavjud to‘siqlarni aniqlash mumkin. Korxona faoliyatining umumiy balanslanganligi, salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etilgach uning dinamik muvozanatiga erishuvi to‘g‘risida xulosa chiqarishni ta’minlaydi.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- tashqi qarz manbalaridan moliyaviy mustaqillik;
- moliyaviy resurslardan erkin va samarali foydalanish borasida korxonaning qobiliyati;
- xo‘jalik faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan o‘z mablag‘lari summalarining korxonada barqaror mavjudligi.

Korxona salohiyati aksariyat iqtisodchilar tomonidan moliyaviy kategoriyaga taalluqli deb hisoblanadi. Chunki bunda barcha ma’lumotlar moliyaviy hisobotgarni tahlil qilinishi orqali olinadi, biroq barqarorlikka baho berish salohiyatni aniqlashning boshqa usullarini qo‘llashni talab etadi.

Bizningcha, korxona barqarorligini baholash uning bozor, investitsion, ishlab chiqarish, moliyaviy, eng muhimi innovatsion salohiyati va undan samarali foydalanish darajasini baholashni qamrab olishi zarur. Korxonalarning barqarorligini aniq baholash imkonini beruvchi muqobil ko‘rsatkichlardan qo‘shimcha foydalanish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев А. Корхоналар молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари. //Бизнес-эксперт. 2016 йил №12(108)-сон.

2. Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. - Т.: Молия, 2003. – Б. 64-85.

3. Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. –Т.: Iqtisod-moliya, 2009. – Б. 254-257

4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л.. Экономикс. В 2 Т. - М.; «Республика, 1992. Т.1. С.380.

5. Крайняй И. Ю., Голиков С. Д., Григорьев В. В. Сущность финансовой устойчивости предприятия как основного критерия его финансового состояния //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №. 5-4.

6. Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2010. – 250 б.

Turobov Sherzod Alisherovich *– Qarshi davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)*

YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA TOMORQA XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: *tadqiqotda yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida hududlarda tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini samarli tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, Qashqadaryo viloyatida tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tomorqa xo‘jaligi, aholi, ekin maydoni, mahsulot, oziq-ovqat, xavfsizlik, hudud, yashil iqtisodiyot.*

Аннотация: *В исследовании освещены вопросы эффективной организации деятельности приусадебных хозяйств в регионах на основе принципов зелёной и инновационной экономики. В частности, проанализированы направления и показатели организации деятельности приусадебных хозяйств в Кашкадарьинской области. На основе результатов исследования сформулированы научные выводы.*

Ключевые слова: *приусадебное хозяйство, население, посевная площадь, продукция, продовольствие, безопасность, регион, зелёная экономика.*

Abstract: *The study examines the issues of effective organization of household (backyard) farms in the regions based on the principles of green and innovative economy. In particular, the directions and performance indicators of organizing household farm activities in the Kashkadarya region are analyzed. Based on the research findings, scientific conclusions have been developed.*

Keywords: *household farm, population, cultivated area, agricultural products, food, security, region, green economy.*

So‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi barqarorlik, resurs tejamkorlik va innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi paradigmaga o‘tmoqda. Yashil iqtisodiyot tamoyillari atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va uglerod izini kamaytirishni nazarda tutsa, innovatsion iqitisodiyot ilmiy-texnologik yutuqlar, raqamli yechimlar va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini mazkur ikki konsepsiyani uyg‘unligida tashkil etish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tomorqa xo‘jaliklari mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida muhim o‘rin tutadi, aholi bandligini ta’minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va ichki oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda strategik omil hisoblanadi. Biroq ana’naviy usullar asosida yuritilayotgan faoliyat ko‘p hollarda resurslardan samarasiz foydalanish, past mehnat unumdorligi va bozor infratuzilmasi bilan yetarli integratsiya qilinmaganlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa tomorqa xo‘jaliklari salohiyatining to‘liq ishga solinmayotganligini ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida tomorqa xo‘jaliklarida suv tejamkor texnologiyalar, organik ishlab chiqarish usullari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash amaliyotini joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Innovatsion iqtisodiyot nuqtayi nazaridan esa raqamli agrotexnologiyalar, smart-sensorlar, agrar platformalar va elektron savdo mexanizmlarini joriy etish tomorqa xo‘jaliklarini qo‘shilgan qiymat zanjirida integratsiya qilish imkonini yaratadi.

Tomorqa xo‘jaliklari barqaror rivojlanish modeli doirasida qayta konseptuallashtirishni talab etadi. Ya’ni tomorqa faoliyatini faqat qo‘shimcha daromad manbai emas, balki yashil va innovatsion iqtisodiyotning mikroiqtisodiy asosi sifatida baholash zarur. Bu yondashuv resurslar samaradorligi, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, hududlarda tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida tashkil etish masalasi zamonaviy agrar siyosat, hududiy rivojlanish strategiyasi va barqaror o‘sish konsepsiyasining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tomorqa yerlari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-

quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi farmoni mamlakatimizda mazkur sohaga davlat e’tiborining naqdar yuksakligidan dalolat beradi.

Biz o‘z monografik tadqiqotlarimizni Qashqadaryo viloyatida joylashgan tomorqa xo‘jaliklarida amalga oshirdik. 2025-yil holatiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 28,6 ming km^2 tashkil etib, uning 2,8 foizi aholi tomorqa yerlari hisoblanadi. Hozirgi kunda viloyatda 828 ta MFYlar mavjud bo‘lib, ularda jami 723,6 mingta xonadonlar hamda 895,6 mingta oilalar ro‘yxatga olingan.

Viloyatda 2,9 mln gektar yer maydonning 2,1 mln gektari (72 %) qishloq xo‘jaligida foydalaniladi. 676 ming gektar ekin, shundan 417 ming gektar sug‘oriladigan, 259 ming gektar lalmi, 39 ming gektar ko‘p yillik daraxtzor, 22 ming gektar bo‘z yerlar, 1,4 mln ga yaylov. 2019-2024 yillarda 121,2 ming gektar (2023-2024 yillarda 39 ming gektar) qayta foydalanishga kiritildi, 53,1 ming gektar lalmi, yaylovlar o‘zlashtirildi. 2025 yilda rejadagi 5 ming gektardan 1,4 ming gektari (28 %) qayta foydalanishga kiritildi.

1-jadval

2025-yilda Qashqadaryo viloyatidagi aholi tomorqalarida ekinlar ekilishi haqida ma’lumot[2]

Tomorqasi bor (ekin ekiladigan) xonadonlar soni	Ekin ekiladigan maydon,ga	10-martdan - 10 aprelga qadar ekin ekilgan maydon, ga	shundan					
			Sabzavot	Poliz	Kartoshka	Dukkakli ekinlar	Moyli ekinlar	Boshqa ekinlar
611 459	63 959	63 959	31 232	3 721	9 158	2 983	369	7 817

Jadval ma’lumotlari tahlili Qashqadaryo viloyati hududlarida tomorqa xo‘jaliklarida ekin ekish jarayonlari barqaror va to‘liq qamrovda amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Ekin turlari tarkibiy tahliliga ko‘ra, asosiy ulush sabzavot ekinlariga to‘g‘ri kelib, ular 31232 gektarni yoki umumiy maydonning qariyb yarmini tashkil etmoqda. Kartoshka yetishtirish 9158 gektar, poliz ekinlari 3721 gektar, dukkakli ekinlar 2983 gektar, moyli ekinlar esa atigi 369 gektarni tashkil etgan. Bu holat tomorqa xo‘jaliklarining asosan aholining kundalik oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganini, ya’ni ijtimoiy ahamiyatga ega ekin

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 14-fevralidagi “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-22-sonli farmoni.

[2] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

turlari ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, biz viloyat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish darajasini o‘rgandik (2-jadval).

2-jadval

Oziq-ovqat mahsulotlarini ta’minlanish darajasi[3]

Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Yillik talab	2025-yilda yetishtirish	Farqi	Ta’min-lanish dara-jasi %
Sabzavot	ming tn	433,8	597,2	163,4	137,7
Kartoshka	ming tn	191,4	205,1	13,7	107,2
Meva	ming tn	266	186,5	-79,5	70
Go‘sht	ming tn	155,1	345,0	19,1	112,3
Sut	ming tn	421,4	1380,1	958,7	327
Tuxum	mln. dona	756,9	564,2	-192,7	74,5
Baliq	ming tn	25,8	4,3	-21,4	17
O‘sim. yog‘i	ming tn	59,7	6,9	-52,8	11,5
Guruch	ming tn	35,6	-	-34,1	-

Tahlil natijalariga ko‘ra, ayrim mahsulotlar bo‘yicha hudud ichki talabni to‘liq qoplash bilan birga profisit hosil qilmoqda. Biroq ayrim strategik ahamiyatga ega mahsulotlar bo‘yicha jiddiy tanqislik kuzatiladi. Masalan, meva mahsulotlari bo‘yicha ta’minlanish darajasi 70 foizni, tuxum bo‘yicha 74,5 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, baliq (17 foiz) va o‘simlik yog‘i (11,5 foiz) bo‘yicha ta’minlanish darjasining juda pastligi ushbu segmentlarda ishlab chiqarish bazasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Guruch bo‘yicha ishlab chiqarish ko‘rsatkichining mavjud emasligi esa hududning mazkur mahsulot bo‘yicha tashqi manbalarga yuqori darajada qaram ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, viloyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda tarmoqlararo nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim mahsulotlar bo‘yicha profisit ishlab chiqarish resurslar taqsimotining qayta ko‘rib chiqilishini talab etsa, tanqis mahsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, investitsiya jalb etish va texnologik modernizatsiyani kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi va tomorqada qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdan manfaatdorlik darajasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

[3] Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Умар Худайбердиев *-СамИСИ доценти, и.ф.н.*

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Аннотация: *Мақолада мамлакатда хизматлар соҳасининг юқори суръатлар билан ривожланаётганлиги, хизматлар соҳасининг аҳоли бандлигини таъминлашдаги, камбағалликни қисқартиришдаги аҳамияти ҳамда соҳани янада ривожлантириш имкониятлари баён қилинган.*

Калит сўзлар: *ҳизматлар соҳаси, юқори суръатлар, ривожланиш, ҳисса, хизматлар турлари, хизматлар сифати.*

Аннотация: *В статье описывается стремительное развитие сектора услуг в стране, его значение в обеспечении занятости и сокращении бедности, а также возможности для дальнейшего развития этого сектора.*

Ключевые слова: *сектор услуг, высокоскоростной транспорт, развитие, вклад, виды услуг, качество услуг.*

Abstract: *This article describes the rapid development of the service sector in the country, its importance in providing employment and reducing poverty, and opportunities for further development.*

Keywords: *service sector, high-speed transport, development, contribution, types of services, service quality.*

Асосий муаммолардан бўлган аҳоли бандлигини таъминлашда, қамбағалликни қисқартириш ва даромадларини кўпайтиришда хизматлар соҳасининг ўрни беқиёс. Чунки хизматлар соҳасининг турлари жуда кўп бўлиб, уларнинг айрим турлари бўйича фаолият юритиш учун жуда катта маблағ зарур эмас. Бундай хизмат турларига: таълим, суғурта, савдо, соғлиқни сақлаш, бухгалтерлик, рекламани ташкил қилиш каби турларини киритиш мумкин. Шунинг учун ҳам хар йили хизматлар соҳасида фаолият юритаётган субъектлар сони купайиб бормоқда. Фақат 2024 йилда 53685та корхоналар янгидан ташкил этилиб, иш бошлаган. 2025 йил бошига хизматлар соҳасида фаолият юритаётган корхоналар сон 310834та бўлиб, уларнинг кўплари кичик тадбиркорлик субъектларидир.

Ўзбекистонда хизматлар соҳаси юқори суръатлар билан ривожланмоқда.

Хизматлар соҳаси ҳажмининг 2020-2024 йиллардаги динамикаси

№	Йиллар / кўрсаткичлар	2020	2021	2022	2023	2024	2024 йил 2020йилга нисбатан %
1	Хизматлар ҳажми млрд.сўм	219978,5	254388,1	366891,0	649806,4	818428,3	372,0

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, хизматлар соҳаси хар йили юқори (10,0 фоиздан кўпроқ) суръатлар билан кўпаймоқда. 2020 йилдаги 3,0 фоизгина ўсиш бутун дунёни қамраб олган короновирус пандемияси билан боғлиқ. Пандемия даврида барча давлатлар чегараларини ёпиб, карантин эълон қилган бўлиб, бу давр хтзматлларнинг туризм, транспорт ва шу каби турларига жиддий таъсир қилган эди. Хизматлар соҳаси пандемияга қарамасдан ушбу даврда яъни 2020-2024 йилларда 3б7 бараварга кўпайган.

Хизматлар соҳаси Тошкент шаҳрида яхши йўлга қўйилган мамлакат хизматлар ҳажмининг 36,5 фоизи (2024 йил) Тошкент шаҳрига тўғри келади. Ундан ташқари Самарқанд - 7,2%, Тошкент- 6,9%, Фарғона - 6,7% вилоятлари ҳам салмоқли улишни ташкил этади.

Хизмат турлари бўйича катта ҳиссани 2024 йил яшаш ва овқатланиш хизматлари - 22,4%ни, Савдо хизматлари - 18,3 %ни, транспорт хизматлари - 17,7%ни, Молиявий хизматлар - 16,5%ни ташкил этган[4].

Хизматлар саҳоси юкори суръатлар билан ривожланиб бораятганлиги сабабли, унинг мамлакат ялпи ички маҳсулотдаги ҳиссаси ошиб бормоқда. Мамлакат ялпи ички маҳсулот таркибида хизматлар 2020 йилда 41,6 фоизни ташкил этган бўлса, 2024 йилга келиб 47,4 фоизни 41,6 ташкил этади.

Хизматлар соҳаси бозор иқтисодиёти ривожланган АҚШ ва Европа мамлакатларида мамлакатлар ялпи ички маҳсулотининг катта ҳиссасини эгаллайди. 2023 йилда АҚШда хизматлар мамлакат ялпи ички маҳсулот ҳажмида 81,0 фоизни, Японияда – 76,0 фоизни, Германияда - 69,0 фоизни ташкил этган.

Демак, Ўзбекистонда хизматлар соҳасини юқори суръатлар билан ривожлантириш имкониятлари мавжуд. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон Қарори муҳим аҳамиятга эга. Қарорда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланиб, хизмат кўрсатувчи субъектларга қулай шарт-шароит яратиш, хизматлар сифатини яхшилаш, ҳажмини кўпайтириш, ишсизларни жалб қилиш масалалари қўйилган.

Хизматлар ҳажмини ошириш ва сифатини яхшилаш учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур деб ғисоблаймиз:

-Хизмат турларига бўлган эҳтиёжни ўрганишни мунтазам ўйлга қўйиш ва доимий равишда ўрганиб бориш;

-Хизмат турларини талаб асосида истеъмолчиларга яқинлаштирим, амниқса қишлоқ жойларда;

-Хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш, салоҳиятли кадрларни тайерлаш.

[4] 1. Мохира Асқарбой қизи Умирова “Хизмат кўрсатиш тармоқларининг иқтисодиётда тутган урни ҳамда ривожланиш истиқболлари” “Сервис” илмий-амалий журнал 2023 йил 3-сон, 84 бет

-Рақамли технологияларни жорий қилиш йўли билан хизмат турларини кенгайтириш, тезкорлиги ва қулайлигини таъминлаш.

Хизмат кўрсатишни янада ривожлантириш аҳолини иш билан бандлигини таъминлайди, доромадли бўлишига ва камбағалликнинг қисқаришига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлатлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон Қарори
2. Мохира Асқарбой қизи Умирова “Хизмат кўрсатиш тармоқларининг иқтисодиётда тутган урни ҳамда ривожланиш истиқболлари” “Сервис” илмий-амалий журнал 2023 йил 3-сон, 84 бет
3. www.stat.uz

Зиёев Джамшид Нуъмонович *– Преподаватель кафедры «Экономика» Университет экономики и педагогики*

УПРАВЛЕНИЕ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В РЕГИОНЕ

Annotatsiya:*Ushbu maqola mintaqaviy oziq-ovqat sanoatida innovatsion rivojlanishning hozirgi tendentsiyalarini tahlil qiladi. Unda raqamli texnologiyalar va ilmiy va innovatsion yechimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, sifat nazoratini kuchaytirishi va logistika jarayonlarini optimallashtirishi mumkinligi ta'kidlangan. Maqolada shuningdek, innovatsion ishlab chiqarish usullari, marketing strategiyalari, brendni rivojlantirish va barqaror ekologik yechimlar orqali mintaqaviy oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *oziq-ovqat sanoati, innovatsiya, raqamli transformatsiya, mintaqaviy rivojlanish, barqaror ishlab chiqarish, logistika.*

Abstract: *This article analyzes current trends in innovative development in the regional food industry. It emphasizes that digital technologies and scientific and innovative solutions can improve production efficiency, strengthen quality control, and optimize logistics processes. The article also presents ways to enhance the competitiveness of the regional food industry through innovative production methods, marketing strategies, brand development, and sustainable environmental solutions.*

Keywords: *food industry, innovation, digital transformation, regional development, sustainable production, logistics.*

Аннотация: *В статье анализируются современные направления инновационного развития региональной пищевой промышленности. Подчеркивается, что цифровые технологии и научно-инновационные решения позволяют повысить эффективность производства, усилить контроль качества и оптимизировать логистические процессы. В то же время, в статье представлены пути повышения конкурентоспособности региональной пищевой промышленности за счет инновационных методов производства, маркетинговых стратегий, развития бренда и устойчивых экологических решений.*

Ключевые слова*: пищевая промышленность, инновации, цифровая трансформация, региональное развитие, устойчивое производство, логистика.*

ВВЕДЕНИЕ. В последние годы пищевая промышленность нашей страны приобрела стратегическое значение для экономики страны. На мировом рынке возрастает потребность во внедрении инновационных технологий для создания конкурентоспособной продукции, оптимизации производственных процессов и повышения качества.

Внедряя цифровые технологии, интеллектуальное оборудование и научные подходы к производству, региональные производители [1]:

• повышают качество продукции;

• сокращают отходы и излишние затраты;

• ускоряют процессы логистики и доставки.

Кроме того, благодаря инновационным маркетинговым стратегиям и развитию бренда местные продукты найдут свое место в рыночной конкуренции. Поэтому устойчивое и инновационное развитие пищевой промышленности является важным условием роста региональной экономики и обеспечения конкурентоспособности на мировом рынке.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Тема инновационных технологий и цифровой трансформации в пищевой промышленности в последние годы изучалась во многих исследованиях. По мнению Гулямова и его коллег [1], информационные системы и современные технологии позволяют оптимизировать производственные процессы и повысить качество продукции. Рахимов [2] также выделил механизмы обнаружения и предотвращения ошибок в производственном процессе с помощью интеллектуальных систем, которые помогут региональным производителям эффективнее использовать ресурсы.

Кадыров [3] проанализировал возможности повышения рыночной конкурентоспособности продукции, развития брендов и анализа потребительского спроса с помощью инновационных маркетинговых и цифровых решений. В то же время Брусиловский [4] показал роль интеллектуальных систем в управлении производственными и логистическими процессами. Бессмертный [5] исследовал значение искусственного интеллекта для повышения уровня автоматизации и контроля качества в пищевой промышленности, отметив положительные результаты применения современных технологий в производстве.

Кроме того, интернет-источники [6] освещают возможности региональной пищевой промышленности по повышению эффективности производства, оптимизации логистики и процессов доставки, а также обеспечению экологической устойчивости за счёт инновационных подходов и цифровой трансформации. В целом, существующие исследования показывают, что современные технологии и научные подходы важны для повышения конкурентоспособности региональной пищевой промышленности и успешного функционирования на мировых рынках.

ГЛАВНЫЙ РАЗДЕЛ

Инновационные технологии в пищевой промышленности способствуют автоматизации производственных процессов и усилению контроля качества. В частности:

- Автоматизированные производственные линии обеспечивают однородность и качество продукции;
- Технологии Интернета вещей позволяют осуществлять онлайн-мониторинг процессов производства, хранения и доставки продукции;
- Системы искусственного интеллекта помогают выявлять и предотвращать ошибки в производственном процессе.

Кроме того, благодаря инновационным технологиям региональные производители смогут увеличить производственные мощности, эффективно использовать энергию и ресурсы, а также сократить количество отходов.

Цифровые решения помогают эффективно управлять процессами производства и доставки продуктов питания. Например:

• Цифровые системы мониторинга позволяют своевременно выявлять проблемы в цепочке поставок и разрабатывать быстрые решения;

• Продукция может распределяться в соответствии с рыночным спросом через онлайн-платформы;

• Анализ данных позволяет снизить затраты и сократить сроки доставки.

Благодаря логистике и цифровой трансформации региональные производители смогут эффективно доставлять свою продукцию и быстро удовлетворять потребности потребителей [2].

Современные маркетинговые стратегии играют ключевую роль в повышении конкурентоспособности региональной продукции и обеспечивают её успешное продвижение как на внутреннем, так и на внешнем рынке. Одним из самых эффективных инструментов является цифровой маркетинг, который охватывает использование специализированных онлайн-платформ, интернет-рекламы, социальных сетей и аналитических сервисов. Благодаря этому производители получают возможность охватить более широкую аудиторию, оперативно взаимодействовать с потенциальными потребителями и продвигать свои товары на новых рыночных сегментах.

Не менее важным направлением является формирование сильного и узнаваемого бренда. Грамотно выстроенная брендинговая стратегия позволяет создать устойчивый позитивный образ продукта, сформировать доверие у потребителей и выделить продукцию среди множества аналогов. Развитие бренда способствует укреплению долгосрочных отношений с клиентами и повышению лояльности, что, в свою очередь, обеспечивает стабильный спрос и рост рыночной доли производителя.

Кроме того, современные подходы к маркетингу предполагают обязательное проведение всестороннего анализа рынка. Исследование потребительских предпочтений, мониторинг конкурентной среды, оценка

динамики спроса и прогнозирование его будущих изменений дают возможность предприятиям гибко адаптировать свою деятельность к рыночным условиям. На основе полученных данных производители могут разрабатывать более точные и эффективные стратегии продвижения, корректировать ассортимент, оптимизировать ценовую политику и ускорять вывод новых продуктов на рынок.

Таким образом, комплексное применение цифровых инструментов, брендинговых технологий и аналитических методов позволяет региональной продукции обрести устойчивые конкурентные преимущества. Современные маркетинговые стратегии не только повышают видимость товара и расширяют его целевую аудиторию, но и способствуют созданию прочной репутации, увеличению продаж и укреплению позиции региональных производителей в условиях усиливающейся рыночной конкуренции.

В то же время инновационные маркетинговые стратегии помогают региональным производителям найти свое место на мировом рынке [4].

Важно обеспечить экологическую безопасность в процессе инновационного развития. Например:

- переработка и утилизация отходов;
- внедрение энергосберегающих технологий;
- эффективное использование природных ресурсов;
- производство экологически чистой продукции.

Эти решения способствуют устойчивому развитию региональной пищевой промышленности, а также повышению социально-экономических выгод.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Инновационное развитие и цифровая трансформация внесут существенные позитивные изменения в региональную пищевую промышленность [5]. Современные технологии и цифровые решения позволят повысить эффективность и качество производственных процессов, что позволит улучшить качество продукции и оптимизировать использование производственных ресурсов. При этом автоматизация и интеграция логистики и систем доставки позволят быстро и эффективно доставлять продукцию на рынок.

Повышение конкурентоспособности местных производителей, выход на новые рынки и расширение экспортных возможностей также достигается за счет инноваций и цифровых решений [6]. Эти процессы также способствуют экологической устойчивости, поскольку передовые технологии помогают экономить ресурсы и избегать вреда окружающей среде. В то же время цифровые системы позволяют глубоко анализировать запросы потребителей и производить продукцию, отвечающую их потребностям.

В результате инновационное развитие и цифровая трансформация превратят региональную пищевую промышленность в более эффективную, конкурентоспособную и устойчивую систему.

Одновременно с этим цифровые решения и инновации подготовят региональных производителей к активному участию в глобальной конкуренции и обеспечат экономическую стабильность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Инновационное развитие региональной пищевой промышленности способствует повышению эффективности производства и созданию конкурентоспособной продукции. Внедрение современных технологий и систем Интернета вещей позволяет оптимизировать процессы логистики и доставки, что ускорит доставку продукции на рынок и снизит затраты.

Устойчивые и экологически безопасные методы производства обеспечивают долгосрочное развитие региональной промышленности, позволяют производить качественную продукцию без ущерба для окружающей среды. Инновационные маркетинговые стратегии повышают конкурентоспособность продукции на международном и внутреннем рынках, способствуют узнаваемости бренда и расширяют клиентскую базу [6].

В целом, инновационные решения и цифровая трансформация послужат основой для укрепления позиций региональной пищевой промышленности на мировом рынке и повышения её экспортного потенциала, что обеспечит экономическую эффективность и устойчивое развитие. Инновационные технологии и научные подходы выведут региональных производителей на новый уровень, послужат удовлетворению потребностей потребителей и обеспечат экономическую стабильность страны.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гулямов С.С. и др. «Информационные системы и технологии». Учебник для студентов вузов. – Т.: «Шарк», 2000. – 336–368 с.

2. Рахимов Н.О. Модели представления знаний в интеллектуальных системах обучения // Вестник ТАТУ. – Ташкент. № 4, 2010. – 64–68 с.

3. Кадыров М.М. Учебник по дисциплине «Информационные технологии». Часть 1. – Т.: «Сано-стандарт», 2018. – 192–237 с.

4. Брусиловский П.Л. Интеллектуальные системы обучения // Информатика. Научно-технический сборник. Киев, 1990. № 2.

5. Бессмертный И.А. «Искусственный интеллект». Учебное пособие. СПб., 2010. – 27–32 с.

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Пищевая_промышленность

Мурадова Наргиза Улжаевна *– Д.ф.э.н. (PhD), доцент кафедра Экономики Самаркандского филиала ТМУК*

СПЕЦИФИКА СИСТЕМЫ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЦИФРОВОЙ ЭКОСИСТЕМЫ ВУЗОВ

Аннотация: *В данной работе предложены системы показателей цифровой экосистемы вуза. Система структурирована по восьми ключевым измерениям: от стратегии и инфраструктуры до цифровой культуры и управления данными. Предложенный перечень блоков может служить фундаментом для разработки универсальной методики мониторинга цифровой зрелости высших учебных заведений.*

Ключевые слова: *цифровая экосистема вуза, система показателей, цифровая зрелость, цифровая трансформация образования, управление данными, цифровая культура, стратегия цифровизации, образовательная аналитика.*

Annotatsiya: *Mazkur ishda oliy ta’lim muassasasi raqamli ekotizimining ko‘rsatkichlar tizimi taklif etilgan. Tizim sakkizta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tuzilgan: strategiya va infratuzilmadan tortib, raqamli madaniyat va ma’lumotlarni boshqarishgacha. Taklif etilayotgan bloklar ro‘yxati oliy ta’lim muassasalarining raqamli yetukligini monitoring qilishning universal metodikasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *OTM raqamli ekotizimi, ko‘rsatkichlar tizimi, raqamli yetuklik, ta’limning raqamli transformatsiyasi, ma’lumotlarni boshqarish, raqamli madaniyat, raqamlashtirish strategiyasi, ta’lim tahlili (educational analytics).*

Abstract: *This paper proposes a system of indicators for the digital ecosystem of a higher education institution. The system is structured across eight key dimensions: ranging from strategy and infrastructure to digital culture and data management. The proposed set of blocks can serve as a foundation for developing a universal methodology for monitoring the digital maturity of higher education institutions.*

Keywords: *university digital ecosystem, system of indicators, digital maturity, digital transformation of education, data management, digital culture, digitalization strategy, educational analytics.*

Республика Узбекистан за последние пять лет приняла ряд нормативно-правовых актов, в которых имеется комплексная цель на повышение международной конкурентоспособности вузов, что невозможно без оценки их цифровой зрелости по международным стандартам.[5]

В процессе изучения международного опыта, теоретических основ оценки сложных систем и специфики высшего образования может быть сформирована многоуровневая система показателей оценки цифровой экосистемы вуза.[6] Система включает несколько блоков показателей, соответствующих ключевым измерениям цифровой экосистемы: стратегия и

[5] Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 08.10.2019 г. за № УП-5847; Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 05.10.2020 г. за № УП-6079.

[6] Мерзлов И.Ю. Методы оценки цифровой зрелости: обзор международной практики // Креативная экономика. 2022. № 2. С. 415-434; Дериземля В.Е., Тер-Григорьянц А.А. Оценка уровня цифровой зрелости экономических систем // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. 2020. № 6. С. 87-93; Гилева Т.А. Цифровая зрелость предприятия: методы оценки и управления // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика. 2019. № 1 (27). С. 38-52.

управление; цифровая инфраструктура; цифровой образовательный процесс; цифровые компетенции; цифровая научно-исследовательская деятельность; цифровые сервисы и пользовательский опыт; управление данными и аналитика; цифровая культура и вовлеченность.

Блок показателей стратегии и управления цифровой трансформацией оценивает наличие и качество стратегического видения, механизмов управления изменениями, ресурсного обеспечения цифровизации. Ключевые показатели данного блока включают: наличие утвержденной стратегии цифровой трансформации с конкретными целевыми показателями и сроками достижения; степень интеграции стратегии цифровой трансформации с общей стратегией развития вуза; наличие подразделения, ответственного за координацию цифровой трансформации; доля бюджета вуза, направляемая на развитие цифровой инфраструктуры и компетенций; наличие системы ключевых показателей эффективности цифровизации и регулярного мониторинга их достижения. Такая градация позволяет более нюансированно оценить зрелость стратегического управления цифровизацией.

Блок показателей цифровой инфраструктуры оценивает техническую базу цифровой экосистемы вуза. Данный блок включает как количественные показатели оснащенности, так и качественные характеристики интегрированности, надежности, масштабируемости инфраструктуры. Ключевые показатели инфраструктурного блока: наличие высокоскоростного доступа к интернету во всех учебных корпусах и общежитиях (пропускная способность каналов связи в расчете на одного пользователя); доля аудиторий, оборудованных средствами мультимедиа и возможностью трансляции занятий онлайн; наличие беспроводной сети Wi-Fi с достаточным покрытием; количество рабочих мест в компьютерных классах в расчете на 100 студентов; средний возраст компьютерного парка вуза.

Блок показателей цифрового образовательного процесса является центральным для оценки цифровой экосистемы вуза, поскольку именно образовательная деятельность составляет ядро миссии вуза. Показатели данного блока должны отражать степень интеграции цифровых технологий в образовательный процесс, качество цифрового образовательного контента, эффективность использования технологий для улучшения образовательных результатов. Важным аспектом оценки является анализ результативности цифрового обучения. Показатели могут включать: сравнение образовательных результатов студентов, обучающихся с применением цифровых технологий, с контрольными группами; показатели завершения онлайн-курсов; динамика успеваемости студентов после внедрения адаптивных образовательных технологий; оценки работодателей цифровых компетенций выпускников. Эти показатели позволяют оценить не просто наличие технологий, а их реальное влияние на качество образования.

Блок показателей цифровых компетенций оценивает готовность и способность различных категорий участников образовательного процесса эффективно использовать цифровые технологии. Человеческий фактор является критически важным для успеха цифровой трансформации – даже самая совершенная технологическая инфраструктура не будет эффективно использоваться без соответствующих компетенций пользователей. Показатели цифровых компетенций профессорско-преподавательского состава включают долю преподавателей, прошедших повышение квалификации в области цифровых образовательных технологий за последние три года; средний балл самооценки преподавателями своих цифровых компетенций по стандартизированной шкале; доля преподавателей, активно использующих систему управления обучением (создают курсы, размещают материалы, проводят онлайн-тестирование); доля преподавателей, разработавших онлайн-курсы; доля преподавателей, использующих образовательную аналитику для улучшения преподавания; количество преподавателей, имеющих сертификаты или подтверждения цифровых педагогических компетенций.

Показатели цифровой научно-исследовательской деятельности. Блок показателей цифровой научно-исследовательской деятельности оценивает степень использования цифровых технологий для поддержки исследовательских процессов, управления исследовательскими данными, научной коммуникации и коллаборации. Для исследовательских и особенно для ведущих вузов этот блок имеет критическое значение. Ключевые показатели включают: наличие высокопроизводительной вычислительной инфраструктуры для научных расчетов; доступ к системам удаленного доступа к научному оборудованию и цифровым лабораториям; наличие институциональных репозиториев для хранения и публикации научных данных и публикаций; доля исследовательских проектов, использующих системы электронных лабораторных журналов; использование систем управления исследовательской информацией для отслеживания научной продуктивности; количество публикаций в открытом доступе в расчете на научно-педагогического работника.

Показатели цифровых сервисов и пользовательского опыта. Блок показателей цифровых сервисов и пользовательского опыта оценивает качество, доступность и удобство использования цифровых сервисов вуза с точки зрения конечных пользователей – студентов, преподавателей, абитуриентов, выпускников. Этот блок отражает клиентоориентированный подход к цифровой трансформации. Показатели охвата цифровыми сервисами основных процессов взаимодействия с вузом включают: доля административных услуг для студентов, доступных в электронном виде через личный кабинет; наличие электронных сервисов для абитуриентов (подача документов, отслеживание статуса, зачисление); доступность электронного расписания с возможностью персонализации и уведомлений; наличие мобильных приложений для доступа к ключевым сервисам;

интеграция сервисов через единый вход и единый пользовательский интерфейс; доступность онлайн-записи на консультации с преподавателями или в службы поддержки.

Показатели управления данными и аналитики. Блок показателей управления данными и аналитики оценивает способность вуза собирать, интегрировать, анализировать и использовать данные для принятия обоснованных решений. В эпоху больших данных и искусственного интеллекта способность эффективно работать с данными становится ключевым конкурентным преимуществом вуза. Показатели инфраструктуры данных включают: наличие единого хранилища данных (data warehouse) или озера данных (data lake), интегрирующего информацию из различных систем вуза; наличие каталога данных с описанием доступных наборов данных и условий доступа; использование единых справочников и классификаторов для обеспечения согласованности данных; наличие процедур обеспечения качества данных; доля автоматизированной интеграции данных между системами без ручного вмешательства.

Показатели цифровой культуры и вовлеченности. Блок показателей цифровой культуры и вовлеченности оценивает нематериальные аспекты цифровой экосистемы – отношение участников к цифровым изменениям, готовность к инновациям, практики обмена опытом, уровень вовлеченности в процессы цифровой трансформации. Этот блок, несмотря на сложность формализации, является критически важным, поскольку организационная культура часто определяет успех или неудачу технологических инициатив. Показатели отношения к цифровым изменениям: доля преподавателей и сотрудников, положительно воспринимающих цифровые инновации; уровень сопротивления изменениям при внедрении новых систем; индекс готовности к изменениям; степень вовлеченности руководства различных уровней в процессы цифровой трансформации; наличие и активность цифровых лидеров и амбассадоров в различных подразделениях.

Система показателей должна предусматривать возможность расчета интегрального индекса цифровой зрелости, позволяющего получить обобщенную оценку состояния цифровой экосистемы вуза. Для этого необходимо определить весовые коэффициенты различных блоков показателей и методику агрегирования индивидуальных индикаторов в блочные и итоговый индексы.

Определение весовых коэффициентов может осуществляться различными методами: экспертным методом, когда специалисты оценивают относительную важность различных блоков; методом анализа иерархий, позволяющим структурировать и формализовать экспертные суждения; статистическими методами (например, факторный анализ) на основе эмпирических данных; ориентацией на стратегические приоритеты конкретного вуза. В зависимости от типа и миссии вуза веса блоков могут варьироваться. Для исследовательского вуза блок цифровой научной

деятельности будет иметь больший вес, чем для вуза, ориентированного преимущественно на образование.

Список использованных источников:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 08.10.2019 г. за № УП-5847;
2. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 05.10.2020 г. за № УП-6079;
3. Гилева Т.А. Цифровая зрелость предприятия: методы оценки и управления // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика. 2019. № 1 (27). С. 38-52;
4. Дериземля В.Е., Тер-Григорьянц А.А. Оценка уровня цифровой зрелости экономических систем // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. 2020. № 6. С. 87-93;
5. Мерзлов И.Ю. Методы оценки цифровой зрелости: обзор международной практики // Креативная экономика. 2022. № 2. С. 415-434.

II SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH, KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH, AHOLI BANDLIGI, FAROVONLIGI, YASHASH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich *- Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori*

AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHINI IMITATSION MODELLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *ushbu maqolada aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirishning zarurligi, bu boradagi maqsadlarga erishish bilan bog’liq bo’lgan ishlarning samaradorlik ko‘rsatkichini yaxshilash va aholiga yuqori xizmat ko‘rsatishda imitatsion modellardan foydalanishga asosiy e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish, ekonometrik modellashtirish, texnologik modernizatsiya, imitatsion model, iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy tizim, baholash mezoni, bashoratlash.*

Аннотация: *в данной статье рассматривается необходимость дальнейшего развития сферы государственных услуг, повышения эффективности работы, связанной с достижением целей в этой области, и использования имитационных моделей для предоставления высококачественных услуг населению.*

Ключевые слова: *услуги, эконометрическое моделирование, технологическая модернизация, имитационная модель, экономическая эффективность, экономическая система, критерии оценки, прогнозирование.*

Abstract: *This article examines the need for further development of public services, improving the efficiency of work related to achieving goals in this area, and the use of simulation models to provide high-quality services to the public.*

Keywords: *services, econometric modeling, technological modernization, simulation model, economic efficiency, economic system, evaluation criteria, forecasting.*

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga qaratilgan sa’i-harakatlar natijasida xizmat ko’rsatish sohasida ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947 - sonli Farmonida “...xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish” muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan [1].

Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholi turmush darajasini oshirish harakatlar strategiyasida bayon etilgan maqsadlarga muvofiq ravishda kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirish va ijtimoiy ta’minotni yaxshilash maqsadlariga erishish

uchun umummilliy va mahalliy darajada 2017-2021 yillar davomida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan qator chora-tadbirlar ham hisobga olingan[2].

2017-2021 yillardan keyingi davrda ham xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinadigan loyihalar aholiga xizmat ko‘rsatish darajasi sifatini oshirish imkonini berishi uchun texnologik modernizatsiya va inson resurslarini shakllantirish, turmush farovonligiga sarmoyalar yo‘naltirish borasidagi uzoq muddatli maqsadlarga muvofiqdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmonida “Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 barobarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish, shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini rivojlantirish, respublika hududlarida savdo va yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish, servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 barobarga qisqartirish, xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3].

Aholiga xizmat ko’rsatishni yanada yaxshilashda imitatsion modellardan keng foydalanilmoqda. Modelni amalga oshirishda ma’lumotlar bilan ishlash tizimini joriy qilishning birinchi bosqichida zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurati nazarda tutiladi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini takomillashtirish ko‘plab ko‘rsatkichlarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kategoriyadir. Shu munosabat bilan, uni kompleks baholash uchun imitatsion model ishlab chiqilgan. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatish aylanmasi, xizmat iste’moli aholi turmush darajasining ijtimoiy samaradorligini bildiradi.

Ma’lumotlar to‘plamini boshqarish tizimining tuzilish mexanizmi hozirgi paytda shu darajaga yetganki, u foydalanuvchi interfeysini turli xil amaliy dastur paketlari yordamida amalga oshirishga imkon yaratadi. Shunisi xarakterliki, statistik modellarni ishlab chiqishda universal tillarning istalgan biridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lsada, amaliyotda ko‘pincha ixtisoslashtirilgan tillar va dasturiy vositalardan foydalanishga ustuvorlik berilmoqda.

Imitatsion model analitik modeldan farql qilib, o‘rganilayotgan obyektning xatti-harakati va ichki tuzilmasigacha ko‘rsatuvchi yoyilgan sxemani bildiradi. Modelda ifodalanuvchi hodisalarni, ularning mantiqiy tuzilmasini saqlagan holda, vaqt bo‘yicha ketma-ketligini, o‘rganilayotgan tizimning o‘zgaruvchilari va parametrlari o‘rtasidagi aloqalarni saqlagan holda qayta ishlash imitatsion model uchun xarakterlidir.

Imitatsion modellar modellashtirilayotgan tizim haqida axborot olish va qarorlarni shakllantirishga oid bahoni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan. Imitatsion model har xil vositalar yordamida berilishi mumkin. Bu vositalar funksional tahliliy elementlardan foydalanib, differensial va integral tenglamalar tuzishdan hisoblash algoritmi va EHM dasturlarini yozishgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshirish va hududlarda ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirishni modellashtirishda avtomatlashtirilgan axborot bazasini yaratish uchun imitatsiya ko‘rsatkichlari hamda boshqarishning tizimli modellashtirish uslublari qo‘l keladi.

Ayni vaqtda, imitatsiyali modellashtirish tizimiga xos bo‘lgan qator afzalliklarning mavjudligini e’tirof etish joiz. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat: o‘rganishning osonligi, modelni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning nisbatan kamligi, modellashtirish natijalarini yig‘ish, qayta ishlash va taqdim etishning avtomatlashtirilganligi, dasturlashning universal tillarida yozilgan modullarga ulanish mumkinligi va dasturlashning qulayligi.

Shu bilan birga, mazkur tizim o‘ziga xos kamchiliklarga ega ekanligi olimlar, mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Xususan, uning yetarli darajada moslashuvchan emasligi, ko‘proq statistik modellashtirishning ma’lum toifasiga mansub bo‘lgan modellarnigina ishlab chiqarishga qo‘llash mumkinligi kabi kamchiliklari asoslab berilgan.

Bu modellar doimiy ravishda o‘ziga nisbatan harakatga keltirish kuchlarini his etadi. Bu, eng avvalo, tizimning ichki moslashuvchanlik holati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tahlil qilishga imkon yaratadi. Boshqaruvning funksional aloqalarining samaradorligini tekshirishda integratsion yondashuv orqali ham vertikal (tizim boshqaruvining alohida elementlari o‘rtasida), ham gorizontal (mahsulotning har bir hayotiy siklida) amalga oshiriladi. Tizimli integrallashgan yondashuvga asoslangan model orqali butun tizimning umumiy xususiyatlarini ko‘rsatishga imkon yaratiladi.

Integrativ xususiyatlarning mavjudligi tizim uchun xarakterlidir, tizimda mavjud bo‘lgan, ammo uning alohida elementlaridan hech biriga xos bo‘lmagan yoki ularning yig‘indisidan iborat. Bu modelning vazifasi tizimosti emas, butun bir xizmat ko‘rsatish sohalari tizimi samaradorligini hisoblaydi.

Bunda, xizmat ko‘rsatish umumiy mustahkam tizim hisoblanib, uning bosqichlari quyidagilardan iborat: xizmat ko‘rsatish tizimi tuzilishini o‘rganish, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish, alohida elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni oshkor qilish, xizmat ko‘rsatish tizimining ishlashi to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash, axborot oqimlarini tadqiq etish, tahlil qilayotgan tizimni kuzatish va u bilan tajriba o‘tkazish, modellarni tuzish, modellarning adektvatligini tekshirish, noaniqliklar va ta’sirchanligini tahlil qilish, resurs imkoniyatlarini tadqiq etish, xizmat ko‘rsatishda tizimli tahlilning maqsadlarini aniqlash, mezonlarni shakllantirish, muqobillarni ishlab chiqish. tanlovni amalga oshirish va qaror qabul qilish, tahlil natijalarini joriy etish.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishni boshqarish va optimal natijaga erishish uchun qarorlar qabul qilinganda, uning imitatsiya modeli ishlab chiqiladi, chunki bunda u yoki bu darajada xizmat ko‘rsatishda xizmat ko‘rsatuvchining o‘zi ishtirok etmaydi, imitatsion model orqali taqlid qilinadi. Imitatsion modelda izlanishni amalga oshira borib, tadqiqotchi jarayon ko‘lamini bamisoli tadqiq etadi va o‘z axborot so‘rovi ifodasini aniqlaydi.

Aholiga xizmat ko’rsatish sohasini yanada yaxshilashda iomitatsion modellarni qo’llash bilan bog’liq bo’lgan masalalarni o’rganish yuzasidan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

-ekonometrik modellashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatining boshqaruv tizimidagi o‘ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarni o‘rganishda ushbu soha faoliyati asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

-tarmoqda samarali boshqaruv tizimini yaratish, shuningdek, boshqaruv faoliyati va strukturasini shakllantirish, xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini samarali boshqarish mexanizmini ishlab chiqish;

-hududlarda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda boshqaruv mexanizmlari ta’sirchanligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samarali tashkil etilishi iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi asosiy yo‘nalish sifatida qarash;

-aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish nazariyalari mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat boshqaruvi yo‘nalishlarini shakllantirishda ularni o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan ko‘p jihatdan mintaqalarning iqtisodiy o‘sish nazariyalariga tayanish;

-aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni, model va usullarni izlash hamda joriy etish va shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947-sonli farmoni. //www.lex.uz.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947-sonli farmoni. //www.lex.uz.

3.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni,19-bet.

Pardaev Olim Mamayunusovich *– SamISI professori, i.f.d.,*
Inoyatov Qayum Yusufovich *– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Oliy matematika kafedrasi o'qituvchisi*

XIZMATLAR SEKTORINING EKOLOGIK SAMARADORLIGI VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK

Annotatsiya*:Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda ekologik samaradorlikning iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya barqarorligi va bandlik darajasiga ta’sirini baholashdan iborat. Tadqiqotda 2015-2024 yillar kesimida makroiqtisodiy ma’lumotlar asosida panel regressiya, korrelyatsion tahlil va ekologik samaradorlik indeksi (ESI)ni hisoblash metodlari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ekologik samaradorlik indeksi 1 birlikka oshganda YAIM o‘sish sur’ati o‘rtacha 0.38% ga, bandlik darajasi 0.21% ga oshgan. Tadqiqot xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yagona model asosida tahlil qilganligi bilan ilmiy yangilik kasb etadi. Integratsiyalashgan ekologik-makroiqtisodiy model taklif qilindi. Natijalar davlat siyosatida ekologik standartlarni kuchaytirish, energiya samaradorligini oshirish va yashil xizmatlar klasterini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit So'zlar: *Xizmatlar sektori, Ekologik samaradorlik, Makroiqtisodiy barqarorlik, Energiya samaradorligi, Yashil xizmatlar klasteri, Ekologik iqtisodiyot, Inflyatsiya barqarorligi, Bandlik darajasi, Panel regressiya, Iqtisodiy o‘sish*

Abstract:*The main aim of this research is to identify the relationship between the environmental efficiency of the service sector and macroeconomic stability, as well as to assess the impact of environmental efficiency on economic growth, inflation stability, and employment levels. The research employs panel regression, correlation analysis, and the calculation of the Environmental Efficiency Index (ESI) based on macroeconomic data from 2015 to 2024. The results show that when the ESI increases by 1 unit, GDP growth rate increases by an average of 0.38%, and employment rises by 0.21%. The scientific novelty of the research lies in analyzing the interrelationship between environmental efficiency in the service sector and macroeconomic stability using a unified model. An integrated ecological-macroeconomic model is proposed. The results emphasize the need for strengthening environmental standards, improving energy efficiency, and developing green service clusters in state policies.*

Keywords: *Services sector, Eco-efficiency, Macroeconomic stability, Energy efficiency, Green services cluster, Ecological economy, Inflation stability, Employment rate, Panel regression, Economic growth*

Аннотация:*Основная цель данного исследования — выявить взаимосвязь между экологической эффективностью сектора услуг и макроэкономической стабильностью, а также оценить влияние экологической эффективности на экономический рост, стабильность инфляции и уровень занятости. В исследовании использованы методы панельной регрессии, корреляционного анализа и расчета индекса экологической эффективности (IEE) на основе макроэкономических данных за период с 2015 по 2024 годы. Результаты показали, что при увеличении IEE на 1 единицу темпы роста ВВП увеличиваются в среднем на 0,38%, а уровень занятости — на 0,21%. Научная новизна исследования заключается в анализе взаимосвязи между экологической эффективностью сектора услуг и макроэкономической стабильностью на основе единой модели. Предложена интегрированная экологико-экономическая модель. Результаты подчеркивают необходимость усиления экологических стандартов, повышения энергоэффективности и развития зеленых кластеров услуг в государственной политике.*

Ключевые слова: *Сектор услуг, Экоэффективность, Макроэкономическая стабильность, Энергоэффективность, Кластер «зеленых» услуг, Экологическая экономика, Инфляционная стабильность, Уровень занятости, Панельная регрессия, Экономический рост.*

Kirish

XXI asrda global iqtisodiyot barqaror rivojlanish paradigmasiga o‘tmoqda. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit degradatsiyasi va resurslar tanqisligi iqtisodiy tizimlarning ekologik samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Xizmatlar sektori ko‘plab davlatlarda yalpi ichki mahsulotning 50-70 foizini tashkil etadi va bandlikning asosiy manbai hisoblanadi [1]. Shu sababli xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi nafaqat ekologik xavfsizlik, balki makroiqtisodiy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ekologik samaradorlik iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo‘ladigan ekologik zararlarni kamaytirish orqali qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Xizmatlar sektorida ekologik samaradorlik energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamli platformalarni kengaytirish, logistika tizimlarini optimallashtirish va chiqindilarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi [2].

Makroiqtisodiy barqarorlik esa barqaror iqtisodiy o‘sish, past inflyatsiya, bandlikning yuqori darajasi va tashqi muvozanat bilan tavsiflanadi. Xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi energiya xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlar yashil iqtisodiyot va makroiqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan bo‘lsa-da, aynan xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi kompleks empirik tahlillar yetarli emas. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan [4].

Metadalogiya

Tadqiqotda aralash uslubiy yondashuv qo‘llanildi. 2015-2024-yillar davomida xizmatlar sektoriga oid statistik ma’lumotlar asosida ekologik samaradorlik indeksi (ESI) ishlab chiqildi:

$$ESI = \alpha_1 \left(\frac{1}{Energy\ Intensity}\right) + \alpha_2 (Resourse\ Efficiency) - \alpha_3 (CO_2\ Emissions)$$

Makroiqtisodiy barqarorlik quyidagi model orqali baholandi:

$$MS = B_0 + \beta_1 ESI + \beta_2 Investment + \beta_3 Inflation + \varepsilon$$

OLS regressiya, korrelyatsion tahlil va Hausman testi yordamida model barqarorligi tekshirildi. Hisob-kitoblar Stata 17 dasturida bajarildi.

Natija va Muhokama

Jadval 1. Regressiya natijalari xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi (ESI) va makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash maqsadida tuzilgan ko‘p omilli regressiya modeli natijalarini aks ettiradi [5].

Jadval 1.

Regressiya natijalari

№	Ko‘rsatkich	Koeffitsient	t-test	p-value
1	ESI	0.38	4.21	0.002
2	Investment	0.29	3.44	0.005
3	Inflation	-0.18	-2.87	0.012
4	R^2	0.64	-	-

(Manba: World Bank – World Development Indicators (WDI))

Mazkur rasmda 2015-2024 yillar davomida xizmatlar sektorining Ekologik samaradorlik indeksi (ESI) va YAIM o‘sish sur’atlari (%) o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlik tasvirlangan. Grafik ikki o‘qli (dual-axis) chiziqli model asosida qurilgan bo‘lib, chap vertikal o‘qda ESI qiymatlari, o‘ng vertikal o‘qda esa YAIM o‘sish sur’atlari aks ettirilgan [6].



Figure 1. Ekologik samaradorlik va iqtisodiy o‘sish dinamikasi

(Manba: OECD Green Growth Indicators Database)

Olingan natijalar xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Table 1 da ko‘rsatilganidek, ekologik samaradorlik indeksi (ESI) koeffitsienti 0.38 ga teng. Bu shuni anglatadiki, ekologik samaradorlik oshgani sari iqtisodiy barqarorlik ham ortadi. t-stat (4.21) va p-value (0.002) ko‘rsatkichlari bu bog‘liqlik statistik

jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Investitsiyalar koeffitsienti 0.29 bo‘lib, bu investitsiyalar oshishi iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishini bildiradi [7]. Demak, xizmatlar sektoriga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga va bandlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natija ham statistik jihatdan ahamiyatli ($p = 0.005$). Inflyatsiya koeffitsienti -0.18 ga teng bo‘lib, narxlar darajasi oshganda makroiqtisodiy barqarorlik pasayishini ko‘rsatadi. Bu inflyatsiya va barqarorlik o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Modelning $R^2 = 0.64$ bo‘lishi tanlangan omillar makroiqtisodiy barqarorlikdagi o‘zgarishlarning 64 foizini tushuntirib bera olishini bildiradi. Bu modelning yetarlicha ishonchli ekanini ko‘rsatadi [8].

Figure 1 da ham ekologik samaradorlik indeksi va YAIM o‘sishi o‘rtasida o‘xshash o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. 2015-2024-yillar davomida ESI oshgani sari YAIM o‘sishi ham barqaror ravishda ortgan [9]. Bu regressiya natijalarini vizual jihatdan tasdiqlaydi. Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektorida ekologik samaradorlikni oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa yashil texnologiyalar va energiya samaradorligini rivojlantirish muhimligini anglatadi [10].

Xulosa

Tadqiqot natijalari xizmatlar sektorining ekologik samaradorligi makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omili ekanini tasdiqladi. Ekologik samaradorlik oshishi iqtisodiy o‘sish va bandlikni rag‘batlantiradi hamda inflyatsiyani pasaytirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ekologik-makroiqtisodiy model xizmatlar sektorini kompleks baholash imkonini beradi. Davlat siyosatida energiya samaradorligi va yashil standartlarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] B. Sobirov and D. Tursunov, “Green transformation of the service sector in emerging economies,” E3S Web Conf., vol. 402, 2023, doi:10.1051/e3sconf/202340201045.

[2] N. Yusupov, A. Karimov, and M. Rakhimov, “Environmental efficiency and sustainable economic growth in Uzbekistan,” Sustainability, vol. 14, no. 18, 2022, doi:10.3390/su141811245.

[3] D. Khasanov and S. Abdullayev, “Energy efficiency and macroeconomic stability nexus,” IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci., vol. 939, 2022, doi:10.1088/1755-1315/939/1/012067.

[4] A. Ismailov and F. Ruziev, “Green economy indicators and service sector performance,” E3S Web Conf., vol. 258, 2021, doi:10.1051/e3sconf/202125801034.

[5] M. Nuriddinov, “Investment and ecological modernization in service industries,” Sustainability, vol. 15, 2023, doi:10.3390/su15021098.

[6] S. Kadirov and O. Kholmurodov, “Digitalization and environmental performance in Uzbekistan,” Heliyon, vol. 9, 2023, doi:10.1016/j.heliyon.2023.e14567.

[7] A. Mamatkulov, “Green growth and employment dynamics,” Energy Reports, vol. 8, 2022, doi:10.1016/j.egyr.2022.11.056.

[8] F. Akhmedov and J. Rasulov, “Macroeconomic stability and sustainable development,” Sustain. Dev., vol. 31, 2023, doi:10.1002/sd.2450.

[9] R. Tashpulatov, “Service sector emissions and economic performance,” J. Clean. Prod., vol. 386, 2023, doi:10.1016/j.jclepro.2022.135742.

[10] G. Mirzayeva and K. Abdurakhmanov, “Environmental policy and inflation dynamics,” Resour. Policy, vol. 78, 2022, doi:10.1016/j.resourpol.2022.102789.

Masharipova Manzura Alimbayevna *- “Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi, Iqtisodiyot kafedrasi, Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD. Dotsent.Xiva, O‘zbekiston*

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Annotatsiya:*Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada xizmatlar sohasining raqamli transformatsiyasi, inson kapitalini rivojlantirish va servis iqtisodiyotining hududiy ixtisoslashuvi kambag‘allikni bartaraf etishning asosiy drayverlari sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so`zlar: *Kambag‘allikni qisqartirish, innovatsion servis, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, xizmat ko‘rsatish sohasi, ijtimoiy farovonlik, kichik biznes, xizmatlar eksporti.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня жизни населения и сокращения бедности посредством инновационного развития сектора услуг. Анализируются цифровая трансформация сектора услуг, развитие человеческого капитала и территориальная специализация экономики услуг как ключевые факторы сокращения бедности.*

Ключевые слова: *Сокращение бедности, инновационные услуги, цифровая экономика, человеческий капитал, сектор услуг, социальное обеспечение, малый бизнес, экспорт услуг.*

Abstract: *This article examines the issues of improving the living standards of the population and reducing poverty through innovative development of the service sector. The article analyzes the digital transformation of the service sector, the development of human capital, and the territorial specialization of the service economy as key drivers of poverty alleviation.*

Keywords:*Poverty reduction, innovative services, digital economy, human capital, service sector, social welfare, small business, service exports.*

Global iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini shakllantiruvchi tarmoq, balki ijtimoiy tengsizlikni yumshatishning eng samarali mexanizmiga aylandi. Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasidagi mehnat unumdorligining oshishi kambag‘allik darajasini

sanoat yoki qishloq xo‘jaligiga qaraganda tezroq qisqartirish imkonini beradi[7]. Bu jarayonda innovatsiyalar, xususan, raqamli transformatsiya jarayonlari markaziy o‘rin egallaydi. Shuningdek, servis iqtisodiyotining bilim sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqlari (IT, konsalting, zamonaviy moliya) aholining past daromadli qatlamlari uchun "ijtimoiy lift" vazifasini o‘tay boshladi.Shu bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish aholining barcha qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) an’anaviy bank tizimi qamrab ololmagan chekka hududlardagi aholiga o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun moliya resurslaridan foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi uy xo‘jaliklarining iqtisodiy chidamliligini sezilarli darajada oshiradi[8].Demak, raqamli hamyonlar, mikrokreditlash platformalari va onlayn sug‘urta xizmatlari kambag‘allikni qisqartirishning texnologik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, inson kapitaliga yo‘naltirilgan servis innovatsiyalari aholining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, EdTech (ta’lim texnologiyalari) xizmatlarining rivojlanishi chekka qishloq joylaridagi yoshlar uchun sifatli bilim olish va global mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini taqdim etadi.Shu bilan birga, gig-iqtisodiyoti va platformali bandlik tizimi (masofaviy ish platformalari) kam daromadli oilalar vakillariga yuqori kapital qo‘yilmasiz daromad topish yo‘llarini ochib bermoqda[9].

Shu qatorda kambag‘allikni qisqartirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida hududiy servis xablarini (hab) tashkil etishni ko‘rsatish mumkin. Bunda har bir hududning o‘ziga xos ixtisoslashuvidan (turizm, agro-servis, logistika) kelib chiqib, innovatsion xizmat ko‘rsatish markazlarini yaratish barqaror ish o‘rinlari yaratishning asosiy yo‘lidir. Shuningdek, "aqlli qishloq xo‘jaligi" xizmatlarini (Smart Farming) joriy etish orqali agrar sektorda band bo‘lgan kambag‘al aholining daromadlarini innovatsion servis xizmatlari yordamida optimallashtirish zarur. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor sherikligida raqamli infratuzilmani chekka hududlarda rivojlantirish innovatsion xizmatlarning ommaviyligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, inson kapitaliga yo‘naltirilgan servis innovatsiyalari aholining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, EdTech (ta’lim texnologiyalari) xizmatlarining rivojlanishi chekka qishloq joylaridagi yoshlar uchun sifatli bilim olish va global mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini taqdim etadi.Shu bilan birga, gig-iqtisodiyoti va platformali bandlik tizimi (masofaviy ish platformalari) kam daromadli oilalar vakillariga yuqori kapital qo‘yilmasiz daromad topish yo‘llarini ochib bermoqda.

[7] Ravallion, M. . The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy. Oxford University Press.2016.P 34

[8]Jack, W., & Suri, T. "Risk Sharing and Transactions Costs: Evidence from Kenya's Mobile Money Revolution." American Economic Review, 2014.104(1).

[9] Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2019). "Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor." Journal of Economic Perspectives, 33(2), 3-30.

Darhaqiqat,bilimga asoslangan xizmatlar eksporti bugungi kunda hududiy chegaralarni buzib tashlab, har qanday nuqtadagi mutaxassisga dunyo bozoridan munosib ulush olish imkonini bermoqda.Shu qatorda, kambag‘allikni qisqartirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida hududiy servis xablarini (hab) tashkil etishni ko‘rsatish mumkin.Bunda har bir hududning o‘ziga xos ixtisoslashuvidan (turizm, agro-servis, logistika) kelib chiqib, innovatsion xizmat ko‘rsatish markazlarini yaratish barqaror ish o‘rinlari yaratishning asosiy yo‘lidir. Shuningdek, "aqlli qishloq xo‘jaligi" xizmatlarini (Smart Farming) joriy etish orqali agrar sektorda band bo‘lgan kambag‘al aholining daromadlarini innovatsion servis xizmatlari yordamida optimallashtirish zarur.Bu o`z navbatida davlat va xususiy sektor sherikligida raqamli infratuzilmani chekka hududlarda rivojlantirish innovatsion xizmatlarning ommaviyligini ta’minlaydi.

Demak, innovatsion servis tizimining kengayishi "ayovsiz kambag‘allik doirasi"ni (vicious circle of poverty) uzishning eng maqbul strategiyasidir. Chunki servis iqtisodiyoti o‘zining multiplikativ effekti bilan ajralib turadi va bitta yuqori texnologiyali xizmat ko‘rsatish korxonasi o‘z atrofida o‘nlab kichik servis nuqtalarini (umumiy ovqatlanish, transport, ta’minot) vujudga keltiradi. Shuningdek, ushbu sohadagi "servis klasterlari" hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik doirasida innovatsion reabilitatsiya va parvarishlash xizmatlarini joriy etish orqali aholining zaif qatlamlarini ham iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish mumkin.

Darhaqiqat, xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarning kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni faqatgina bevosita daromad manbai yaratish bilan cheklanib qolmaydi.Ushbu soha iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori multiplikativ effektga ega ekanligi bilan ajralib turadi.Xususan, chet davlatlarda taklif qilingan "servis drayverli o‘sish" (service-led growth) modeli sanoatlashgan modelga qaraganda kamroq kapital talab qiladi va ko‘proq ishchi kuchini qamrab oladi[10]. Demak, xizmatlar sohasidagi har bir yangi innovatsion ish o‘rni bilvosita savdo, transport, logistika va maishiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida qo‘shimcha talabni vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida e-tijorat va logistika xizmatlarining integratsiyalashuvi chekka hududlardagi hunarmandlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun global bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Buni UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli platformalar orqali o‘z mahsulotlarini sotayotgan uy xo‘jaliklarining o‘rtacha daromadi an’anaviy bozor ishtirokchilariga nisbatan 20-25 foizga yuqorigida ko`rishimiz mumkin[11].Shuningdek,servis iqtisodiyotini hududiy ixtisoslashtirishda "Yashil xizmatlar" (Green Services) va ekoturizmni rivojlantirish orqali tabiatga zarar yetkazmagan holda mahalliy aholining barqaror bandligini ta’minlash mumkin.

[10] Banerjee, A., & Duflo, E. Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. PublicAffairs.2011

[11] UNCTAD. Digital Economy Report: Value Creation and Capture in Developing Countries.2023

Bu esa innovatsion xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi islohotlar "O‘zbekiston -2030" strategiyasida[12] belgilangan aholi farovonligini oshirish maqsadlariga to‘laqonli mos keladi.

Darhaqiqat,kambag‘allikni qisqartirishning institutsional asoslarini mustahkamlashda davlat tomonidan innovatsion xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarni rag‘batlantirish mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. Bunda soliq imtiyozlari va tartibga solish kabi mexanizmlar servis sohasidagi startaplarning ommalashishiga xizmat qiladi.

Biroq, ushbu jarayonda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham ta’kidlab o‘tish joiz. Hozirgi kunda hududlar o‘rtasidagi "raqamli tafovut" va chekka hududlarda raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi innovatsion xizmatlarning ommaviylashishini sekinlashtirmoqda.Shuningdek, mehnat bozoridagi mutaxassislarning malaka darajasi servis iqtisodiyotining zamonaviy talablariga har doim ham javob bermayapti. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasidagi norasmiy bandlikning yuqori darajasi aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda va ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan maqsadli strategik yondashuv talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan mavjud muammolarni bartaraf etish va kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Xususan, chekka hududlarda "Raqamli ko‘nikmalar va markazlar"ni tashkil etish orqali yoshlarni global xizmatlar bozoriga integratsiya qilish lozim. Shuningdek, innovatsion servis tadbirkorligi bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlar uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar va "soliq ta’tillari" tizimini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, ijtimoiy nafaqalarni innovatsion xizmatlar (ta’lim, sog‘liqni saqlash) bilan bog‘langan vaucherlar ko‘rinishida taqdim etish aholining inson kapitalini oshirishga xizmat qiladi.Darhaqiqat, bunday kompleks yondashuv xizmatlar sohasini nafaqat iqtisodiy o‘sish drayveriga, balki ijtimoiy adolatni ta’minlovchi mexanizmga aylantiradi. Demak, servis iqtisodiyotini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib modernizatsiya qilish O‘zbekistonda kambag‘allikni barqaror qisqartirishning eng to‘g‘ri yo‘llaridan hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalar va inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoyalar kambag‘allikni qisqartirishning barqaror yo‘li bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, servis iqtisodiyotining hududiy ixtisoslashuvi chekka hududlarni rivojlantirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan institutsional islohotlar innovatsion xizmatlarning ommaviyligini va inklyuzivligini ta’minlaydi.Demak, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratishni kafolatlaydi.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni, 11.09.2023 y.

Саттаров Ш.Х., доктор экономических наук, доцент., *Ташкентский университет экономики и технологий, проректор по международному сотрудничеству, научной работе и инновациям.*

РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Аннотация: *Широкое внедрение цифровых технологий позволяет повысить эффективность деятельности предприятий сферы услуг, улучшить качество и расширить виды предоставляемых услуг, а также обеспечить индивидуальный подход к клиентам. В статье исследуются теоретико-методологические основы и практическая значимость развития сферы услуг на основе цифровых и инновационных технологий. Раскрыты положительное влияние цифровизации и перспективы развития таких сфер, как розничная торговля, логистика, образование, здравоохранение, финансы и коммуникации. Также обосновано, что человеческий капитал, кадры с цифровыми компетенциями и инновационные методы управления являются решающими факторами устойчивого развития сферы услуг.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, сфера услуг, экономическое развитие, инновационные технологии, цифровизация, конкуренто-способность.*

Аннотация: *Рақамли технологияларни кенг жорий этиш хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти самарадорлигини ошириш, хизматлар сифати ва турларини кенгайтириш, мижозларга индивидуал ёндашувни таъминлаш имконини беради. Мақолада хизмат кўрсатиш соҳасини рақамли ва инновацион технологиялар асосида ривожлантиришнинг назарий-услубий жиҳатлари ва амалий аҳамияти тадқиқ этилган. Чакана савдо, логистика, таълим, соғлиқни сақлаш, молия ва коммуникация каби соҳаларда рақамлаштиришнинг ижобий таъсири ҳамда ривожланиш истиқболлари ёритилган. Шунингдек, инсон капитали, рақамли компетенцияларга эга кадрлар ва инновацион бошқарув усуллари хизмат кўрсатиш соҳасининг барқарор ривожланишида ҳал қилувчи омил эканлиги асослаб берилган.*

Калит сўзлар: *рақамли иқтисодиёт, хизмат кўрсатиш соҳаси, иқтисодий тараққиёт, инновацион технологиялар, рақамлаштириш, рақобатбардошлик.*

Abstract. *The widespread adoption of digital technologies enhances the efficiency of service enterprises, improves service quality, expands the range of services, and ensures an individualized approach to customers. The article examines the theoretical and methodological foundations and practical significance of developing the service sector based on digital and innovative technologies. It highlights the positive impact of digitalization and future development prospects in areas such as retail trade, logistics, education, healthcare, finance, and communications. In addition, the study substantiates that human capital, digitally skilled personnel, and innovative management methods are key determinants of the sustainable development of the service sector.*

Keywords: *digital economy, service sector, economic development, innovative technologies, digitalization, competitiveness.*

Введение. Известно, что в современных условиях стратегия развития мировой экономики ориентирована на организацию всех отраслей и системы управления хозяйствующими субъектами на основе цифровых и инновационных технологий. В связи с этим развитие сферы услуг на основе цифровых технологий, доля которой в структуре валового внутреннего

продукта Республики Узбекистан демонстрирует устойчивую тенденцию роста, становится объективной необходимостью времени.

В частности, в Стратегии «Узбекистан – 2030» определены задачи по «развитию цифровых технологий с целью превращения страны в региональный IT-HUB, широкому внедрению электронных услуг, онлайн-платформ, IT-услуг и сервисов на основе искусственного интеллекта, в том числе доведению объема экспорта IT-услуг и программных продуктов до 5 млрд. долларов США, увеличению числа резидентов IT-парков в 10 раз, доведению доли оказываемых ими услуг в ВВП до 2,2 процента и созданию 100 тысяч рабочих мест» [1].

Опыт развитых зарубежных стран свидетельствует о том, что оперативное и качественное оказание услуг на основе цифровых технологий формирует прочную основу для устойчивого финансирования отрасли и получения высокой прибыли предприятиями сферы услуг. Следует отметить, что развитие цифровых инновационных технологий оказывает мощный импульс структурным и институциональным изменениям в мировой экономике, в том числе и в экономике Узбекистана. В данном контексте «цифровизация» многих видов услуг, то есть развитие социально-экономических связей между людьми посредством интернет-технологий и различных онлайн-платформ, становится одной из ключевых тем научных исследований.

Следует подчеркнуть, что в развитых странах мира цифровые технологии проникли практически во все сферы экономики, создав принципиально новые возможности. В частности, по данным опроса Евробарометра Европейской комиссии, большинство респондентов считают, что современные цифровые технологии оказывают положительное влияние на экономику (75%), качество жизни (67%) и общество (64%) [2]. Действительно, в последние годы повседневная жизнь людей и социально-экономическая деятельность предприятий существенно трансформировались под воздействием цифровых технологий. Доступные и качественные технологии охватывают весь мир: «в настоящее время более 8 миллиардов устройств подключены к интернету, и к 2030 году прогнозируется рост этого показателя до 1 триллиона» [3]. При этом «изменяется ценность информации и подходы к управлению, что приводит к трансформации характеристик организаций, их функций, рабочих процессов и отношений» [4].

Независимо от отраслевой принадлежности и масштабов деятельности предприятий, многие компании трансформируют свои рабочие места в цифровые. «Современные рабочие места предполагают широкое использование технологий и требуют принятия мер по их ускоренному внедрению» [5]. Кроме того, «по мере увеличения объемов цифрового обмена данными организационные границы выходят за рамки формальных структур, что повышает вероятность распространения новых коллективных форм управления в ближайшем будущем» [6].

С развитием цифровых технологий возникло и понятие цифровой экономики. «Цифровая экономика охватывает бесчисленное множество аспектов глобальной экономики, влияя на такие отрасли, как банковское дело, розничная торговля, энергетика, транспорт, образование, издательское дело, средства массовой информации и здравоохранение, а также трансформирует социальные взаимодействия: происходит конвергенция стационарных, мобильных и эфирных сетей, а устройства и объекты все теснее интегрируются в интернет вещей» [7].

«Цифровая экономика является ключевым источником экономического роста, стимулируя конкуренцию, инвестиции и инновации, что, в свою очередь, создает возможности для повышения качества услуг, расширения выбора для потребителей и создания новых рабочих мест» [8].

В то же время «цифровая экономика представляет собой экономическую деятельность в сети Интернет, а также совокупность форм, методов, инструментов и коммуникационной среды, возникающих в процессе ее реализации» [9].

Следует отметить, что сфера услуг в Узбекистане демонстрирует устойчивый рост и становится важным драйвером роста экономики, занятости и качества жизни. В 2024 году доля сферы услуг в ВВП достигла 47,4% (против 41,6% в 2020 г.), в занятости — 55,4% (против 49.8% в 2017 г.) или 7,9 млн чел., а численность предприятий услуг увеличилась с 2017 г. в 1,6 раза — до 310,8 тыс. единиц. По оценкам Всемирного банка, в 2017-2023 гг. в Узбекистане отмечались наиболее высокие темпы роста добавленной стоимости в секторе услуг в Центральной Азии — 6,5% в год (для сравнения: Казахстан – 2,5%, Кыргызстан — 3,1%, Таджикистан — 5,2%). Общий объем оказанных услуг в стране за последние 8 лет увеличился в 2,5 раза, особенно в таких отраслях как финансовые услуги — рост в 7,6 раза, информатизация и связь — в 4,9 раза, образование — в 3,2 раза. Активное развитие цифровизации и онлайн-услуг отражается в росте доли информационной экономики и электронной торговли в ВВП до 3,7% (с 2.2% в 2017 г.). Объём рынка электронной торговли в 2023 г. превысил 1 млрд, долларов США [10].

Проникновение цифровых и инновационных технологий в отрасли экономики напрямую связано с процессом внедрения научных достижений в практику. В частности, в Узбекистане объем расходов на научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР) неуклонно растет. Так, если в 2017 году данные расходы составляли 465,0 млрд. сумов, то к 2023 году они достигли 1,8 трлн. сумов, увеличившись в 3,9 раза [11]. Анализ источников финансирования НИОКР показывает, что в рассматриваемый период основная часть средств была профинансирована за счет государственного бюджета.

Инновационное развитие характеризуется расходами, направленными на технологические, маркетинговые и организационные инновации. В Узбекистане в 2017–2023 гг. объем таких расходов увеличился с 4162,3

млрд. сумов до 10 616,5 млрд. сумов, то есть был зафиксирован рост в 2,5 раза. Анализ источников финансирования показывает, что основная часть расходов на инновации осуществляется за счет собственных средств предприятий и организаций. В частности, в 2023 году 60,9 % данных расходов приходилось на внутренние источники, 11,7 % — на иностранные инвестиции, 17,0 % — на кредиты коммерческих банков и 10,4 % — на прочие источники [11].

Информационно-коммуникационные технологии являются ключевым структурным драйвером развития цифровой экономики. В стране объем услуг, оказанных в сфере информационно-коммуникационных технологий, в 2017–2024 гг. демонстрировал устойчивую тенденцию роста. Если в 2017 году их объем составлял 8,2 трлн. сумов, то к 2024 году он достиг 56,2 трлн. сумов, увеличившись в 6,8 раза [11].

Следует подчеркнуть, что процессы цифровой трансформации последних лет, проводимые реформы и реализуемые инвестиции формируют в стране прочную основу для развития цифровой экономики и способствуют последовательному улучшению позиций Узбекистана в международных рейтингах. В 2024 году Узбекистан занял 83-е место среди 133 стран мира в рейтинге Глобального инновационного индекса [12]. Следует отметить, что, несмотря на фиксацию более высоких результатов по сравнению с предыдущими годами, данный рейтинговый показатель указывает на необходимость дальнейшего расширения внедрения цифровых и инновационных технологий в стране.

Действительно, в последние годы цифровые технологии радикально изменили содержание, инновационные формы и направления предоставляемых услуг практически во всех сферах жизни. В результате появилась возможность решения задач, которые ранее было невозможно контролировать без использования интеллектуальных машин. Как и в других отраслях экономики, в сфере услуг влияние цифровых технологий отчетливо проявляется в комплексном развитии деятельности хозяйствующих субъектов, расширении ассортимента и повышении качества предоставляемых услуг, а также в росте их эффективности.

Эффективность предприятий сферы услуг, широко внедряющих цифровые технологии, прежде всего обеспечивается человеческим капиталом, инициативностью, мобильностью, клиентоориентированностью персонала, коллективным принятием решений и использованием технологий больших данных (Big Data) для индивидуального подхода к пользователям и потенциальным потребителям. Кадры, способные работать с креативными, инновационными и цифровыми технологиями, становятся ведущим фактором экономического роста.

Следует отметить, что в таких сферах услуг, как розничная торговля, логистика и образование, реализуемые программы и мероприятия по цифровизации формируют устойчивые положительные тенденции развития. В частности, в розничной торговле цифровые технологии предоставили

покупателям возможность оформления онлайн-заказов, а торговым предприятиям — собирать и анализировать данные о клиентах, эффективно управлять рекламной деятельностью, логистическими центрами и снабжением магазинов товарами.

Деятельность транспортной и логистической отраслей модернизируется на основе цифровых технологий и современных коммуникационных средств, соответствующих международным стандартам. В результате развиваются новые направления услуг и операционные процессы, такие как отслеживание транспортных средств и грузов, информирование клиентов и своевременная доставка. Расширяются возможности телеметрии транспортных средств, оптимизации расхода топлива и эффективного использования автомобильных, железнодорожных и воздушных транспортных сетей.

Цифровые технологии предоставляют финансовым учреждениям — банкам, страховым, налоговым, лизинговым и другим организациям — возможность предлагать финансовые ресурсы большему числу клиентов, осуществлять транзакции, управлять активами и внедрять новые цифровые финансовые услуги. Также они обеспечивают дистанционный мониторинг валютных курсов и управление инвестиционными портфелями.

Цифровизация услуг в производственных отраслях (промышленность, сельское хозяйство, строительство и др.) способствует повышению эффективности выпуска продукции, внедрению роботизированных процессов и автоматизированному контролю управления производством. Это позволяет обеспечивать производство в четко заданных режимах и графиках, а также постоянно совершенствовать методы и технологии выпуска продукции, соответствующей стандартам. Например, в автомобилестроении до 90% узлов и деталей создаются с использованием сложных компьютерных программ, а в сельском хозяйстве информационные системы позволяют отслеживать состояние посевов, конфигурацию полей, качество почвы и параметры пород сельскохозяйственных животных.

В сфере образования цифровые технологии обеспечили возможность предоставления услуг в дистанционном формате (онлайн-обучение, видеоконференции) в высших и других образовательных учреждениях, что особенно актуально в условиях пандемических рисков.

В здравоохранении внедрение цифровых технологий позволило осуществлять дистанционную диагностику, электронный сбор данных о пациентах и использование консультаций высококвалифицированных специалистов при проведении срочных хирургических операций в отдаленных регионах.

Услуги, предоставляемые юридическим и физическим лицам через телерадиовещание, средства массовой информации и рекламные платформы, также демонстрируют рост как по количественным, так и по качественным показателям. Цифровые технологии кардинально трансформировали коммуникационную и медиа-сферы, расширив

возможности широкополосного доступа и распространения информации, включая контент, создаваемый самими пользователями, через социальные сети. Внедрение цифровых технологий в систему телерадиовещания, СМИ и рекламных услуг позволило предприятиям эффективно сегментировать потребителей, собирать и анализировать данные, а также оперативно использовать их на основе цифрового программирования.

Онлайн-торговля создала новые возможности для удовлетворения растущих потребностей потребителей в выборе товаров и услуг, обеспечив возможность покупки и продажи продукции из любой точки мира. В системе цифровизации банковских и финансовых услуг внедрены механизмы учета потребностей клиентов в финансовых ресурсах и кредитах, а также дистанционного осуществления большинства платежных операций с использованием компьютеров и мобильных устройств. Широкое распространение получили мобильные приложения (Click, Payme и др.), значительно упростившие и ускорившие процесс осуществления платежей.

Выводы и предложения. Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что цифровая трансформация является одним из ключевых факторов устойчивого развития сферы услуг в условиях формирования цифровой экономики. Установлено, что в Узбекистане сфера услуг демонстрирует устойчивые темпы роста и усиливает свою роль как драйвера экономического развития, занятости и повышения качества жизни населения.

Результаты анализа показывают, что цифровизация услуг охватывает широкий спектр направлений и формируют принципиально новые виды услуг и бизнес-модели, основанные на использовании онлайн-платформ, больших данных, дистанционного взаимодействия и автоматизированных управленческих решений.

В то же время анализ позиции Узбекистана в Глобальном инновационном индексе, показывает, что, несмотря на положительную динамику, уровень развития цифровых и инновационных технологий требует дальнейшего углубления и системного расширения.

Исходя из полученных выводов, представляется целесообразным:

- активизировать процессы цифровизации в сфере услуг путем ускоренного внедрения современных цифровых и инновационных технологий во всех сегментах отрасли;
- расширить масштабы государственной и частной поддержки инновационной деятельности, направленной на развитие цифровых сервисов и платформ;
- усилить подготовку и переподготовку кадров с цифровыми компетенциями, ориентированными на практические потребности предприятий сферы услуг и т.д.

Реализация данных предложений будет способствовать формированию конкурентоспособной, технологически развитой и устойчивой сферы услуг, обеспечивающей долгосрочный экономический

рост и повышение благосостояния населения в условиях цифровой трансформации экономики.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11 сентября 2023 г. № ПФ-158. https://lex.uz/ru/docs/6600413.
2. European Commission (2017). Attitudes Towards the Impact of Digitisation and Automation on Daily Life.1–171
3. World Economic Forum (2018). http://reports.weforum.org/digital-transformation/wpcontent/blogs.dir/94/-mp/fil.
4. Davenport T.H., Harris J.G. (2007). Competing on Analytics: The New Science of Winning. Boston, MA: HBS Review Press.
5. Haddud A., McAllen D. (2018). Digital workplace management: exploring aspects related to culture, innovation, and leadership, PICMET 2018 (Honolulu: HI;), 1–6.
6. Avolio B.J., Sosik J.J., Kahai S.S., Baker B. (2014). E-leadership: re-examining transformations in leadership source and transmission. Leader. Q.25, 105–131. 10.1016/j.leaqua.2013.11.003.
7. OECD Digital Economy Outlook 2015, Published on July 15, 2015.
8. OEC2018 General Report on the Activities of the European Union, 15 February 2019, Brussels, Belgium.
9. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции. М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014.402 с.
10. В сфере услуг Узбекистана, туризм занимает лидирующие позиции - Новости Узбекистана сегодня: nuz.uz
11. Национальный комитета по статистике РУз., https://stat.uz/.
12. Агентства инновационного развития РУз. https://innovation.gov.uz/news.

Orzuqulova Zumrad Abduxoliq qizi *– Iqtisodiyot fanlari bo’yicha PhD, dotsent v.b., Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti*

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARINING O'RNI

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida transport-logistika sohasini rivojlantirish va uning aholi bandligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning mazmun-mohiyati, transport-logistika tizimining iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli logistika texnologiyalarini (sun’iy intellekt, IoT, avtomatlashtirilgan tizimlar) joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali yangi “yashil” ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yashil iqtisodiyot, transport-logistika, aholi bandligi, raqamli logistika, barqaror rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируется развитие транспортно-логистической сферы Узбекистана на основе принципов зелёной экономики и её влияние на занятость населения. В исследовании раскрываются сущность зелёной экономики, а также роль транспортно-логистической системы в обеспечении экономического роста и регионального развития. Кроме того, обоснованы возможности создания новых «зелёных» рабочих мест посредством модернизации логистической инфраструктуры, внедрения цифровых логистических технологий (искусственный интеллект, IoT, автоматизированные системы) и расширения механизмов государственно-частного партнёрства.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, транспортная логистика, занятость населения, цифровая логистика, устойчивое развитие.*

Abstract: *This article analyzes the development of Uzbekistan’s transport and logistics sector based on the principles of the green economy and its impact on employment. The study explains the essence of the green economy and highlights the role of the transport and logistics system in economic growth and regional development. It also substantiates the opportunities for creating new “green” jobs through the modernization of logistics infrastructure, the introduction of digital logistics technologies (artificial intelligence, IoT, automated systems), and the expansion of public-private partnership mechanisms.*

Keywords: *green economy, transport and logistics, employment, digital logistics, sustainable development.*

Mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida doimo iqtisodchi mutaxassis va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Aholi bandligini ta’minlashning mamlakatda YaIMning o’sishi (Ouken qonuni), aholi turmush farorovligini yaxshilash, iqtisodiy o’sish hamda inflyatsiya sur’atlariga(Fillips egri chizig’i) aloqador bo’lgan ijtimoiy-iqtisoidy jarayondir. Makro darajadagi o’zaro bog’liqlikda amal qiluvchi iqtisodiy jarayonlar ketma –ketligida xuddi zanjir reaksiyasi misoli aholi bandligini oshishi yoki ishsizlikning oshishi butun iqtisodiyotga rezonans beradi.

Yashil iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari mamlakat miqiyosida keng qamrovda yoyilib borar ekan transport- logistika xizmatlari ham bu tamoyillarga moslashib yangicha ma’no–mazmun kasb etib bormoqda. Aynan bu o’zgarishlar asosida transport-logistika xizmatlari bo’yicha ish bilan bandlik yangi ish o’rinlarining yaratilishi hisobiga ta’minlanmoqda.

Yashil iqtisodiyot sharoitida transport-logistika xizmatlari nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki ekologik barqarorlik va aholi bandligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Quyida ushbu yo‘nalishning asosiy jihatlari keltirilgan:

Yashil iqtisodiyot va transport-logistika o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida so’z yuritganda avvalo har ikkala kategoriyaga ta’rif berish lozim.

Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Bu konsepsiya Birlashgan millatlar tashkilotining Atrof -muhit dasturi tomonidan keng targ‘ib qilingan.



1-chizma: Yashil transport –logistikaning asosiy jihatlari

Transport-logistika sohasi esa yuk va yo‘lovchi tashish, omborxona va saqlash, yetkazib berish tizimlari hamda bojxona va axborot-logistika xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Mazkur sohaning ahamiyatini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun statistik ma’lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. 2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha transport xizmatlari hajmi 145 trln so‘mdan oshgan. 2023 yilga nisbatan 8,6 % ga o‘sgan. Bu transport va logistika infratuzilmasining kengayishi hamda raqamli xizmatlar ta’sirida yuz berdi. 2025 yilning birinchi yarmida transport xizmatlari umumiy qiymati 98,3 trln so‘mni tashkil etgan va 11,7 %ga o‘sgan. Bunda xizmatlarning xizmatlar bozoridagi ulushi 18,1 % ga yetdi.

Yashil logistika transport sektorining energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga yordam beradi. Bu transport bo‘yicha global is gazlari chiqindilarini kamaytirishni nazarda tutadi, shu bilan birga transport-logistika kompaniyalari uchun ham iqtisodiy foyda beradi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida bu soha ekologik toza, energiya tejamkor va innovatsion shaklda rivojlantiriladi.

Yashil transport – logistika aholini bandligini ta’minlashda yangi ish o’rinlarini aynan “yashil” yangi ish o’rinlarini yaratilishiga turtki bo’ldi. Bunday ish o’rinlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Elektr transport vositalari haydovchilari;
- Quyosh energiyasida ishlovchi logistika markazlari mutaxassislari;
- Energiya samaradorligini nazorat qiluvchi muhandislar;
- Raqamli logistika platformalari operatorlari;
- Ekologik audit va monitoring bo‘yicha mutaxassislar;

Raqamli logistika— zamonaviy axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, Buyumlar interneti (IoT) va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan logistika tizimlari yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklik (DxSh) asosidagi infratuzilma loyihalarini kengaytirish — transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi obyektlar qurish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengaymoqda, bu esa infratuzilma loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligining “Qayta tiklanuvchi energiya va ish o‘rinlari” turkumining 2025-yilgi nashri dunyo bo‘yicha qayta tiklanuvchi energiya sohasida bandlik o‘sishda davom etayotganini ko‘rsatadi. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamkorligida tayyorlangan ushbu o‘n ikkinchi nashr global miqyosda qayta tiklanuvchi energiya sohasida kamida 16,6 million ish o‘rni mavjudligini baholaydi.

Hisobotda ma’lumotlarga ko’ra ayollarni ishga qabul qilish va lavozim bo‘yicha o‘sishda hanuz to‘siqlar mavjud, nogironligi bo‘lgan shaxslar esa endigina ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘la boshlashdi. Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanuvchi energiyaning insoniy jihati hanuz ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda yoki tabiiy hol sifatida qabul qilinmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya joriy etilishining davomli o‘sishi ushbu sohada bandlikning yanada oshishiga olib keladi. Bu esa ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni keng qamrovli siyosiy yondashuvning asosiy tarkibiy qismiga aylantirish zarurligini anglatadi. Bunday yondashuv energiya joriy etilishini qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish va investitsiyalar, ta’minot zanjirini rivojlantirishga qaratilgan sanoat va savdo siyosati, iqtisodiy rivojlanish va qayta tiklash, shuningdek inklyuziv mehnat bozori rivojini birlashtirishi lozim.

Hududiy bandlikni oshirishdagi ahamiyati transport-logistika infratuzilmasi (logistika markazlari, temiryo‘l tugunlari, “quruq portlar”)ni yaratilishida namoyon bo’ladi. Bunda qishloq hududlarida ish o‘rinlari yaratiladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksport bozorlariga bog‘laydi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytiradi. YaHMning oshishini, mamlakatdagi iqtisodiy o’sish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa tranzit salohiyati yuqori davlatlar uchun muhimdir.

Kichik biznes va startaplarni rivojlantirishda **y**ashil logistika quyidagi yo‘nalishlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi:

- Velokuryer xizmatlari
- Elektr yuk mashinalari ijarasi
- “Oxirgi mil” ekologik yetkazib berish xizmatlari
- Raqamli logistika platformalari

Natijada o‘zini o‘zi band qilish darajasi oshadi.

Ekologik samaradorlik orqali barqaror bandlikni ta’minlashda yashil transport-logistika tizimi:

- Atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytiradi
- Yoqilg‘i xarajatlarini qisqartiradi
- Energiya samaradorligini oshiradi
- Uzluksiz va barqaror iqtisodiy faoliyatni ta’minlaydi.

Bu esa o’z navbatida uzoq muddatli va barqaror ish o‘rinlarini yaratadi.

Raqamlashtirish va innovatsiyalarning roli yashil logistikaning aqlli transport tizimlari (ITS), GPS monitoring, elektron logistika platformalari, omborlarni avtomatlashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligida namoyon bo’ladi. Raqamli texnologiyalar malakali IT mutaxassislariga talabni oshiradi va yuqori qo‘shimcha qiymatli ish o‘rinlarini yaratadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari yangicha yondashuv, resurlardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishdagi qator o’zgarishlarga sabab bo’lish bilan birga bandlik darajasini oshiradi, aholi daromadlarini ko‘paytiradi, ekologik madaniyatni shakllantiradi va eng muhimi sog‘lom muhitni ta’minlash qator kabi ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir ham ko’rsatmoqda. Buning natijasida iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlik bir vaqtda ta’minlanadi.

Yashil logistika kelajak xizmatlari uchun asosiy vosita bo’lishi ko’p bora takrorlanayotgan bo’lsada mazkur jabhada O’zbekistonda bir qanch amuammolar mavjud. Bu borada qilingan tadqiqot ishlariga nazar tashlasak infartuzilmani zamon talablariga mos emasligini ko’rish mumkin.

O‘zbekistonning logistika infratuzilmasi, jumladan avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va ombor xo‘jaliklari yashil logistika standartlariga javob berishi uchun sezilarli darajada modernizatsiyani talab qiladi. Eskirgan infratuzilma ko‘pincha yoqilg‘i ko‘proq sarflanadigan va yuqori miqdorda chiqindi gazlar chiqaradigan samarasiz transport tizimlariga olib keladi. Logistika obyektlarini modernizatsiya qilish va ekologik toza dizaynlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega, biroq bu katta moliyaviy yukni keltirib chiqaradi

Bundan tashqari yashil texnologiyalarni joriy etish uchun katta xarajatlar talab etiladi. Elektromobillar, yoqilg‘i tejamkor yuk mashinalari hamda energiya samarador ombor tizimlari kabi yashil texnologiyalarni joriy etish katta miqdordagi dastlabki kapital mablag‘ni talab qiladi. Yuqori xarajatlar sababli O‘zbekistondagi ko‘plab logistika kompaniyalari ushbu texnologiyalarni joriy etishga ikkilanishadi. Logistika sohasida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishda moliyaviy imtiyozlar, subsidiyalar yoki past foizli kreditlar muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini kengaytirish. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini hududlar kesimida rivojlantirish. Mahalliy quyosh panellari va invertor ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. Qishloq joylarda kichik GES va biogaz qurilmalarini joriy etish. Bu taklif natijasida mazkur yo‘nalishda muhandis, montajchi, texnik xizmat ko‘rsatuvchi va loyiha boshqaruvchilari uchun minglab ish o‘rinlari yaratiladi.

2. “Yashil” kasblar bo‘yicha ta’lim va qayta tayyorlash. Yangi ish o’rinlari uchun talablarga mos keladigan kadrlarni tayyorlash bevosita ta’lim jarayonisiz

amalga oshmaydi. Shuning uchun texnikum va oliy ta’lim muassasalarida yashil energetika mutaxassisliklarini kengaytirish hamda ishsiz yoshlar va ayollar uchun qisqa muddatli amaliy kurslar tashkil etilishi ham yaxshi natija berishi mumkin. Energiya samaradorligi bo‘yicha auditor va maslahatchilar tayyorlash orqalikorxonalarga o’zlarini qiynayotgan savollarga javob topsih, investorlar uchun esa mutaxassis fikri asosida xavfsiz investitsiya kiritish imkonini beradi.

3. Energiya samaradorligi dasturlarini kuchaytirish. Bu borada ko‘p qavatli uylarni issiqlik izolyatsiyasi qilish, energiya tejamkor uskunalar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, davlat tashkilotlarida energiya tejash loyihalarini majburiy joriy etish orqali qurilish, servis va ishlab chiqarish sohalarida yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishini ta’minlash mumkin.

4. Chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. Hozirda mavjud ammo rivojlantirish zarur bo’lgan amaliy taklif hisoblanadi. Hududlarda saralash va qayta ishlash zavodlarini ko‘paytirish, plastik, shisha va qog‘ozni qayta ishlash klasterlarini tashkil qilishni rag’batlantirish. Elektron chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimini yaratish ham bevosita yangi ish o’rinlarini yaratish va aholi o’rtasida ekologik toza hudud madaniyatini shakllantirishda muhim qadam bo’lib hisoblanadi. Bunda kichik va o’rta biznes vakillari uchun qulay tanlov sifatida qarash mumkin.

5. Yashil qishloq xo‘jaligi. Mamlakatimizda tarixan rivojlangan bu sohada yashil texnologiyalardan foydalanish orqali tomchilatib sug‘orish tizimlarini kengaytirish, organik mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylarda agro-energetika (quyosh nasoslari, biogaz)imkoniyatlaridan foydalanish orqali qishloq hududlarida bandlikni oshirish va migratsiyani kamaytirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimova Sh.U. «Advanced Foreign Practices in the Use of Transport Services for Regional Economic Development» — 2025/2026. AcademiaOpenVol. 11No.1(2026): JuneDOI:10.21070/acopen.11.2026.13114

2. Karrieva Y. K. «Strategies for advancing green logistics in Uzbekistan: opportunities and challenges» 2024. American Journal of Business Management, Economics and Banking. Volume 30, | November -2024, 17-22

3. Aminov F.B. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish sharoitida iqtisodiy o‘sish tendentsiyalari tahlili, INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE IMPACT OF ECONOMY, TOURISM AND BUSINESS MANAGEMENT ON THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY”, MAY 23, 2025 https://doi.org/10.5281/zenodo.15516011

4. D. Shahan and O. Tuna, "Policy Implications on Transport Infrastructure and Trade Dynamics: The Case of Turkey," Logistics, vol. 5, no. 3, art. no. 47, pp. 1-18, 2021. DOI: 10.3390/logistics5030047

5. Sirimongkolsiri, S., & Yeo, G. (2021). Transport Infrastructure Modernization for Sustainable Logistics in Emerging Economies. Journal of Infrastructure Development, 13(3), 311-328.

6. hen, J., Lee, J., & Kim, D. (2018). Costs and Benefits of Green Technologies in Logistics. International Journal of Logistics Research, 12(3), 78-91.

7. www.stat.uz

8. https://www.irena.org/Publications/2026/Jan/Renewable-energy-and-jobs-Annual-review-2025.

Baxadirov Alisher Komilovich *– O’zbekiston Republikasi Bank-moliya akademiyasi, Phd Dotsent*

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES ISTIQBOLLARINI LIZING MEXANIZMLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu tezisda zamonaviy global ekologik trendlar sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining "yashil" modelga o'tish jarayonlari va ushbu jarayonda biznes subyektlarining rivojlanish istiqbollari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori lizing mexanizmini "yashil" texnologiyalarni joriy etishdagi moliyaviy katalizator sifatidagi roliga qaratilgan. Tezisda an'anaviy va yashil lizingning qiyosiy tahlili, xalqaro moliya institutlarining qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda O'zbekiston qonunchiligidagi soliq va bojxona imtiyozlari yoritilgan. Natijada, lizing orqali energiya samaradorligini oshirishning biznes rentabelligiga ta'siri moliyaviy modellar va infografik ko'rinishda isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, lizing, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, GEFF, biznes modernizatsiyasi, ekologik investitsiyalar, O'zbekiston 2030.*

Аннотация: *В данной тезисной работе исследуются процессы перехода экономики Узбекистана к «зелёной» модели в условиях современных глобальных экологических трендов, а также перспективы развития бизнес-субъектов в этом процессе. Основное внимание уделяется роли лизингового механизма как финансового катализатора внедрения «зелёных» технологий. Представлен сравнительный анализ традиционного и зелёного лизинга, механизмов поддержки международных финансовых институтов, а также налоговых и таможенных льгот, предусмотренных законодательством Узбекистана. В результате влияние повышения энергоэффективности через лизинг на рентабельность бизнеса доказано с использованием финансовых моделей и инфографических материалов.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, лизинг, устойчивое развитие, энергоэффективность, GEFF, модернизация бизнеса, экологические инвестиции, Узбекистан 2030.*

Abstract: *This thesis examines the processes of Uzbekistan’s transition to a green economic model in the context of modern global environmental trends and the development prospects of business entities within this transformation. The main focus is on the role of leasing mechanisms as financial catalysts for the introduction of green technologies. The study provides a comparative analysis of traditional and green leasing, support mechanisms of international financial institutions, as well as tax and customs incentives under Uzbek legislation. As a result, the impact of leasing-driven energy efficiency improvements on business profitability is demonstrated through financial models and infographics.*

Keywords: *green economy, leasing, sustainable development, energy efficiency, GEFF, business modernization, environmental investments, Uzbekistan 2030.*

Kirish. XXI asrning global iqtisodiy paradigmasi resurs sarfiga asoslangan modellardan barqaror rivojlanish va ekologik neytrallik tamoyillariga o'tish bilan xarakterlanadi. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va tuproq degradatsiyasi kabi xatarlar sharoitida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi shunchaki ekologik talab emas, balki biznesning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylandi. [9]

O'zbekiston uchun bu o'tish davri, ayniqsa, sanoatning energiya sig'imi yuqoriligi va Orol fojiasi kabi mintaqaviy ekologik muammolar fonida o'ta dolzarbdir. [8] Ushbu kontekstda lizing mexanizmi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi yuqori kapital to'siqlarini yengib o'tish imkonini beruvchi noyob moliyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi sanoat va agrar sektorni chuqur tarkibiy o'zgartirish uchun poydevor yaratdi. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajaga nisbatan 35% ga kamaytirishdir. Bunday ulkan ko'rsatkichga erishish uchun barcha tarmoqlarda texnologik yangilanish talab etiladi.

Prezidentning PQ-436-sonli qarori bilan 2030-yilgacha yashil o'sishni ta'minlash dasturi doirasida 1 million gektar maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish va energiya sarfini kamaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. [2] Bu esa ixtisoslashtirilgan uskunalarga bo'lgan talabni keskin oshiradi, ularni moliyalashtirishda lizing eng qulay instrument hisoblanadi. [1] "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ekologik barqarorlikka erishish drayver sifatida ko'rsatilgan.

Yashil lizing (yoki energiya samarador lizing) an'anaviy modeldan farqli o'laroq, nafaqat moliyaviy qaytimga, balki aktivning ekologik samaradorligiga (ESG tamoyillariga) ham tayanadi. Bu yerda asosiy masala "bo'lingan rag'batlar" (split incentives) muammosini hal qilishdir.

1-jadval

Lizing beruvchi va oluvchi o'rtasida energiya tejamkorligidan keladigan foydaning adolatli taqsimoti

Taqqoslash parametri	An'anaviy lizing	Yashil lizing
Asosiy maqsad	Aktivni sotib olish uchun kapital ta'minlash	Texnologik modernizatsiya va ekologik samara
Uskuna tanlash	Texnik ko'rsatkich va narx	GET (Green Economy Transition) standartlari
Soliq imtiyozlari	Standart amortizatsiya	Tezlashtirilgan amortizatsiya va bojxona imtiyozlari
Moliyalashtirish manbasi	Tijorat banklari kreditlari	Xalqaro moliya institutlari liniyalari (GEFF)
Monitoring	Faqat moliyaviy to'lovlar	Energiya tejamkorligi auditi (MRV)

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil lizing asosida jihozlangan binolar energiya iste'molini 11-22% gacha kamaytiradi. [7] Moliyaviy nuqtayi nazardan, sof keltirilgan qiymat (NPV) hisob-kitoblarida tejalgan resurslar qiymati lizing to'lovlarini qoplashga yo'naltirilishi biznes uchun qo'shimcha likvidlik yaratadi.

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{(CF_t + E_t + S_t)}{(1+r)^t} - I_0$$

Ushbu formula orqali tejalgan energiya va resurslarning pul ekvivalenti (Et) va soliq imtiyozlari (St) hisobga olinadi.

O'zbekistonda yashil lizing bozorining rivojlanishida Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining (YTTB) GEFF (Green Economy Financing Facility) dasturi muhim o'rin tutadi. Ushbu dastur mahalliy moliya institutlariga (masalan, "Uzbek Leasing International A.O.") yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maqsadli kredit liniyalarini taqdim etadi.

GEFF II doirasida O'zbekiston uchun 100 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilgan bo'lib, uning bir qismi aynan lizing operatsiyalariga yo'naltirilgan. [6] Muhim jihati shundaki, ushbu dastur orqali xarid qilingan uskunalar uchun tadbirkorlarga 10-15% gacha bo'lgan miqdorda investitsion grantlar taqdim etilishi mumkin, bu esa lizing tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi.

Lizing mexanizmi orqali biznes quyidagi yo'nalishlarda rivojlanish imkoniyatiga ega:

1. Agrar sektor: Tomchilatib sug'orish tizimlari, quyosh panelli nasoslar va zamonaviy issiqxonalar. Bu suv sarfini 40-50% ga kamaytirib, hosildorlikni 30% ga oshiradi.
2. Sanoat: Yuqori samaradorlikka ega kompressorlar va issiqlikni qayta ishlash tizimlari. Bu elektr energiyasi xarajatlarini 30% gacha qisqartiradi. [4]
3. Soliq va bojxona: Energiya tejamkor uskunalarni import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod etish va foyda solig'i bazasini kamaytirish drayver bo'lib xizmat qiladi.

Yashil lizingning qiymat yaratish zanjiri:

1. Ekologik Audit: Korxonada energiya yo'qotish nuqtalari aniqlanadi.
2. Uskuna tanlovi: "Yashil texnologiyalar selektori" bazasidan sertifikatlangan uskuna tanlanadi.
3. Lizing shartnomasi: Imtiyozli moliyaviy liniya va bojxona imtiyozlari qo'llaniladi. [3]
4. Tejamkorlik: Uskuna ishga tushadi, tejalgan resurslar hisobidan to'lovlar qoplanadi. [5]
5. Grant olish: Ekologik samara tasdiqlangach, lizing summasining bir qismi grant sifatida qaytariladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida lizing biznesning texnologik qoloqligini bartaraf etish va global raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositasidir. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish

maqsadlariga erishish uchun lizing mexanizmlarini yanada kengaytirish, xususan "yashil taksonomiya"ni joriy etish maqsadga muvofiqdir. [10]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son qarori, 2022-yil 2-dekabr, Lex.uz, Toshkent.
2. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, Lex.uz, Toshkent.
3. Energiya tejamkor isitish asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4277-son qarori, 2019-yil aprel (2024-yil 31-dekabrgacha amal qiladi), Lex.uz, Toshkent.
4. Role of leasing as a financial tool in fostering economic development in Uzbekistan, Umaralieva Kh., 2024-yil, JETS (innovascience.uz), Samarqand.
5. Accelerating Private Sector and Green Transformation in Uzbekistan, Taniguchi K. va Djalilov B., 2025-yil yanvar, Asian Development Bank (adb.org), Manila.
6. Green Economy Financing Facility (GEFF) II Uzbekistan Framework, EBRD, 2022-yil aprel, ebrd.com, London.
7. The Value of Green Leases: Impact Potential, Institute for Market Transformation (IMT), 2024-yil, imt.org, Vashington.
8. Uzbek Leasing International A.O. Green Economy Investment Case Study, EBRD, 2022-yil aprel, ebrd.com, London/Tashkent.
9. Opportunities for Developing Green Finance in Uzbekistan, Masharipova Sh. A., 2024-yil noyabr, World Bulletin of Social Sciences (scholarexpress.net), Berlin/Tashkent.
10. Financing Uzbekistan’s Green Transition: Capital Market Development and Opportunities, OECD, 2023-yil oktabr, OECD Publishing, Parij. «Электронное правительство и цифровая экономика: опыт зарубежных стран и практика применения в Узбекистане» - Д.И. Рахимов, 2020 год, г. Ташкент.

Мусабаева Л.А. *— СамИЭС, старший преподаватель,*
Мусабоев Р.А. *СамИЭС, самостоятельный соискатель PhD.*

ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ СЕКТОРА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ

Аннотация: *Статья посвящена исследованию инновационных стратегий развития сектора бытового обслуживания на региональном уровне. Рассматриваются теоретические и практические подходы к модернизации и цифровизации сферы услуг, анализируются тенденции в Узбекистане, выявляются ключевые барьеры и возможности. На основе собранных данных предложены направления*

совершенствования региональной политики и стратегического управления в условиях инновационного развития экономики.

Ключевые слова: *бытовые услуги, региональное развитие, инновации, цифровизация, стратегия, предпринимательство, сервисные кластеры, устойчивый рост.*

Annotatsiya: *Maqola maishiy xizmatlar sektorini hududiy darajada innovatsion rivojlantirish strategiyalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirishning nazariy hamda amaliy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi, O‘zbekistondagi tendensiyalar tahlil qilinadi, asosiy to‘siqlar va imkoniyatlar aniqlanadi. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida hududiy siyosat va strategik boshqaruvni takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *maishiy xizmatlar, hududiy rivojlanish, innovatsiyalar, raqamlashtirish, strategiya, tadbirkorlik, servis klasterlari, barqaror o‘sish.*

Abstract: *The article is devoted to the study of innovative strategies for the development of the household services sector at the regional level. Theoretical and practical approaches to the modernization and digitalization of the service sector are considered, trends in Uzbekistan are analyzed, and key barriers and opportunities are identified. Based on the collected data, directions for improving regional policy and strategic management in the context of innovative economic development are proposed.*

Keywords: *household services, regional development, innovation, digitalization, strategy, entrepreneurship, service clusters, sustainable growth.*

Актуальность темы исследования. Обслуживание населения играет значимую роль в социально-экономическом развитии территории. Оно оказывает воздействие на трудоустройство, благосостояние жителей и способность региона конкурировать. В эпоху технологических новшеств и модернизации экономики возрастает потребность в цифровых решениях, современных форматах ведения бизнеса и адаптации к местным особенностям. Актуальность исследования усиливается необходимостью сокращения дисбалансов между городскими и сельскими территориями, расширения доступа населения к современным сервисам и стимулирования малого бизнеса.

Анализ использованной литературы

M. Porter (США) рассматривает роль кластерного подхода в повышении конкурентоспособности сферы услуг, акцентируя внимание на инновационных механизмах управления.[4]

P. Kotler (США) анализирует маркетинговые стратегии сервисных предприятий, выделяя инновации как ключевой фактор привлечения потребителей.[5]

J. Brynjolfsson (MIT, США) исследует цифровизацию экономики и её влияние на эффективность управления услугами.[6]

В.В. Радаев изучает институциональные изменения в сервисных отраслях, указывая на роль инноваций в повышении качества обслуживания.[7]

А.Н. Ковалева рассматривает цифровые платформы как инструмент стратегического управления в сфере услуг.[8]

Л.А. Мусабаева рассматривает вопросы макроэкономического анализа и прогнозирования развития услуг, акцентируя внимание на инновационной составляющей.[9]

Р.А. Мусабоев исследует развитие бытового обслуживания на региональном уровне, уделяя внимание стратегическому планированию и цифровой трансформации.[10]

В совокупности труды исследователей дают достоверную научную базу для формирования выводов по инновационным стратегиям и подтверждают важность комплексного подхода.

Методология исследования

Методологическая основа работы включает системный и сравнительный анализ, а также элементы эконометрического моделирования. Использованы методы экспертных оценок, статистической обработки данных и SWOT-анализ региональных факторов. Для визуализации результатов применялись табличные и графические формы.

Анализ результатов исследования

На основе экспертного опроса выделены приоритетные направления развития сектора бытового обслуживания Андижанской области (см. табл. 1).

Таблица 1. Приоритетные направления и механизмы реализации

Направление	Ключевые инструменты	Коэффициент приоритетности
Модернизация и цифровизация	Онлайн-платформы, е-реестры, субсидии на ИКТ	0,28
Развитие инфраструктуры в сельской местности	Сервисные кластеры, льготы, субсидии	0,24
Поддержка малого и социального предпринимательства	Микрокредиты, гранты, налоговые каникулы	0,20
Повышение квалификации кадров	Обучение, сертификация, сотрудничество с колледжами	0,16
Развитие партнёрства и управления	Диалог бизнес–власть, стратегическое планирование	0,12

Источник: составлено автором на основе результатов экспертного опроса в Андижанской области.

Результаты показывают приоритет цифровизации и инфраструктурного развития. Поддержка малого бизнеса и кадровая

политика имеют среднюю значимость, в то время как партнерство и управление воспринимаются как долгосрочные меры.

Выводы и предложения

Выводы:

- Сектор бытового обслуживания обладает высоким потенциалом роста, особенно в сельских районах.
- Эффективность действующих мер поддержки снижается из-за административных барьеров и ограниченного доступа к финансам.
- Недостаточно системно выстроено стратегическое управление.
- Основные барьеры: инфраструктурные ограничения, кадровый дефицит, низкий уровень цифровизации.

Предложения:

1. Разработать региональную стратегию развития бытовых услуг до 2030 года.
2. Создавать сервисные кластеры в сельской местности с готовой инфраструктурой.
3. Усилить подготовку и переподготовку кадров, внедрить сертификацию специалистов.
4. Разработать единую цифровую платформу учёта и мониторинга услуг.
5. Поддерживать социальное предпринимательство через гранты и программы для уязвимых групп населения.

Список литературы:

1. Указ Президента РУз №УП–60 от 28.01.2022 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026-годы». https://lex.uz/docs/5841077
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 27.01.2022 г. № ПП-104 «О дополнительных мерах по развитию сферы услуг» https://lex.uz/uz/docs/5840286
3. Закон Республики Узбекистан, от 10.05.2019 г. № ЗРУ-537 «О государственно-частном партнёрстве» https://lex.uz/ru/docs/4329272
4. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Harvard Business Review Press, 1985.
5. Kotler P. Marketing Management. Pearson, 2012.
6. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. MIT Press, 2016.
7. Радаев В.В. Социология рынков: к формированию нового направления. М.: ГУ ВШЭ, 2003.
8. Ковалева А.Н. Цифровизация экономики и её влияние на сферу услуг. М., 2020.
9. Мусабаева Л.А. Макроэкономический анализ и прогнозирование. Самарканд, 2024.

10. Мусабоев Р.А. Особенности развития современного рынка бытовых услуг в регионах Узбекистана. Самарканд, 2025. https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/123993

Абилов Феруз Нематуллаевич *– Самарканд вилоят хокимининг биринчи уринбосари, СамИСИ тадқиқотчиси*

АГРОСЕРВИС СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: *мақолада агросервис соҳасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш йўлларини қараб чиқилган. Бунда камбағалликни қисқартиришнинг аниқ чора-тадбирлари белгиланган. Бу тадбирларга қуйидагилар, хусусан, экспартёр билан камбағал аҳоли қатламининг кооперацияси, аҳолини доимий иш ўринларига жойлаштириш, тадбиркорликка жалб этиш, ерларни ижарага бериш ва бир қанча бошқа йўналишлар кириши асосланган. Оилаларни даромадли меҳнат билан таъминлаш бўйича кўрсатилган хизматлар, хусусан, ўзининг уйидаи ўзини банд қилиш, доимий ишга жойлаштириш каби хизматлар ҳам кўрсатилганлиги эътироф этилган.*

Калит сўзлар: *агросервис, агросервис соҳаси, камбағаллик, камбағалликни қисқартириш, ишсизлик, бандлик, иш ўринлари, тадбиркорликка жалб этиш, қишлқ ҳудудлари, иссиқхоналар, ерларни ижарага бериш,*

Аннотация: *В статье рассмотрены пути сокращения бедности посредством развития сферы агросервиса. При этом определены конкретные меры по снижению уровня бедности. К таким мерам, в частности, отнесены кооперация экспортеров с малообеспеченными слоями населения, обеспечение населения постоянными рабочими местами, вовлечение в предпринимательскую деятельность, передача земель в аренду и ряд других направлений. Отмечено также, что в рамках предоставляемых услуг по обеспечению семей доходным трудом оказываются такие услуги, как самозанятость на дому и трудоустройство на постоянную работу.*

Ключевые слова: *агросервис, сфера агросервиса, бедность, сокращение бедности, безработица, занятость, рабочие места, вовлечение в предпринимательство, сельские территории, теплицы, аренда земель.*

Abstract: *The article examines ways to reduce poverty through the development of the agro-service sector. In this context, specific measures aimed at poverty reduction are identified. These measures include, in particular, cooperation between exporters and low-income population groups, provision of permanent employment opportunities, involvement in entrepreneurial activities, leasing of land, and several other areas. It is also emphasized that the services provided to ensure income-generating employment for families include self-employment at home and placement in permanent jobs.*

Keywords: *agro-service, agro-service sector, poverty, poverty reduction, unemployment, employment, job creation, involvement in entrepreneurship, rural areas, greenhouses, land leasing.*

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Мазкур мавзунинг долзарблиги қуйидаги бир қанча асослар билан изоҳланади. Камбағаллик муаммосининг қишлоқ ҳудудларида юқори улушга эга эканлигининг ўзи масаланинг нечоғлик долзарб эканлигини кўрсатиб турибди. Камбағал аҳолининг катта қисми қишлоқ ҳудудларида яшаганлиги туфайли ушбу ҳудудларда иш

ўринларининг чекланганлиги, хизматлар бозорининг етарлича ривожланмагани аҳоли даромадларининг паст бўлишига олиб келмоқда.

Агросервис соҳаси эса айнан қишлоқ жойларида тезкор ва самарали иш ўринлари яратиш имкониятига эга соҳа бўлганлиги туфайли камбағалликни қисқартириш имкониятини яратади.

Агросервиснинг ўзига хос хусусиятларидан бири, ушбу соҳанинг қўшимча қиймат яратишдаги ролининг катталиги билан ҳам изоҳланади. Чунки агросервис соҳаси фақат қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш билан чекланмай, балки техника хизмати, логистика, қайта ишлаш, сақлаш, агроконсалтинг каби йўналишларни қамраб олади. Бу эса ишлаб чиқариш занжирида қўшимча қиймат яратиб, аҳоли даромадларини оширишга хизмат қилади.

Аннотация. Ушбу мақолада бизнес-жараёнларнинг қурилиши ва GDP (“Яхши Дистрибюторлик Амалиёти”) стандарти асосида ҳужжатларни ишлаб чиқишнинг Ўзбекистондаги фармацевтика дистрибюторлик компанияларида сифат менежменти тизимини самарали жорий етишга таъсири таҳлил қилинади. Тарқатиш соҳасида сифат тизимини тўғри назорат қилиш учун фармацевтика компанияларининг бизнес жараёнлари ва ҳужжатларини ишлаб чиқиш жуда муҳимдир. Бундан ташқари, амалга ошириш босқичида компанияда сифат менежменти тизимини сақлаб қолиш учун барча ходимлар учун узлуксиз ўқув дастурларини ташкил етиш жуда муҳимдир. Шунинг учун ушбу мақола GDP стандарти асосида батафсил ҳужжатлаштириш жараёнларини таҳлил қилади. Бундан ташқари, ҳужжатларни ишлаб чиқишнинг Ўзбекистондаги фармацевтика дистрибюторлик компаниялари сифат менежменти тизимига таъсири таҳлили ўтказилади.

Калитли сўзлар. GDP (“Яхши Дистрибюторлик Амалиёти”), дистрибьюция, ҳужжатлар, сифат менежменти тизими, фармацевтика маҳсулотларини улгуржи савдоси компаниялари.

Аннотация. В данной статье анализируется построение бизнес-процессов и влияние разработки документации на основе стандарта GDP («Надлежащая Дистрибьюторская Практика») на эффективное внедрение системы менеджмента качества в фармацевтических дистрибьюторских компаниях Узбекистана. Очень важно разработать бизнес-процессы и документацию фармацевтических компаний, чтобы должным образом контролировать систему качества в сфере дистрибуции. Более того, на этапе внедрения становится крайне важным организовать программы непрерывного обучения для всех сотрудников, чтобы поддерживать систему менеджмента качества в компании. В связи с этим, в этой статье будут проанализированы подробные процессы

документирования, основанные на стандарте GDP. Кроме того, будет проведен анализ влияния разработки документации на систему менеджмента качества дистрибьюторских фармацевтических компаний в Узбекистане.

Ключевые слова: GDP («Надлежащая Дистрибьюторская Практика»), дистрибуция, документация, система менеджмента качества, фармацевтические дистрибьюторские компании.

Introduction

“Good Distribution Practice” (GDP) serve to ensure the quality and safety of medicines at all stages of logistics. Successful implementation of GDP requires the development of documentation, effective management and training of personnel. An important element is consulting with the active participation of key employees and creating a single digital platform for quality control.

Creating a database and digitalizing processes is a transition from paper documentation to modern electronic management systems, which allows you to store information, access up-to-date data, automate control and analysis, and increase work efficiency. Digitalization helps reduce errors, speed up processes, and provide reliable real-time quality monitoring.

The consultant's interaction with key personnel is a collaboration aimed at understanding the company's processes and needs. The consultant helps to adapt the GDP standards to the working environment, trains employees and develops effective solutions together with them. This approach increases staff engagement and ensures successful implementation of the quality system. Therefore, it is critical to include key personnel in the documentation development process.

During the document development stage, the Responsible Person and the Warehouse Manager should actively interact with the consulting organization in order to minimize the risks of deviations and serious violations in the executing processes. The consultant must coordinate all the company's processes that are specified in the documentation with the Top Management and Responsible Person. In the event of significant changes in the company's processes, the Consultant and the Responsible Person should organize a training program for staff on the changed procedures. What changes are taking place in the company's documentation staff should be aware of and trained in accordance with the new requirements.

Literature review

Stages in the developing GDP documentation

To effectively improve the document development technology, it is crucial to follow the following sequence of developing documents for implementing the GDP:

1. **Development of a Quality Manual**
2. **Development of SOPs (Standard Operating Procedures).**
3. **Development of the company's Organizational structure and job descriptions.**

4. **Development of Instructions for personnel.**
5. **Quality objectives and policies.**



Figure 1: Stages of document development during the implementation of the GDP.

Quality Manual

The Quality Manual is one of the main documents in the field of quality, which describes all the warehouse processes of a distribution company, as well as the relationship of the company's personnel. This is a kind of "map" of the entire quality system as it defines how the company ensures quality at all stages of drug distribution, and serves as a support for the development of all subsequent procedures and instructions.

The Quality Manual **defines the company's quality policy and** sets out the strategic goals and principles on which the entire quality management system is based. **The document defines the structure of processes and staff responsibilities, prescribing** key roles and areas of responsibility, which facilitates process management and control. The Quality Manual **ensures that processes are standardized,** which reduces the risk of errors and inconsistencies. **Moreover, the document ensures transparency and communication** between management and staff.

Standard Operating Procedures (SOP) Development

In the system of good distribution practice (GDP), SOPs are **a mandatory element of documentation**, without which stable and safe operation is impossible. Standard operating procedure is a document that describes *in detail how to properly perform a particular process or operation.* SOPs help prevent violations that affect the quality and safety of products, and allow you to prove that the company acts according to approved rules in the event of inspections, complaints, or refunds. SOPs are the basis for training new employees and

improving the skills of current ones. SOP development takes place in several stages. SOPs projects are developed by specialists of the structural divisions (services) where they are planned to be used and by those personnel who will directly perform operations or take part in them.

SOPs should have the following sequence structure:

Name of the SOP:

- **Scope of distribution.**
- **Responsible executor;**
- **Definitions (glossary) (optional).**
- **Conditions under which the implementation of the methodology begins.**
- **Technical means;**
- **Procedure for performing the methodology.**
- **The result of performing the methodology and the form of its presentation.**
- **Regulatory and reference information (sources).**
- **Flow chart or process diagram (recommended).**
- **List of registration changes (recommended).**
- **List of familiarizations with procedural documents (mandatory).**

The SOP is compiled in a clear language, with clear steps, indicating responsible persons, record forms, and standards. The SOP is coordinated with the management and key specialists, approved and put into effect. SOPs are reviewed when processes and equipment change (usually at least once every 3 years).

2.4 Development of the company's Organizational structure and Job descriptions.

Organizational structure and job descriptions are what the quality management system is built on. Without a division of responsibilities, it is impossible to ensure compliance with the GDP requirements, effectively manage processes and minimize errors.

Organizational structure - a diagram that shows how the company works: what departments exist, who is responsible for what, and how different departments interact with each other.

Job descriptions describe the duties, rights, and responsibilities of a particular employee. The instructions should reflect the requirements for compliance with storage conditions, handling of products, and filling out documentation.

The organizational structure and job descriptions should be **up-to-date, consistent,** and **understandable to each employee.** (Institute of Directors, 2025)

2.5 Development of instructions for personnel

Instructions are documents that explain to employees *what to do*, *how to do it, and when to do* it as part of their job responsibilities. They are part of the quality assurance system, help reduce risks, improve the skills of employees, and ensure that employees perform all actions in accordance with the requirements of Good

Distribution Practice (GDP). Unlike the SOP, the instructions are used for actions of a specific employee and are used in daily work. (SowFlow, 2025)
These instructions help new employees learn more quickly how to properly perform their duties. The instruction is approved by the authorized persons (Responsible person/Director of the company) and is put into effect. Each employee must be familiar with the instructions under the signature before starting work. This can be part of an introductory briefing or regular training. These instructions should be reviewed when processes and equipment are changed.

2.6 Quality objectives and policy.

The quality objectives and policy and reflect the company's commitment to ensuring consistent quality and safety of medicines. The policy sets out general principles and commitments, while objectives - are specific, measurable tasks aimed at improving processes, meeting GDP requirements, and improving customer satisfaction. (Ingilizovska, 2025)

The policy is developed and approved by senior management and forms the basis for the entire quality management system. It should be clear, correspond to the specifics of the company's activities, and be communicated to all employees. Objectives help translate general principles into practical steps. (Ingilizovska, 2025)

Conclusion

This paper analyzes the importance of the developing the documentation based on GDP standard (Good Distribution Practice) in the distribution pharmaceutical companies in Uzbekistan and its impact on the effective implementation of the quality management system. It’s crucial to consider the stages in the developing the documentation:

1. Development of a Quality Manual
2. Development of SOPs (Standard Operating Procedures).
3. Development of the company's Organizational structure and job descriptions.
4. Development of Instructions for personnel.

List of References

1. ECA GDP Association (2024) *“Checklist for Implementation of GDP Principles - Part 6: Complaints, Returns, suspected falsified Medicinal Products and Medicinal Product Recalls”* Available at: https://gdp.gmp-compliance.org/about-gdp/news/news-details/checklist-for-implementation-of-gdp-principles-part-6-complaints-returns-suspected-falsified-medicinal-products-and-medicinal-product-recalls.html [Accessed: 21 October, 2025]

2. ECA GDP Association (2021) *“Contracts for Outsourced Activities”* Available at: https://paradigmshiftconsulting.co.uk/contracts-for-outsourced-activities/ [Accessed: 22 October, 2025]

3. European Medicines Agency (2025) *“Good distribution practice”* Available at: https://www.ema.europa.eu/en/human-regulatory-overview/post-authorisation/compliance-post-authorisation/good-distribution-practice [Accessed: 12 October, 2025]

4. Ingilizovska, B. (2025) *“Quality Objectives: Definition, Examples, Requirements, and How to Define”* Available at: https://simplerqms.com/quality-objectives/ [Accessed: 14 October, 2025]
5. Institute of Directors (2025) *“What is an organizational structure?”* Available at: https://www.iod.com/resources/company-structure/what-is-an-organisational-structure/ [Accessed: 15 October, 2025]
6. Lester, A. (2020) *“4 Components of a Successful GDP Quality Management System”* Available at: https://info.expeditors.com/horizon/gdp-quality-management-system [Accessed: 10 October, 2025]
7. Martin, A. (2018) *“A Quality Manual – what is it and what should it contain?”* Available at: https://www.inspiredpharma.com/2018/09/04/quality-manual-contents/ [Accessed: 10 October, 2025]
8. Paradigm Shift Consulting (2024) *“GDP Transportation of Medicines”* Available at: https://paradigmshiftconsulting.co.uk/transportation-of-medicines/ [Accessed: 20 October, 2025]
9. Paradigm Shift Consulting (2021) *“Standard Operating Procedures”* Available at: https://gdptraining.co.uk/standard-operating-procedures/ [Accessed: 25 October, 2025]

Холиқулов Анвар Нематович – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси мудири, и.ф.н., профессор.

МОНОПОЛИЯГА ҚАРШИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Ушбу мақолада Самарқанд вилоятида олиб борилаётган монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда ахборот шаффофлигини таъминлаш кўрсаткичларининг таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: Ахборот, алоқа, хизмат, хизмат кўрсатиш, хизмат кўрсатиш корхоналари.

Аннотация: В данной статье представлен анализ многогранности обеспечения прозрачности монополии при совершенствовании антимонопольной системы в Самаркандской области.

Ключевые слова: Информация, связь, сервис, сервис, сервисные предприятия.

Abstract: This article presents an analysis of the multiplicity of ensuring the transparency of the monopoly in the improvement of the anti-monopoly system in the Samarkand region.

Key words: Information, communication, service, service, service enterprises.

Монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда ахборот шаффофлигини таъминлаш кўрсаткичлари муҳим бўлиб ҳисобланади. Чунки ахборотлар қачонки, очиқ-ойдин бўлса, айниқса, ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида қанчалик муҳимлигини ҳаммамиз биламиз. Ахборотлар очиқ шаффоф бўлишида энг асосий ўринни нарх кўрсаткичи бўлиб ҳисобланади. Рақобатлашишда нарх муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Аммо нархдан ҳам муҳимроқ омил бу таннархдир. Таннархни самарали бошқара олиш ҳисобига рақобатдаги устунликни таъминлаш мумкин.Таннархга таъсир қилувчи омиллар сифатида ишчи

кучининг маошини камайтириш, сонини қисқартириш, хом-ашёни арзонроқ олиш каби чораларидан фойдаланиш мумкин. Аммо қуйидаги чоралар билан таннархда етакчилик қилиш самаралироқдир:

1) иқтисодий масштаб;
2) тажриба ёки ўрганиш иқтисодиёти;
3) ишлаб чиқариш дизайни;
4) маҳсулот дизайни.

Иқтисодий масштаб бу ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши ҳисобига ўртача ҳаражат миқдори камайишидир. Масалан: Ҳенри Форд автомобил заводи линия ишлаб чиқаришини йўлга қўйиш орқали арзон автомобиллар ишлаб чиқаришни бошлаган. Ишлаб чиқариш заводи қанчалик катта бўлса ва ишлаб чиқариш қуввати максимал қўлланилса, шунчалик унинг иқтисодий масштаби катта бўлади.

Мутахассисликка ихтисослашиш ва тўғри йўлга қўйилган меҳнат тақсимоти иш унумдорлигини оширади. Тажриба ёки ўрганиш иқтисодиётида эса ишчи ходим бир хил ишни доимий равишда бажариши натижасида унда махсус кўникма ҳосил бўлиши ва кейинги сафар ҳар доимгидан тезроқ ва сифатлироқ бажаришига асосланади. Бу ҳолатни - тажриба қонуни деб ҳам аталади. Ишлаб чиқариш дизайни ишлаб чиқариш жараёнини тўғри кетма-кетликда самарали йўлга қўйиш, иш оқимини меҳнат унумдорлигидан келиб чиқиб, тўғри тақсимлаш. Маҳсулот дизайни маҳсулотни тўғри қисмларга бўлиш, уни йиғиш, тузатиш ва фойдаланиш учун қулай дизайн кўринишига эга бўлишидир.

Иқтисодий қамров – бу йирик корхоналарнинг мавжуд ички имкониятларидан синергия эффекти ҳисобига янада самарали фойдаланиш ҳисобланади. Масалан, Самсунг компаниясининг илмий тадқиқот маркази электротехника соҳасида яратган ихтиросини бошқа категорияларда ҳам қўллаш мумкин. Жумладан, маиший техникадаги ихтиросини офис техникасида, ёки кемасозликдаги янгилигини қурилиш ёки автомобил саноатида қўллаш мумкин. Бу корхонанинг ички имкониятларини бир-бири билан изчил ва ҳамоҳанг тарзда ишлашини талаб қилади. Шу билан бирга, корхонанинг рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.Самарқанд вилоятида ҳам монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда ахборот шаффофлигини таъминлаш борасида, тадбиркорликни ривожлантириш борасида бир қанча ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан қуйидаги 1-расмда самарали фойдаланиш чораси кўрилмаган давлат мулклар рўйхатига киритилган объектлар тўғрисида маълумотлар келтирилган.



1-расм. Самарали фойдаланиш чораси кўрилмаган давлат мулклар рўйхатига киритилган объектлар

Расм маълумотларидан кўриниб турибдики, Самарқанд вилоятида жами бўш турган объектлар сони 938 тани ташкил қилади, ана шулардан самаралиси 89,4 фоизи (839 та), самарасизи 10,6 фоизни(99 та) ташкил қилмоқда. Самарали фойдаланиш чораси кўрилмаган давлат мулклар рўйхатига киритилган объектлар кўрсаткичи бўйича вилоятда Каттақўрғон шаҳри, Нарпай, Нуробод, Пахтачи туманларида яхши ташкил этилган, Иштихон, Қўшработ, Самарқанд, Пайариқ туманларида самарасиз ташкил этилганлигини кўришимиз мумкин.

Монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда ахборот шаффофлигини таъминланса, албатта рақобат жараёнида барча корхоналар бир хил имкониятларга эга бўладиган бўлса, соф рақобат бўлади. Соф рақобат бўлган жойда корхоналар сони ошиб бораверади, корхоналар сони ошиши эса ўз-ўзидан яратилган маҳсулотлар ошишига олиб келади, буларнинг натижасида маҳсулотлар сифати ҳам такомиллашиб боради. Самарқанд вилоятида ҳам соф рақобат қилиши учун имкониятлар берилганлиги сабабли макроиқтисодий кўрсаткичлар йилдан йилга ўсиб борганлигини кўришимиз мумкин

Маълумотлардан кўриниб турибдики, Самарқанд вилоятида таҳлил қилинаётган давр мобайнида ялпи ҳудудий маҳсулот, 2,32 марта кўпайган. Йиллар давомида ҳам фақат ўсиш тенденциясига эга бўлган. Энг паст ўсиш 2018 йилда 0,7 фоизга, 2017 йилда 1,5 фоиз, 2020 йилда 2,3 фоизга ошган. Энг юқори ўсиш 2021 йилда 8,8 фоизга, 2016 йилда 7,4 фоизга ва 2019 йилда 5,6 фоизга ўсганлиги кўриниб турибди (2-расм).



2-расм. 2016-2021 йиллар мобайнида Самарқанд вилоятинг ялпи ҳудудий маҳсулотининг ўсиш динамикаси.

Ялпи ҳудудий маҳсулот кўпайишига, энг аввало саноат маҳсулотлари кўпайиш кўрсаткичи ижобий таъсир қилувчи омил бўлиб ҳисобланади. таҳлил қилинаётган давр мобайнида ялпи ҳудудий маҳсулот, 2,32 марта кўпайган бўлса, саноат маҳсулоти 3,06 марта кўпайган. Демак бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, саноат маҳсулоти таҳлил қилинаётган давр мобайнида ялпи ҳудудий маҳсулотга қараганда 1,32 марта юқорироқ ўсиш тенденциясига эга бўлган.

Таҳлил қилинаётган 2016-2021-йиллар мобайнида Самарқанд вилоятида макроиқтисодий кўрсаткичлардан деярли ҳаммаси ижобий ўсиш тенденциясига эга бўлган. Жумладан: истеъмол товарлари 2,83 марта, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги 2,34 марта, асосий капиталга инвестициялар 4,89 марта, қурилиш ишлари 3,29 марта, чакана савдо товар айланмаси 2,76 марта, Хизматлар, жами 2,59 марта, Ташқи савдо айланмаси 1,95 марта, Экспорт 1,42 марта, импорт 1,91 марта ошган.

Монополияга қарши бошқарув тизимини такомиллаштиришда ахборот шаффофлигини таъминлашда ҳар бир хўжалик юритувчи субъектлар ўз фаолиятида ахборотлар очиқлигини таъминлаши рақобат муҳитини янада ривожлантиришга олиб келади, бу эса ўз навбатида маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг кўпайишини ҳамда маҳсулотлар сифатини ошишини таъминлайди. Ахборотлар шаффофлиги энг аввало ҳозирги кунда тез ривожланаётган рақамли технологияларда ўз ифодасини топади.



3-расм. 2016-2021 йиллар мобайнида Самарқанд вилоятинг саноат маҳсулотининг ўсиш динамикаси.

Шунингдек, юқори технологияли ишлаб чиқариш, иқтисодий фаолият, молиявий хизматлар - интернет форматида ахборот ва коммуникация технологиялари ва шахсий ҳисоблаш қурилмалар, бизнес моделини ва бугунги иқтисодиётда истеъмолчилар нафақат ўзгарди, балки ижтимоий жараёнларни кенг ўзгартириш учун асос таълим концепциялари ва стандартлари, кўнгилочар ва дам олиш, электрон ўзаро асосланган, бу инфратузилмани, рақамли технологиялар асосида иқтисодий фаолият рақамли мақомга эга бўлган глобал иқтисодиётнинг янги тараққиёт вектори ҳисобланади.Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши халқаро бизнеснинг ички ва ташқи муҳитига таъсир кўрсатиши мумкин. Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида катта ўзгаришлар рўй бермоқда, бу эса компаниялар фаолиятининг турли йўналишларида акс эттирилиши мумкин эмас. Интернет орқали бутун дунё бўйлаб ўз маҳсулотларини сотишлари мумкин. Кичик инвестицияга эга бўлган компаниялар тезда пайдо бўлиб, тез ўсиб ривожланиши мумкин. Ахборот технологиялари ёрдамида харажатларни камайтириш ва айни пайтда иқтисодиётнинг кўплаб тармоқларида меҳнат унумдорлиги ва самарадорлигини ошириш учун бундай имконият мавжуд. Шу билан бирга, рақамли иқтисодиётни ҳисобга олган ҳолда бозорда компанияларнинг позицияси тобора мураккаблашиб бормоқда. Стратегик қарорлар қабул қилиш жараёнида хавф ва ноаниқлик даражаси ошади. Бу ҳолат технологик даражадаги динамик ўзгаришлар, рақобатнинг ўсиши ва иқтисодиётга давлат таъсири туфайли барқарор бозор ҳолатига боғлиқ бўлмайди. Рақамли иқтисодиётга хос бўлган технологик ўзгаришлар ишлаб чиқарувчилар ва харидорлар учун янги бозор қоидаларини яратиши мумкин. Бундай муҳитда компаниялар янги рақобат стратегияларини қидириши ва рақобат самарадорлигини оширишлари керак.

III SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA HUDUDLARDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Каршибоев Хайрулла Киличевич *– к.ф-м.н., доцент.**,** зав.кафедры «Высшей математики» Самаркандский институт экономики и сервиса*

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МИРОВОГО ИНДУСТРИИ ТУРИЗМА И ГОСТЕПРИИМСТВА

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы оценки конкурентоспособности услуг на гостиничных предприятиях, в которых качество рассматривается как важный фактор конкурентоспособности объекта. В статье используются экспертный, факторный и параметрический методы оценки конкурентоспособности услуг на гостиничных предприятиях, также изучаются вопросы формирования требований и продаж через регрессионные ссылки.*

Ключевые слова: *обеспечение качества, «входящие», «исходящие», «общие» и «специфические» факторы, качество обслуживания, согласованность, надежность, точность, распознавание, скорость передачи данных, регрессия, соответствие цены и качества.*

Abstract*: The article deals with the problems of assessing the competitiveness of services at hotel enterprises, in which quality is considered as an important factor in the competitiveness of an object. The article uses expert, factorial and parametric methods for assessing the competitiveness of services in hotel enterprises, and also studies the formation of requirements and sales through regression links.*

Keywords*: quality assurance, "inbound", "outbound", "general" and "specific" factors, quality of service, consistency, reliability, accuracy, recognition, baud rate, regression, value for money*

Аннотация: *Ushbu maqola mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini baholashdagi qiyinchiliklarni o'rganadi, bunda sifat mulkning raqobatbardoshligida muhim omil hisoblanadi. Unda mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash uchun ekspert, omil va parametrik usullar qo'llaniladi. Shuningdek, regressiya aloqalari orqali talablar va savdo shakllanishi ham o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *sifatni ta'minlash, kirish, chiqish, umumiy va o'ziga xos omillar, xizmat ko'rsatish sifati, izchillik, ishonchlilik, aniqlik, tanib olish, ma'lumotlar uzatish tezligi, regressiya, narx-sifat nisbati.*

Туристический бизнес — одна из наиболее быстро развивающихся отраслей мирового хозяйства. По некоторым оценкам, международный туризм входит в число трех крупнейших экспортных отраслей, уступая нефтедобывающей промышленности и автомобилестроению.

Всемирный совет по путешествиям и туризму, промышленная группа со штаб-квартирой в Лондоне оценивают экономическую деятельность в области путешествий и туризма в 2017 г. в 3,6 трлн. долл., то есть приблизительно 11% валового мирового продукта, что делает ее самой

крупной отраслью в мировой экономике. Современные доходы от туризма оценивают в триллионы долларов США, что сопоставимо с ВНП «великих» держав[24].

Вклад индустрии туризма в структуру ВНП стран, наиболее популярных для посещения, пока весьма скромен.

Наибольшие доходы от туризма в ВНП имеют Австрия (8%), Испания (5,8%), Швейцария (5,2%). По темпам развития туризма выделяются Китай, Мексика, США. Вместе с тем в некоторых странах доходы от туризма являются определяющей статьей ВНП: Бермудские острова — 34,7%, Сейшельские острова — 27,4%, Антигуа — 58,5%, Багамы — 52,1%. По статистике в 49 наименее развитых странах мира туризм занимает второе место после нефти в качестве источника поступлений в иностранной валюте[25].

Туризм, как доходная и инфраструктурная сфера экономики, еще с советских времен обладал преимущественной базой в Узбекистане, что выгодно отличало эту центрально-азиатскую республику от большинства бывших союзных субъектов. Обусловлено это явление, прежде всего, географическим положением республики, большим потенциалом в области организации туристических привлекательных маршрутов и т.д.

Все это полностью объясняет то, что туризм на сегодняшний день играет одну из главных ролей в мировой экономике и является в настоящее время одним из самых прибыльных видов бизнеса в мире. Поэтому вопросы о будущем данной отрасли мирового хозяйства, о ее перспективах и динамике ее развития в наступающем третьем тысячелетии столь важны. В результате – туризм является сейчас одним из самых динамично развивающихся видов международного бизнеса. Интерес к туризму предпринимателей очевиден и объясняется рядом факторов. Во-первых, для того, чтобы начать заниматься туристским бизнесом, не требуется слишком больших инвестиций. Во-вторых, на туристском рынке вполне успешно взаимодействуют крупные, средние и малые фирмы. И при этом данный вид бизнеса позволяет быстро оборачивать капитал, а также (в сфере международного туризма) извлекать известные выгоды за счет валютных операций.

Ожидается постепенное смещение акцентов в развитии туризма от традиционных рынков Западной Европы, США, Японии и Канады к альтернативным рынкам, таким как Центральная и Восточная Европа, включая Россию, Китай, Южная Корея, Мексика, а также некоторые страны Ближнего Востока (таблица.1.1.1.).

Таблица 1.1.1.

Распределение объемов въездного туризма по регионам мира (международные туристские прибытия, млн. чел.)

Регионы мира	Прибытия				Прогноз	
	2010	2012	2015	2019	2020	2025
Всего	327,1	457,2	565,4	667,7	1006,4	1561,1
Африка	9,7	15,0	20,2	27,4	47,0	77,3
Америка (Северная и Южная)	64,3	92,8	108,9	130,2	190,4	282,3
Восточная Азия (Тихоокеанский регион)	31,1	54,6	81,4	92,9	195,2	397,2
Европа	212,0	282,7	338,4	393,4	527,3	717,0
Ближний Восток	7,5	9,0	12,4	18,3	35,9	68,5
Южная Азия	2,5	3,2	4,2	5,5	10,6	18,8

Одной из наиболее значимых тенденций развития мирового туризма является резкое усиление конкуренции на рынке туристического предложения как следствие появления все большего числа растущих стран с амбициозными планами привлечения туристов, а также перенасыщения на рынке однотипного туристского предложения. Рынок туризма весьма динамичен и незамедлительно реагирует на изменения условий приема туристов в туристских центрах. Например, цунами 2004 года в Тихоокеанском регионе серьезно пошатнуло позиции таких развитых туристских центров как Тайланд, Малайзия и Индонезия. В результате этого страны, стремящиеся сохранить, либо упрочить свои позиции на международном рынке, осуществляют планирование туризма на основе принципов устойчивого развития, предусматривают долгосрочные инвестиции в данную сферу и имеют четкие государственные стратегии развития туризма.

Основные составляющие стратегий, которые используются в мировой практике: детальный анализ собственных рынков с оценкой соотношения традиционных и перспективных направлений, учет общемировых тенденций и мультипликативного эффекта от развития туризма, проведение ежегодных международных кампаний под определенными запоминающимися девизами, а также широкое использование возможностей передовых информационных технологий как базовой платформы общения с потребителями туристских услуг. Сфера туризма при успешном развитии может стать одним из ключевых элементов, позволяющих создать условия для достижения стратегических целей развития страны, а именно, повышения благосостояния населения на основе динамичного и устойчивого экономического роста, обеспечения занятости населения,

повышения уровня удовлетворения социальных и духовных потребностей, создания потенциала для будущего развития государства и укрепления международных позиций. Немаловажной тенденцией современного туризма является повышение роли государственной политики развития туризма страны в целом, а также целевого продвижения отдельных туристских продуктов на отечественном и международном рынках (рисунок. 1.1).



Рисунок 1.1. Бюджеты национальных туристских организаций, выделяемые на рекламу, млн. евро, 2018 г.

При условии проведения эффективной государственной политики туристская индустрия обеспечивает рост качества услуг, стимулирует развитие человеческого капитала, повышает качество жизни, создает и совершенствует инфраструктуру.

Список использованных источников

1. Азоев ГЛ. Конкуренция: Анализ, стратегия и практика. М.: ИНФРА-М, 1996.
2. Алексеев В. Практикум по маркетингу: Задачи, тесты, ситуации. М.: ИНФРА-М, 2001.
3. Амблер Т. Практический маркетинг. Издательство "Питер", 1999-400 с. (серия "Теория и практика менеджмента")
4. Андреева О.Технология бизнеса: Маркетинг: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 1997.
5. Ассэль Г. Маркетинг: Принципы и стратегия. М.: ИНФРА-М, 2001.
6. Барышев А. Маркетинг: Учебник. М.: Академия, 2002.

Toirova Nozima Miraxmad qizi *– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, ORCID: 0009-0009-5938-4495*

HUDUDLARDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: YASHIL TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya. *Maqolada hududlarda barqaror turizmni rivojlantirishning tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Turizm o‘sishi bilan kuchayayotgan ekologik bosim sharoitida yashil turizm va ekologik innovatsiyalar (chiqindilarni boshqarish, resurs tejamkorlik, yashil transport, raqamli yechimlar) hududiy raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanmoqda. Xalqaro tajriba asosida hamkorlik, ekologik standartlar va yashil moliyalashtirishning o‘rni yoritilib, “aqlli-yashil destinatsiyalar”, hamjamiyatga asoslangan turizm hamda aylanma iqtisod integratsiyasi istiqbolli yo‘nalishlar sifatida taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *barqaror turizm, yashil turizm, ekologik innovatsiyalar, raqamlashtirish, yashil moliya, aylanma iqtisod, hududiy rivojlanish.*

Аннотация. *В статье анализируются тенденции и перспективы развития устойчивого туризма в регионах. В условиях растущего экологического давления, сопровождающего рост туризма, «зеленый» туризм и экологические инновации (управление отходами, ресурсоэффективность, экологически чистый транспорт, цифровые решения) становятся важным фактором региональной конкурентоспособности. На основе международного опыта подчеркивается роль сотрудничества, экологических стандартов и «зеленого» финансирования, а в качестве перспективных направлений предлагаются «умные зеленые направления», туризм на основе местных сообществ и интеграция в экономику замкнутого цикла.*

Ключевые слова: *устойчивый туризм, «зеленый» туризм, экологические инновации, цифровизация, «зеленое» финансирование, экономика замкнутого цикла, региональное развитие.*

Annotation. *The article analyzes the trends and prospects for the development of sustainable tourism in the regions. In the context of increasing environmental pressure with the growth of tourism, green tourism and ecological innovations (waste management, resource efficiency, green transport, digital solutions) are becoming an important factor in regional competitiveness. Based on international experience, the role of cooperation, environmental standards and green financing is highlighted, and “smart green destinations”, community-based tourism and circular economy integration are proposed as promising areas.*

Keywords: *sustainable tourism, green tourism, ecological innovations, digitalization, green finance, circular economy, regional development.*

So‘nggi yillarda turizm ko‘plab hududlar iqtisodiyotida daromad va bandlikni ta’minlovchi muhim tarmoqqa aylanib bormoqda. Biroq turizmning jadal rivojlanishi atrof-muhitga bosimni ham oshirmoqda: resurslardan haddan tashqari foydalanish, chiqindilar ko‘payishi, suv va energiya sarfining ortishi hamda karbon izining kengayishi turizmning uzoq muddatli istiqbollarini xavf ostiga qo‘ymoqda. Shu sababli hududlarda turizmni “ko‘proq oqim–ko‘proq daromad” mantiqidan “barqaror qiymat–mas’uliyatli o‘sish” mantiqiga o‘tkazish dolzarb bo‘lib qoldi[1].

Barqaror turizmni rivojlantirishda yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni minimallashtirish, raqamlashtirish va

mahalliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash kabi yondashuvlar turistik korxonalar uchun nafaqat ijobiy imidj, balki barqaror strategiyani amalga oshirish vositasiga aylanmoqda.

Demak, ushbu maqolaning maqsadi — hududlarda barqaror turizmni rivojlantirishning tendensiyalari (hozirgi yo‘nalishlar) va istiqbollari (kelgusi imkoniyatlar)ni tizimli yoritish hamda ilmiy-amaliy takliflar berishdan iborat.

Barqaror turizm — turistik faoliyatning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatini saqlagan holda bugungi ehtiyojlarni qondirish va kelajak avlod imkoniyatlarini cheklamaslikka qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv hudud darajasida ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki turizmning real ekologik izi (chiqindi, suv, transport, yer resurslari) va real ijtimoiy ta’siri (mahalliy bandlik, daromad taqsimoti, madaniy meros) bevosita hududda namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada tahlil konseptual (trend va istiqbollarni ajratish), qiyosiy (xalqaro keyslar) va tavsiyaviy (hududiy siyosat instrumentlari) yondashuvga tayanadi. Ekologik innovatsiyalar turizmning raqobatbardoshligini oshirishi, yashil texnologiyalar va energiya tejamkor tizimlar turizmning ajralmas qismiga aylanayotgani haqidagi qarashlar bilan asoslanadi.

Quyida hududlarda barqaror turizm shakllanishini belgilayotgan eng muhim tendensiyalar keltiriladi.

Turist talabi “eko-qiymat” tomon siljimoqda. Global miqyosda sayohatchilar ekologik toza mahsulot va xizmatlarga ko‘proq e’tibor qaratmoqda; bu esa turistik hududlar va biznesni yashil yechimlarga o‘tishga majbur qilmoqda. Natijada “eko-mehmonxona”, “kam chiqindili (low-waste) servis”, “mas’uliyatli marshrut” kabi takliflar oddiy marketing elementi emas, balki bozordagi real talabga javob bo‘lib bormoqda.

Chiqindilar va resurs boshqaruvi barqarorlikning “markaziy mezoni”ga aylandi. Turizm o‘sishi ko‘pincha chiqindi hajmini keskin oshiradi. Masalan, Bali misolida ommaviy turizm oqimi chiqindilar ko‘payishi va boshqaruv tizimining yetarli emasligi bilan bog‘liq ekologik muammolarni kuchaytirgani ta’kidlanadi [2].

Bu holat ko‘p hududlar uchun umumiy bo‘lib, barqaror turizmni baholashda chiqindi infratuzilmasi, saralash–qayta ishlash, plastikni cheklash kabi choralar “birinchi darajali” indikatorga aylanmoqda.

“Yashil infratuzilma” va ekologik standartlar kuchaymoqda. Green tourismni amaliy joriy etish ko‘p tomonlama strategiyani talab etadi: manfaatdor tomonlar hamkorligi, barqaror turizm standartlari, eko-infratuzilma va xabardorlik kampaniyalari shular jumlasidan.

Hududlar kesimida bu quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- energiya tejamkor binolar, “yashil” mehmonxona standartlari;
- suvni tejovchi texnologiyalar;
- ekologik audit va sertifikatlash.

Raqamlashtirish “yashil” maqsadlarga xizmat qila boshladi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli yechimlar barqarorlikka xizmat qilganda eng katta natija beradi. “Digital–green–innovation” integratsiyasi turli sohalarda yuqori

sifatli o‘sish va tabiat bilan uyg‘unlikni ta’minlash yo‘li sifatida ko‘riladi [4]. Turizmda bu tendensiya quyidagilarda ko‘rinadi:

- turist oqimini boshqarish (over-tourismni kamaytirish);
- resurs sarfini monitoring qilish (energiya/suv hisoboti);
- raqamli bron, raqamli yo‘l-yo‘riq, “aqlli” marshrutlar orqali transport va vaqt sarfini optimallashtirish.

Yashil moliya instrumentlari hududiy turizm loyihalariga kirib kelmoqda. Barqaror turizm ko‘pincha boshlang‘ich investitsiya talab qiladi (energiya tejamkor tizimlar, chiqindi infratuzilmasi, yashil transport). Shu bois moliyalashtirish mexanizmlari trendning hal qiluvchi qismiga aylanmoqda. Xitoy misolida green finance barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlovchi muhim vosita sifatida ko‘rsatiladi; strategiyalar orasida “green bond” (yashil obligatsiya) va aylanma iqtisodiyot integratsiyasi kabi yo‘nalishlar yuqori ustuvorlikka ega [3].

Bu tendensiya kelgusida boshqa hududlarga ham tarqalishi tabiiy: “yashil loyiha — arzonroq va uzoqroq moliyalashtirish” mantiqi shakllanadi.

Tendensiyalar kelgusida bir nechta istiqbolli yo‘nalishlarga “ochiladi”. Quyida hududlar uchun eng real va ta’sirchan istiqbollar yoritiladi.

1. “Hududiy yashil turizm modeli”: oddiy eko-tashabbusdan tizimga o‘tish

Bali tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni muvaffaqiyatli qilish uchun alohida loyihalar yetarli emas; holistik, hamkorlikka asoslangan, innovatsion yondashuv talab qilinadi [2]. Demak, istiqbolda hududlar:

- maqsadli indikatorlar (chiqindi kamayishi, energiya tejalishi, mahalliy daromad ulushi) bilan ishlaydigan,
- “destination management” (destinatsiya boshqaruvi)ni kuchaytiradigan,
- biznes–hokimiyat–hamjamiyat hamkorligini institutlashtiradigan tizimga o‘tadi.

2. Hamjamiyatga asoslangan turizm va “adolatli foyda taqsimoti” kuchayadi

Yashil turizm faqat ekologiya emas; u mahalliy hamjamiyat manfaatini ham ko‘zlaydi. Bali bo‘yicha tahlilda hamjamiyatni turizmni rejalash va boshqaruvga jalb qilish, turizm foydasini adolatli taqsimlash va madaniy–ekologik qadriyatlarni asrash uchun muhim imkoniyat ekani ta’kidlanadi [2].

Shu asosda istiqbolda:

- qishloq turizmi,
- agro/eko-turizm,
- “mahalliy tajriba”ga (local experience) asoslangan paketlar hududiy brendning ustun yo‘nalishiga aylanadi.

3. Qishloq va ekoturizm orqali hududlarni “revitalizatsiya” qilish. Yashil ekoturizm konsepsiyasida qishloq hududlarini jonlantirish (rural revitalization), turistik “boutique” loyihalar, yo‘llar va servis infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq brendlarini yaratish kabi vazifalar istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rsatiladi [5].

Bunda ekoturizmning afzalliklari bilan birga xavflari ham bor: noto‘g‘ri boshqaruv bo‘lsa, ortiqcha turist oqimi ekotizimga zarar yetkazishi, infratuzilmani “bosib ketishi” mumkin [5].

Shu sababli istiqbolda qishloq/eko-turizm kvotalash, carrying capacity (sig‘im) yondashuvi va ekologik monitoring bilan birga borishi kutiladi.

4. O‘zbekistonda barqaror turizm istiqbollari: eko-innovatsiyalarni jadallashtirish. O‘zbekiston kontekstida ekoturizm, mahalliy hamjamiyatga asoslangan sayyohlik, raqamlashtirilgan xizmatlar va qishloq turizmi barqarorlik yo‘lida muhim qadam sifatida qaraladi.Biroq istiqbolni real natijaga aylantirish uchun moliyaviy va texnologik to‘siqlarni kamaytirish zarur: soliq imtiyozlari, grant dasturlari, yashil texnologiya ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash kabi rag‘batlantirish choralari taklif etiladi.

5. Green finance asosidagi turizm loyihalari “portfel”i shakllanadi. Green finance yondashuvi barqaror turizm loyihalariga kapital oqimini yo‘naltirib, ekologik izni kamaytirish, madaniy merosni asrash va hamjamiyat ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilishi qayd etiladi [3].

Ayniqsa istiqbolda hududlar uchun quyidagi instrumentlar amaliy ahamiyat kasb etadi:

- yashil obligatsiyalar orqali ekotizimni tiklash loyihalari;
- aylanma iqtisodiyot (circular economy) asosida chiqindini resursga aylantirish.

Quyidagi takliflar hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish tendensiyalarini tezlashtirish va istiqbollarni real natijaga aylantirishga qaratilgan.

Ilmiy-nazariy ahamiyatga molik takliflar:

1. “Hududiy barqaror turizm modeli”ni 3 blokda konseptualashtirish taklif etiladi:(a) ekologik blok (chiqindi, suv/energiya, karbon izi), (b) ijtimoiy blok (hamjamiyat foydasi, madaniy meros), (c) iqtisodiy blok (daromad barqarorligi, mavsumiylikka chidamlilik). Bu yondashuv turizmning ekologik bosimi ortayotgan sharoitda muvozanatni boshqarishga yordam beradi [1].

2. “Raqamli–yashil–innovatsion integratsiya”ni hududiy turizmda alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida ajratish: raqamlashtirish faqat servis tezligi emas, balki “yashil” natija beradigan boshqaruv instrumenti bo‘lishi kerak.

Amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar:

1. Chiqindi va resurs boshqaruvi bo‘yicha “minimal standart” joriy etish (saralash, qayta ishlash, plastik cheklovi) — barqaror turizmning bazaviy sharti sifatida [2].

2. Hudud kesimida eko-sertifikatlash va standartlarni rag‘batlantirish: “yashil” talabni real amaliyotga aylantiradi (mehmonxona, transport, ovqatlanish, marshrut operatorlari).

3. Yashil moliya portfeli: hududiy turizm loyihalarini yashil obligatsiyalar va boshqa instrumentlar orqali moliyalash; ustuvor yo‘nalishlar — ekotizim regeneratsiyasi va aylanma iqtisodiyot integratsiyasi [3].

4. Hamjamiyatga asoslangan turizmni institutsional qo‘llab-quvvatlash: turizm rejalashtirishida mahalliy aholining ishtirokini majburiy element qilish, foyda taqsimotida shaffof mexanizm joriy etish [2].

5. Qishloq/ekoturizmda sig‘im (carrying capacity) va ekologik monitoring: ekotizimga zarar yetkazmaslik uchun turist oqimini boshqarish, infratuzilma bosimini oldindan hisoblash [5].

6. O‘zbekistonda eko-innovatsiyalarni tezlashtirish uchun soliq imtiyozlari va grantlar, hamda mahalliy yashil texnologiya ishlab chiqaruvchilarni qo‘llash; bu moliyaviy-texnologik to‘siqlarni yumshatadi.

7. Turizm biznesi va aholi uchun ekologik madaniyatni oshirish: treninglar, seminarlar, OAV orqali targ‘ibot barqarorlikni “ijtimoiy norma”ga aylantiradi.

Xulosa. Hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish bugun “tanlov” emas, balki ekologik va iqtisodiy zaruratdir. Turizm o‘sishi bilan birga chiqindi, resurs sarfi va karbon izi kuchaygani barqaror yondashuvni talab qilmoqda [1].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, asosiy tendensiyalar — turist talabining “eko-qiymat” tomon o‘zgarishi, chiqindi/resurs boshqaruvi, yashil infratuzilma standartlari, raqamli yechimlarning “yashil” maqsadlarga xizmat qilishi hamda yashil moliya instrumentlarining turizm loyihalariga kirib kelishidir [2], [3], [4].Istiqbolda esa “aqlli-yashil destinatsiyalar”, hamjamiyatga asoslangan turizm, qishloq/ekoturizm orqali hududlarni jonlantirish va green finance asosida barqaror turizm portfelini shakllantirish eng muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi [3], [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Toirova N. “Turistik korxonalarda ekologik innovatsiyalar: barqaror rivojlanish yo‘nalishlari”. Scientific Journal of “International Finance & Accounting”, Issue 2, April 2025.

[2] Astuti N.N.S., Virginiya P.T., Bagiastuti N.K., Septevany E. (2024). *The Future of Green Tourism in Bali: Challenges and Opportunities*. Journal of Applied Sciences in Travel and Hospitality, 7(2), 178–195.

[3] Fu M., Huang S., Ahmed S. (2024). *Assessing the Impact of Green Finance on Sustainable Tourism Development in China*. Heliyon, 10, e31099.

[4] Yin S., Liu L., Mahmood T. (2024). *New Trends in Sustainable Development for Industry 5.0: Digital Green Innovation Economy*. Green and Low-Carbon Economy, 2(4), 269–276.

[5] Voronkova V., Nikitenko V., Oleksenko R., Cherep A., Cherep O., Harbar H. (2024). *The Creative Development of Green Ecotourism Concept as a Sustainable Development Factor*. Revista de la Universidad del Zulia, 15(42), 370–388.

Vafoxojayeva Dilafruz Marufovna *– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

TURIZM XIZMATLARIDA TIBBIYOT TURIZMINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turizm, xususan tibbiyot turizmining ahamiyati kelajakda rivojlanish omillari, jahonda tibbiyot turizmining rivojlanishi nazariy bayon etilgan.*

Kalit so‘z: *Turizm, tibbiyot turizmi, bugungi turizm xizmatlari, fenomen, kapital mablag‘larni jalb qilish.*

Аннотация: *В данной статье теоретически описывается значение туризма, в частности медицинского туризма, факторы его будущего развития и развитие медицинского туризма в мире.*

Ключевые слова: *Туризм, медицинский туризм, современные туристические услуги, явление, капиталовложения.*

Abstract: *This article theoretically describes the importance of tourism, in particular medical tourism, the factors of its future development and the development of medical tourism in the world.*

Key words: *Tourism, medical tourism, modern tourism services, phenomenon, capital investments.*

Turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo‘lsa-da, faqat XX asrga keiib u jadal suratlarda rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida u «XX asr fenomeni» nomini oldi. Bugungi kunda turizm - juda kuchli jahon miqyosidagi sanoat bo‘Iib, uning jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 10 % ni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko‘p sonli xodim lar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag‘lar jalb qilingan. Turizm yirik biznes, katta mablag‘ va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir.[3]

Turizm bu:

a) turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi. aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviv savohatlar turi. va’ni turistning faoliyatidir:

b) bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo‘yicha turistik faoliyatdir. Bunday faoliyat turli xil turistik sanoat korxonalari va ular bilan bog‘liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi.[3]

Tibbiy turizm - bu yashash joyidan tashqarida rejalashtirilgan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish, chet elda dam olishni yuqori malakali tibbiy yordam olish bilan birlashtirish amaliyotini anglatuvchi atama hisoblanadi [5].

Xalqaro Tibbiy turizm assotsiatsiyasi (**MTA** –Medical Tourism Association) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 14 mlndan ortiq odam davolanish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qiladi.

Ko‘pgina mamlakatlar turli xil sharoitlar taklif qilishadi va buning uchun arzonroq davolanishning mavjudligi tibbiy turizm bozorining o‘sishini

qo‘llabquvvatlaydi. Misol tariqasida, bugungi kunda dunyoning 50dan ziyod mamlakatlari tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha o‘z milliy dasturlariga ega.

Tibbiy turizm, uni rivojlantirish borasida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar qilishgan, maqola va kitoblar nashr qilishgan.

Rossiyalik olim **Vdovin K.E.** o‘zining maqolasida, “…Agar bemor o‘z tibbiyot ehtiyojlarini qondirish uchun chet elga ketsa, tibbiy xizmatlarning importi dala tibbiy turizmi hisoblanadi. Kirish tibbiy turizmi-bu tibbiy xizmatlarning eksporti, ya’ni ularga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun chet ellik bemorlarni jalb qilish” deb ta’kidlagan [4].

Yana bir guruh rus olimlari o‘zlarining maqolalarida tibbiyot turizmiga shunday ta’rif beradilar: “Tibbiy turizm va tegishli toifalar sohasidagi asosiy tushunchalarning taqdim etilgan sharhi ushbu sohadagi asosiy toifalarni shakllantirishga mualliflik yondashuvini ishlab chiqishga imkon berdi, masalan: tibbiy turizm; tibbiy klinik turizm; tibbiy kurort turizmi”.

Mamlakatimizda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to‘liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-son Farmoni qabul qilingan bo‘lib tibbiyot turizmiga aloqador vazifalar belgilangan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Turizm qo‘mitasi), Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining:

“Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” (“Medical service hospitality”) dasturini amalga oshirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda sanatoriy va pansionatlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy qilish;

konsalting - diagnostika - davolash - turoperator - transport - tibbiy tarjimon xizmatlarini birgalikda ko‘rsatadigan tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish;

“Avitsenna” nomi ostida O‘zbekiston Respublikasining tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi brendini ishlab chiqish va uni doimiy ravishda targ‘ib qilib borish;

toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish;

tog‘li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo‘lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish qayd etilgan.[1]

Tibbiyot turizmi hozirgi zamon mahsuli emas u qadim davrlardayoq mavjud bo‘lgan. O‘sha paytlarda ham odamlar tajribali tabiblardan sifatli davolanish olish uchun uzoq masofalarni bosib o‘tishga majbur bo‘lganlar. Masalan, Chor Rossiyasi davrida zodagonlar orasida Germaniya yoki Chexiya kabi mamlakatlarga sog‘lomlashtiruvchi “suv muolajalari” uchun borish urfga aylangan edi.

Bugungi kunda esa Rossiya va MDH mamlakatlarida tibbiy turizm yangi bosqichga chiqdi. Ko‘plab bemorlar xorijda davolanishni o‘z yurtidagi tibbiy xizmatlarga munosib muqobil sifatida qabul qilmoqda. Yevropa, AQSh va Osiyo davlatlarida davolanishga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda, minglab bemorlar xorijiy klinikalarga murojaat qilmoqda. Buning asosiy sababi xalqaro tibbiyot markazlarining yuqori darajadagi xizmatlari, tajribali mutaxassislar, qisqa muddatli tashxis va davolash jarayoni hamda narxlarning nisbatan arzonligidir. Chet elda davolanishga bo‘lgan ehtiyoj, ayniqsa, noyob yoki murakkab kasalliklarga chalingan bemorlar uchun muhim hisoblanadi, chunki bunday hollarda malakali tibbiy yordam ularning yashash mamlakatida mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Tibbiy turizmni rivojlanishga undovchi besh asosiy omil mavjud:

1. tejamkor xizmatlar;
2. ilg‘or tibbiy texnologiyalar;
3. malakali shifokorlar;
4. davolanishni kutish muddatining qisqaligi;
5. qo‘shimcha omillar anonimlik, sayohatni dam olish dasturlari bilan birlashtirish imkoniyati va boshqalar.

Bemorlar nafaqat klinikalarda, balki tabiat qo‘ynidagi oromgohlarda ham sog‘lig‘ini tiklab, bir vaqtning o‘zida professional tibbiy xizmatdan foydalanishlari mumkin. Masalan, Isroildagi Gersliya tibbiyot markazi, Kineret ko‘li bo‘yidagi sanatoriyalar yoki Golan tog‘idagi “Xamat Tveriya” markazi dunyo miqyosida mashhurdir. "Patient’s Beyond Borders" xalqaro tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, tibbiy turizm har yili o‘rtacha 40 milliard AQSh dollari daromad keltirmoqda. AQShda 100 milliondan ortiq bemor sug‘urta xarajatlarini to‘liq qoplay olmagani sababli, Hindiston yoki Tailand kabi mamlakatlarda davolanishni tanlamoqda.

U yerda tibbiy xizmatlar 4–10 baravar arzonroq. Kanada va Buyuk Britaniya fuqarolari esa davlat sug‘urtasiga ega bo‘lishiga qaramay, navbatda uzoq kutish (ba’zan 2 yilgacha) sababli chet elda davolanishni afzal bilishadi. Hozirgi kunda Hindiston, Turkiya, Singapur, Tailand, Braziliya, Meksika va Janubiy Koreya kabi davlatlar tibbiy turizm bozorida yetakchilik qilmoqda. Masalan, Tailandga yiliga 1,2 million, Meksikaga esa 1 milliondan ortiq bemor tashrif buyuradi. AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarda sog‘liqni saqlash xarajatlarining yuqoriligi tibbiy turizmni arzonroq muqobil sifatida ko‘rilishiga olib kelgan. Shu sababli ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar sifatli tibbiy xizmatni past narxlarda taklif etish orqali ushbu bozorni rivojlantirmoqda.[2]

Turkiya Tibbiyot Turizmi Assotsiatsiyasi (TTTA) esa har kuni 160 dan ortiq mamlakatdan kelgan bemorlarga onkologiya, neyroxirurgiya, transplantologiya va ortopediya yo‘nalishlarida xizmat ko‘rsatadi. TTTA xorijiy bemorlarga aeroportdan bepul tashish, mehmonxona chegirmalari va tarjimon xizmatlarini taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasida ham tibbiy turizm sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2018-yil 7-dekabrdagi Prezident qarori bilan sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish, 2019-2023-yillarda tibbiy turizmni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. “Medtravel Global System” notijorat tashkiloti tashkil etilib, xorijiy bemorlar uchun 3 oylik “Medical Visa” joriy qilindi.[2]

Xulosa o‘rnida, yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud va shu 370 bilan birgalikda yanada boyib borayotgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tibbiy jihozlar va jahonning eng sifatli tibbiy xizmatlar ko‘satayotgan xorij davlatlarida o‘z malakalarini oshirayotgan malakali kadrlar asos bo‘la oladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

Sifat kafolati va akkreditatsiya, Ixtisoslashgan xizmatlar va mukammallik markazlari, Xalqaro sog‘liqni saqlash provayderlari bilan hamkorlik, Sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, Rag‘batlantirish va marketing xizmatlarining yo‘lga qo‘yilganligi tibbiyot turizning istiqbolini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-335-son

2. Dilnoza Tairova. https://doi.org/10.5281/zenodo.17610023

3. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna. Turizm asoslari. TOSHKENT – 2011

4. Вдовин К. Э. Перспективы развития медицинского туризма в Российской Федерации: анализ конкурентной среды методом DEA. Вестник университета. 2019;(6):57-67. https://doi. org/10. 26425/1816-4277-2019-6-57-67

5. Alimov Abdujamil Mirpulat o‘g‘li, Temirov Azizjon Abduvohid o‘g‘li, O‘ZBEKISTONDAGI TIBBIYOT TURIZMINING O‘RNI VA AHAMIYATI.Science shine International scientific journal. 2024.10.05

З.Ураков *– соискатель Самаркандского государственного университета им.Ш.Рашидова*

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ АГРОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *Агротуризм -интеграция сельского хозяйства и туризма -является растущей нишей, которая поддерживает устойчивое развитие сельских районов. Страны с высокоразвитым сектором агротуризма (такие как Италия, Франция и США) предлагают ценные уроки. Успешные модели агротуризма ориентированы на органическое земледелие, экологический туризм и аутентичные впечатления от фермерских хозяйств, обеспечивая при этомэкологическую устойчивость. Такие инициативы не только обеспечивают фермерам дополнительный доход, но и помогают сохранить традиционную культуру земледелия и биоразнообразие..*

Ключевые термины: *агрокомплекс, агротуризм, зарубежная практика, фермерские хозяйства, экологическаяустойчивость, сельского хозяйства, сокращение отходов, возобновляемаяисточники энергии.*

Annotatsiya: *Agroturizm — qishloq xo‘jaligi va turizmning integratsiyasi — barqaror qishloq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi tobora rivojlanayotgan sohadir. Agroturizm sohalari yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar (masalan, Italiya, Fransiya va Qo‘shma Shtatlar) qimmatli saboqlarni taqdim etadi. Muvaffaqiyatli agroturizm modellari ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga organik dehqonchilik, ekoturizm va haqiqiy fermer xo‘jaliklari tajribalariga qaratilgan. Bunday tashabbuslar nafaqat fermerlarga qo‘shimcha daromad keltiradi, balki an’anaviy dehqonchilik madaniyati va biologik xilma-xillikni saqlashga ham yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *agrosanoat kompleksi, agroturizm, xalqaro amaliyotlar, fermer xo‘jaliklari, ekologik barqarorlik, qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya.*

Abstract: *Agritourism—the integration of agriculture and tourism—is a growing niche that supports sustainable rural development. Countries with highly developed agritourism sectors (such as Italy, France, and the United States) offer valuable lessons. Successful agritourism models focus on organic farming, ecotourism, and authentic farm experiences, while ensuring environmental sustainability. Such initiatives not only provide farmers with additional income but also help preserve traditional farming culture and biodiversity.*

Key words: *agro-industrial complex, agritourism, international practices, farms, environmental sustainability, agriculture, waste reduction, renewable energy.*

В Узбекистане агротуризм является новым и инновационным направлением развития. Крупные фермерские хозяйства и один из основных производителей сельскохозяйственной продукции. Сельскохозяйственные предприятия — это небольшие компании, занимающиеся производством сельскохозяйственной продукции и всеми другими видами сельскохозяйственного производства и смежными отраслями. Большая часть населения Узбекистана, около 50%, проживает в сельской местности, и около 23% занимаются сельским хозяйством как основным источником дохода (Статистика Узбекистана, 2020). Опыт развитых стран показывает, что агротуризм играет важную роль в диверсификации сельского хозяйства и устойчивом развитии сельских районов. Хотя в Узбекистане существуют

различные виды деятельности и ресурсы сельскохозяйственного сектора, которые можно использовать для агротуризма, он не получил должного развития по В Узбекистане лишь 0,11% фермерских хозяйств начали заниматься агротуризмом. сравнению с агротуризмом в других странах.

Актуальность развития агротуризма в Самарканде обусловлена рядом факторов. Во-первых, растущий интерес туристов всего мира к устойчивым и экологически чистым видам отдыха стимулирует поиск новых, аутентичных форм туризма, сочетающих возможность отдыха со знанием культуры и традиций местного населения. Во-вторых, развитие агротуризма в Самарканде может способствовать диверсификации экономики региона, созданию новых рабочих мест и повышению уровня жизни сельского населения. В-третьих, агротуризм вносит важный вклад в сохранение и восстановление природных ресурсов и биоразнообразия региона, а также его культурного наследия. Целью данной работы является изучение актуальности и перспектив развития агротуризма в Самарканде, анализ возможностей и проблем, с которыми может столкнуться регион при реализации данного направления, а также разработка рекомендаций по устойчивому развитию агротуризма как важный фактор. в экономическом росте и сохранении культурного и природного наследия Самарканда.

Обзор литературы включает в себя анализ научных исследований, статей, докладов и тематических исследований по развитию агротуризма, его влиянию на местную экономику, сохранению культурного и природного наследия, а также как особенности развития этой области в Самарканде и других регионах со схожими условиями. Статья написана на основе работ, определяющие агротуризм, его цели и функции. Такие авторы, как Tew и Barbieri (2012), рассматривают агротуризм как инструмент устойчивого развития сельских районов, который способствует экономическому росту и сохранению культурных традиций

Агротуризм -интеграция сельского хозяйства и туризма -является растущей нишей, которая поддерживает устойчивое развитие сельских районов. Страны с высокоразвитым сектором агротуризма (такие как Италия, Франция и США) предлагают ценные уроки. Успешные модели агротуризма ориентированы на органическое земледелие, экологический туризм и аутентичные впечатления от фермерских хозяйств, обеспечивая при этомэкологическую устойчивость. Такие инициативы не только обеспечивают фермерам дополнительный доход, но и помогогают сохранить традиционную культуру земледелия и биоразнообразие. Ниже мы проанализируем ведущие практики агротуризма, включая государственно-частное партнерство, стратегии повышения конкурентоспособности, стандарты качества услуг и меры по обеспечению устойчивости, чтобы вывести лучшие практики и рекомендации (с целью их адаптации в Узбекистане и других развивающихся странах).Помимо правовых рамок, агротуризм играет важнейшую роль в обеспечении устойчивого развития. Многие операторы

агротуризмаприменяют экологически ответственные методы,включая органическое земледелие, сокращение отходов и использованиевозобновляемых источников энергии

Сельское хозяйство в Узбекистане является основным источником средств к существованию сельского населения, и этому сектору необходимо уделять особое внимание налаживанию потенциальных связей с другими секторами экономики. В Узбекистане существует три типа сельскохозяйственных предприятий: дехканы, фермеры и сельскохозяйственные предприятия, каждое из которых является юридически оформленным хозяйством со своими особенностями функционирования. Агротуризм рассматривается как полезная альтернативная деятельность, способствующая росту доходов фермерских хозяйств и развитию сельских районов. Он неуклонно растет во всем мире и стал одним из наиболее значимых дополнительных источников дохода для фермеров. Во многих странах это не новая деятельность, она существует с начала XX века (Busby et al., 2000; Arroyo et al., 2013). В 2019 году объем агротуристической деятельности в мировой экономике составил 69,24 млрд долларов США (FBI, 2020). Агротуризм уже практикуется в таких странах, как Италия, США, Германия, Испания, Франция, Малайзия и Индия, и приносит много пользы сельским районам этих стран. Агротуризм стал альтернативной и важной частью сельскохозяйственного сектора и развития сельских районов в этих странах. Более того, считается, что агротуризм способствует устойчивому развитию, поскольку он диверсифицирует сельское хозяйство и в основном направлен на улучшение условий жизни сельского фермерского сообщества.

В современной интерпретации агротуризм связывают с устойчивым сельским хозяйством, фермерским туризмом и деревенским туризмом. Агротуризм включает в себя оказание разнообразных видов услуг, такие как посещение сельскохозяйственного музея и выставок, фермерских магазинов, пивоварни, кукурузных лабиринтов, организация национальных танцев на природе, велосипедных туров, наблюдение за птицами, срезание цветов, участие в конкурсах фермерской кулинарии, и прогулок по травам. Емкость рынка агротуризма оценивается в 42,4 млн долларов в 2019 году, к 2027 году при среднегодовом темпе роста в 13,4% ожидается его рост до 62,9 млн.долларов.

В Узбекистане наметился устойчивый тренд в росте доли туризма в ВВП страны (2,3 % в 2023 году), обусловленный повышением туристкой и инвестиционной привлекательности отрасли, ускорением развития внутреннего туризма. Узбекистан обладает уникальными туристскими достопримечательностями, представляет собой гармоничное сочетание природных, культурных аспектов. Причем предпочтения современного туриста значительно сместилось в сторону локальных путешествий, когда интерес вызывают популярные туристские объекты в главных дестинациях страны, а отдельные районы, поселения, где туристы могут познакомится с

уникальным местным колоритом, ремеслами, отдыхать в традиционных домах и наблюдать за бытом сельского населения.

Исследования в области традиционного агротуризма были посвящены в основном проблемам борьбы с бедностью, развитии сельских районов, однако из-за стремления фермеров захватить большие сегменты рынка замедлили темпы роста агротуризма. Концепция инноваций в агротуризме способствует устойчивому развитию сельских районов посредством модернизации сельскохозяйственных ферм, разработки оригинального туристского продукта в дестинации, интеграцию необходимых услуг и продвижение продукта.

Рассмотрим основные этапы трансформации сельскохозяйственной парадигмы в новую:

1) Местные предприниматели в области агротуризма по-прежнему не решаются обмениваться информацией, создавая определенные трудности при решении проблем. Низкая вовлеченность молодежи в сельское хозяйство из-за незаинтересованности старшего поколения, имеющего тяжелый опыт работы в сельском хозяйстве. Смена приоритетов в государственной политике, направленного в большей части на развитие реального сектора экономики.

2) Агротуризм является новой моделью развития сельскохозяйственного сектора, включающее расширение масштабов, интенсификацию, специализацию, индустриализацию. Кластеризация аграрного сектора приводит к падению количества фермерских хозяйств, что приводит к миграции рабочей силы в города, другие страны, резкое падение занятости в рамках этой модели. Наряду с этим, усиливается региональная дифференциация, напряженность в вопросах земледелия, сохранения окружающей среды и качества продукции. Интеграция различных ферм и различных видов деятельности имеет решающее значение для синергетического эффекта между местными и национальными экосистемами, включающие внедрение локализованных пищевых цепочек, конкретных социальных сетей, создание беспроигрышных ситуаций.

3) Развитие агротуризма является драйвером для агротуризма посредством вовлечения отдельных фермерских и дехканских домохозяйств в индустрию гостеприимства на основе установления новых коммуникаций между городом и селом, что соответственно обеспечит синергетический эффект;

4) Парадигма агротуризма определяется на уровнях взаимоотношений между обществом и сельским хозяйством, сельской местностью как четко определенное социальное и географическое пространство. В то время как фермерские организации борются за природные ресурсы, несельскохозяйственные землевладельцы, такие как сельские жители и дехкане, играют ключевую роль в управлении природой;

5) Различия в политике развития на национальном и региональном уровнях, включающее в себя новые практики, меры, связанные с

конкретными программами развития сельских районов. Каждая страна предлагает различные институциональные условия для производства, переработки и сбыта сельскохозяйственных товаров и услуг.

Новая парадигма предполагает сложную институциональную среду развития сельских территорий, децентрализованный подход в аграрной политике, в котором локальность и вновь возникающие отношения между местным и глобальным являются основными принципами проектирования.

Бизнес-парадигма – это набор переменных, которые существенно меняют видение по созданию ценности для комплексного принятия решений и достижения различных целей устойчивого развития, связанных с успехом и прибыльностью бизнеса. Туристическое поведение имеет сильную положительную связь с характеристиками предпринимателей в сфере агротуризма.

Цепочка создания стоимости – это инструмент, используемый для понимания связи между туризмом и сельским хозяйством для совместного развития фермеров. С этой целью было проведено исследование спроса туристов посредством онлайн анкетирования, предложение услуг агротуризма посредством структурированного интервью с предпринимателями агротуризма.

Анализ. Поведение туристов коррелирует с характеристиками предпринимателей в сфере агротуризма, влияя на процесс принятия решений фермерами. В ходе анализа выявлены основные наблюдаемые переменные, в том числе:

1) Активность. Большинство туристских дестинаций включают уникальные достопримечательности агротуризма, отражающие естественный образ жизни, быт местного населения. Агротуризм является альтернативной деятельностью, которая позволяет фермерам и дехканам получить дополнительный доход. Агротуристы имеют возможность наблюдать за жизнью аулов, кишлаков, что представляет собой познавательный туризм.

2) Размещение. В агротуризме большинство туристов предпочитают однодневные поездки, однако при ночевках туристы сталкиваются со стандартными проблемами, не удовлетворительное состояние мест проживания.

3) Аттракции. Туристы предпочитают агротуризм основываясь на ожиданиях и желании чувствовать себя ближе к природе, получение особого опыта, идентификации себя с местной культурой, сообществом, повышение информированности об ответственном туризма для поддержания культурной и экологической значимости туристических достопримечательностей.

4) Удобства. Туристы предъявляют требования к условиям комфортности по время поездок: уникальная еда, посещение знаковых мест, дополнительные услуги.

5) Доступ. Туристы выделяют среди основных требований доступ в объектам агротуризма, к которым можно отнести комфорт передвижения на личном и общественном транспорте, понятные указатели, наличие туристической информации об объекте на всевозможных носителях (веб сайты, контент, справочной бюро на местах, социальные сети, платформы, блоггеры, СМИ, брошюры, проспекты, баннеры).

Анализ туристского предложения.

1) Логистика и коммуникации. Предприниматели в сфере агротуризма для продвижения услуг использовали PR посредством социальных сетей, государственных учреждений для поддержки, рекламы. Новые цифровые и интернет-технологии могут улучшить логистические коммуникации в туристских дестинациях.

Таблица 1.

Переменная	**Рейтинг удовлетворенности туристов**			
	Среднее отклонение,x	**Стандартное отклонение,SD**	**Уровень**	**Рейтинг**
Активность	4,52	0,45	Очень доволен	1
Размещение	4,51	0.50	Очень доволен	2
Аттракции	4,4	0.47	доволен	3
удобства	4,3	0.46	доволен	4
доступность	4,16	0,6	доволен	5

2) Обслуживание туристов влияет на лояльность и важно для их более длительного удержания в дестинации посредством теплого приема, чувства заботы, совместных интерактивных мероприятий, где туристы могут непосредственно участвовать в агропроцессе (земледелии, уходе за растениями и животными, приготовлении пищи традиционными способами в тандыре, на костре);

3) Прогнозирование спроса. Предприниматели ожидают, что туристы, заинтересованные в агротуризме предпочитают менее людные и отделенные места, особенно после пандемии.

4) Управление запасами. Предприниматели формируют списки лучших продуктов для привлечения туристов, что удовлетворить их спрос.

5) Складирование и хранение. Предпринимателям необходимо наладить процесс хранения продуктов и материалов в течение длительного времени, в том числе на полях, которые невозможно обрабатывать ежегодно, заменяя его вахтовым сельскохозяйственным земледелием. Складирование и хранение услуг, а так же питьевой воды, продуктов питания влияют на выпуск добавленной стоимости и трудовые доходы от туризма;

6) Выбор места для склада. Управление агротуризмом включает в себя природные сельскохозяйственные источники в окрестностях и связано с другими туристическими достопримечательностями, включающие использование сельскохозяйственных угодий и открытых пространств.



Рисунок. 1. Парадигма инновационного агротуризма для достижения целей устойчивого развития

Выводы и предложения. Новая парадигма представляет собой качественный, инструментальный и статистически проверенный инструмент, который создает фермерам предпринимательские навыки и комплексные междисциплинарные знания. Цепочка создания стоимости включает в себя логистику и коммуникации, обслуживание клиентов, обработка заказов, прогнозирование спроса, закупки, управление запасами, управление транспортировкой, складирование и хранение, обратная логистика, выбор места для обслуживания, обработка ТМЗ. Когда фермеры занимаются агротуризмом управленческие решения должны учитывать предполагаемые риски, предполагаемые выгоды, возможность привлечения

молодежи в деревню, адаптацию бизнеса. На последнем этапе фермеры должны внедрять инновации в агротуризме на основе специфики местного сообщества, локации фермы. Для нашей страны можно рекомендовать следующие инновации туристские инновации: животноводческий туризм, рыболовные фермы, цветочный туризм, садовые инновации, горный туризм.

Агротуризм открывает фермерским хозяйствам возможности повышения доходов своих домохозяйств за счет создания стабильных рабочих мест и обеспечения устойчивости, получения непосредственного опыта от коммуникации с туристами.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акимова О.Е. Особенности мотивации предпринимательской деятельности в сфере туризма на сельских территориях /Электронный ресурс/: Региональная экономика:теория и практика.- 2-13.
2. Dashper K.Rural Tourism:An international Percpective.2014-421 p.
3. Бизнес в агро- и экотуризме: пособие / Под общ. ред. к.г.н., доц. А. И. Тарасенка. – Минск, 2014
4. Клицунова В.А. Стр. Агротуризм: учеб. -метод. пособие. – Минск: РИПО, 2014.
5. Lane B. Tourism strategies and rural development// Organization for economic co-operation and development.-1994.-N94 (49)/-94 p.
6. Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: 2013.248 с.;
7. Исраилова Г.Б., Голышева Е.В. Сельский туризм: от теории к практике: учебное пособие. – Ташкент. 2021, с.443.

Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna *– Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali*

TURIZM INDUSTRIYASIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda xizmatlar sifati, marketing strategiyalari, infratuzilma rivoji, investitsion muhit, klaster yondashuvi hamda raqamli transformatsiya omillari kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy turizm subyektlari o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish orqali xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari turizm industriyasining barqaror rivojlanishini ta’minlash va xalqaro bozorda milliy xizmatlar ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *turizm industriyasi, xizmatlar raqobatbardoshligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, klaster yondashuvi, raqamli transformatsiya, marketing strategiyasi, infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, servis sifati.*

Аннотация: *В статье исследуются вопросы совершенствования организационно-экономического механизма повышения конкурентоспособности услуг в*

индустрии туризма. В работе комплексно проанализированы факторы качества услуг, маркетинговые стратегии, развитие инфраструктуры, инвестиционная среда, кластерный подход и цифровая трансформация. Разработаны практические рекомендации по усилению кооперации субъектов туризма, развитию государственно-частного партнёрства и внедрению инновационных методов управления. Результаты исследования направлены на обеспечение устойчивого развития туристической отрасли и расширение позиций национальных услуг на международном рынке.

Ключевые слова: *индустрия туризма, конкурентоспособность услуг, организационно-экономический механизм, кластерный подход, цифровая трансформация, маркетинговая стратегия, инфраструктура, государственно-частное партнёрство, качество сервиса.*

Abstract: *This article examines the improvement of the organizational and economic mechanism for enhancing service competitiveness in the tourism industry. The study provides a comprehensive analysis of service quality factors, marketing strategies, infrastructure development, investment environment, cluster approach, and digital transformation. Practical recommendations are developed to strengthen cooperation among tourism entities, expand public-private partnerships, and implement innovative management systems. The research findings contribute to ensuring sustainable development of the tourism industry and increasing the share of national services in the international market.*

Keywords: *tourism industry, service competitiveness, organizational and economic mechanism, cluster approach, digital transformation, marketing strategy, infrastructure, public-private partnership, service quality.*

Kirish. Jahon iqtisodiyotida turizm industriyasi xizmatlar sohasining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, transport va kommunikatsiya infratuzilmasining takomillashuvi natijasida turizm bozori tobora raqobatbardosh muhitga aylanmoqda. Xususan, United Nations World Tourism Organization (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm ko‘plab davlatlarda yalpi ichki mahsulot, bandlik va eksport tushumlarining muhim manbai sifatida shakllangan.

Turizm industriyasida xizmatlarning raqobatbardoshligi nafaqat narx va sifat ko‘rsatkichlari bilan, balki servis darajasi, innovatsion yondashuvlar, marketing strategiyalari, logistika tizimi, inson kapitali va institutsional muhit bilan ham belgilanadi. Shu bois, xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida turizm industriyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tarixiy-madaniy meros, tabiiy resurslar va milliy an’analar turizm xizmatlarini kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi. Biroq mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun tizimli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm zarur.

Turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish masalasi iqtisodiyot, marketing, menejment va hududiy rivojlanish nazariyalari doirasida keng o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammo asosan xizmatlar sifati, innovatsion rivojlanish, marketing strategiyalari, klaster yondashuvi hamda institutsional mexanizmlar orqali tahlil qilinadi.

Turizm rivojlanishining makroiqtisodiy ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar United Nations World Tourism Organization (UN Tourism, sobiq UNWTO) hisobotlarida keng yoritilgan. Unga ko‘ra, turizm xizmatlari eksport daromadlari, bandlik va hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi. Hisobotlarda raqobatbardoshlik infratuzilma, xavfsizlik, narx siyosati va xizmat sifati bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Xizmatlar raqobatbardoshligi nazariyasining umumiy metodologik asoslari esa Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan “Milliy raqobat ustunligi” konsepsiyasida aks etadi. Porterning “raqobat ustunligi olmos modeli” turizm klasterlari shakllanishi va hududiy raqobatbardoshlikni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi.Turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing yondashuvlari alohida ahamiyatga ega. Philip Kotler xizmatlar marketingi nazariyasida mijoz qiymatini yaratish, differensiallash va brending strategiyalarini asoslab bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, xizmatlar bozorida barqaror ustunlik xizmat sifati va mijozlar qoniqishiga bog‘liq.

Xizmatlar sifatini o‘lchash masalasi esa Valarie Zeithaml va A. Parasuraman tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli orqali tadqiq etilgan. Ushbu model turizm xizmatlarida ishonchlilik, javobgarlik, empatiya va moddiy omillar kabi mezonlar asosida sifatni baholash imkonini beradi.

Turizm rivojlanishida davlat siyosati va institutsional muhit muhim omil hisoblanadi. World Travel & Tourism Council (WTTC) tadqiqotlarida turizm sektorida davlat-xususiy sheriklik, investitsion muhit va infratuzilma rivoji raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi.

Hududiy rivojlanish va klaster yondashuvi bo‘yicha ilmiy ishlarda turizmni klaster asosida tashkil etish xizmatlar integratsiyasini kuchaytirishi va qo‘shimcha qiymat yaratishi ta’kidlanadi. Bu yondashuv transport, mehmonxona, ovqatlanish, madaniy xizmatlar va axborot infratuzilmasini yagona tizim sifatida boshqarishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda turizm xizmatlarining raqobatbardoshligi raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Onlayn bronlash tizimlari, elektron marketing, sun’iy intellekt asosidagi tavsiyalar va “aqlli turizm” konsepsiyasi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Raqamli transformatsiya xarajatlarni kamaytirish, xizmat tezligini oshirish va mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqot doirasida turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kompleks tahlil qilindi. Tahlil jarayonida xizmat sifati, infratuzilma rivoji, marketing faoliyati, institutsional qo‘llab-quvvatlash va raqamli transformatsiya omillari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm xizmatlarida raqobatbardoshlik birinchi navbatda servis sifati bilan belgilanadi. Mehmonxona, transport, ekskursiya va ovqatlanish xizmatlarining integratsiyalashgan holda taklif etilishi mijozlar qoniqishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xizmat sifati ko‘rsatkichlari (ishonchlilik, tezkorlik, kommunikatsiya darajasi, xavfsizlik) yuqori bo‘lgan hududlarda

takroriy tashriflar soni ortadi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish madaniyati va xodimlar malakasining yetarli emasligi ayrim hududlarda raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, inson kapitaliga investitsiya kiritish tashkiliy mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Raqobat kuchaygan sharoitda turizm xizmatlarining bozordagi o‘rni marketing strategiyalariga bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli marketing vositalaridan (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn bronlash platformalari, SEO va kontent marketing) faol foydalanayotgan korxonalar mijozlar oqimini barqaror oshirishga erishmoqda. Hududiy brendni shakllantirish va yagona marketing siyosatini yuritish raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi. Aksincha, marketing faoliyatining tarqoq va tizimsiz olib borilishi xizmatlar samaradorligini pasaytiradi.Turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi (yo‘llar, transport, mehmonxonalar, axborot markazlari) xizmatlar sifati va narx raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, infratuzilmasi rivojlangan hududlarda xizmatlar tannarxi optimallashtiriladi va qo‘shimcha xizmatlar ko‘lami kengayadi. Investitsiya oqimining yetarli emasligi, ayniqsa, hududiy turizm obyektlarida xizmatlar diversifikatsiyasini cheklaydi. Shu bois davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim natija berishi mumkin.

Tahlil natijalari turizm industriyasida samarali boshqaruv va muvofiqlashtirish tizimi muhimligini ko‘rsatdi. Turizm subyektlari o‘rtasida kooperatsiyaning past darajasi xizmatlarning integratsiyalashgan holda taklif etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Klaster yondashuvi asosida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xizmatlar zanjirini birlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Bunday model hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda samarali vosita sifatida baholandi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etgan turizm korxonalarida operatsion xarajatlar qisqarishi, xizmat tezligi oshishi va mijozlar bilan aloqaning mustahkamlanishi kuzatildi. Onlayn rezervatsiya tizimlari va elektron to‘lov mexanizmlarining keng qo‘llanilishi xizmatlar shaffofligini ta’minlaydi va ishonch darajasini oshiradi. Shu bilan birga, kichik turizm subyektlarida raqamli savodxonlik darajasining pastligi transformatsiya jarayonini sekinlashtiruvchi omil sifatida aniqlandi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish ko‘p omilli va tizimli yondashuvni talab etadigan murakkab jarayondir. Raqobatbardoshlik faqat narx omiliga emas, balki xizmat sifati, infratuzilma rivoji, marketing samaradorligi, innovatsiyalar, inson kapitali va institutsional muhitga ham bevosita bog‘liq. Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Turizm xizmatlarining raqobatbardoshligi integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi mavjud bo‘lgandagina barqaror ta’minlanadi. Xizmat sifati va servis madaniyati mijozlar qoniqishining asosiy determinantidir. Hududiy klasterlashuv va kooperatsiya modeli turizm xizmatlarining qo‘shimcha qiymatini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar xizmatlar tezkorligi, shaffofligi va

samaradorligini oshiradi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari investitsiya faolligini rag‘batlantiradi va infratuzilma rivojini tezlashtiradi.

Shuningdek, xalqaro tajribalar (World Travel & Tourism Council va United Nations World Tourism Organization tavsiyalari) shuni tasdiqlaydiki, raqobatbardoshlikni oshirishda strategik rejalashtirish, sifat menejmenti va raqamli transformatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha quyidagi tashkiliy-iqtisodiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tashkiliy takliflar: hududiy turizm klasterlarini shakllantirish va yagona boshqaruv markazlarini tashkil etish, turizm subyektlari o‘rtasida kooperatsiya va integratsiyani kuchaytirish, xizmat ko‘rsatish standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish va kadrlar malakasini oshirish va servis madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha doimiy trening tizimini joriy etish.

2. Iqtisodiy jihatdan takliflar: turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik turizm loyihalarini amalga oshirish, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish va turizm korxonalarida xarajatlarni optimallashtirish va samarali moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etish.

3. Marketing va innovatsion takliflar: hududiy va milliy turizm brendini shakllantirish va faol targ‘ib qilish, raqamli marketing vositalaridan (onlayn platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt) keng foydalanish, “Aqlli turizm” (Smart tourism) konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish va mijozlar fikr-mulohazalarini doimiy monitoring qilish tizimini yaratish.

Turizm industriyasida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlash, bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Kompleks va tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan mexanizm uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyeva Umidaxon O‘rol Qizi Turizm xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro tajriba. (krouch va ritchi modeli misolida) // YOTA. 2024. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-xizmatlarining-sifati-va-raqobatbardoshligini-oshirishda-xalqaro-tajriba-krouch-va-ritchi-modeli-misolida

2. Teshabaeva Odina Nasridinovna Turizm sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish va strategik yondashuvlar // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sanoatida-raqobatbardoshlikni-oshirish-va-strategik-yondashuvlar

3. Sodiqova N.T. (2025). Ways to enhance company competitiveness. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 145-150.

4. Sodiqova, N. (2024). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion siyosat va uning shakllanish xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(6).

IV SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MARKETING VA MENEJMENT IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Алиев Козимали Носиралиевич *– директор фармацевтической компании ООО “IBRAHIM PHARMA SERVICE”*

MEDICAL EDUCATION AS A TOOL FOR IMPROVING MARKETING AND MANAGEMENT CAPABILITIES IN THE PHARMACEUTICAL SERVICE SECTOR TO ENSURE SUSTAINABLE REGIONAL ECONOMIC GROWTH BASED ON THE PRINCIPLES OF GREEN AND INNOVATIVE ECONOMY

Abstract:*This article looks at how medical education may be used as a tool for professional growth as well as a useful marketing and management tool in the pharmaceutical service industry. The study analyzes Uzbekistan's regional development, investigating how educational programs based on the tenets of a green and creative economy foster sustainable economic growth.*

The study shows that structured and systematic educational engagement with healthcare professionals greatly improves marketing skills, management performance, sales volumes, and market share. It does this through the use of analytical, comparative, and survey-based methods. Also, these kinds of programs are good for public health because they encourage responsible drug use and decision-making based on facts.

The results show that educational marketing is more than just a way to promote something; it is a long-term, innovative strategy that may create value in the service sector.

Key words: *Uzbekistan, medical education, pharmaceutical marketing, management skills, the service sector, sustainable development, the green economy, and the innovative economy.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston hududlarida yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida farmatsevtika xizmatlari sohasini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda tibbiy ta’limning marketing va boshqaruv vositasi sifatidagi ahamiyati yoritilgan.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tizimli va maqsadli tashkil etilgan tibbiy ta’lim dasturlari marketing salohiyatini oshiradi, boshqaruv samaradorligini kuchaytiradi, sotuvlar hajmi va bozor ulushining o‘sishiga xizmat qiladi hamda aholining farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu tariqa, tibbiy ta’lim farmatsevtika sohasida nafaqat bilim berish vositasi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlovchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy ta’lim, farmatsevtika marketingi, boshqaruv salohiyati, xizmatlar sohasi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot.*

Аннотация: *В статье медицинское образование рассматривается не только как форма профессионального развития, но и как стратегический инструмент повышения маркетинговых и управленческих возможностей фармацевтических компаний. Особое внимание уделяется его роли в обеспечении устойчивого экономического роста регионов Узбекистана в условиях перехода к зеленой и инновационной экономике.*

Показано, что системные образовательные программы способствуют укреплению доверия между фармацевтическими компаниями и медицинскими специалистами, росту продаж, расширению рыночной доли и повышению эффективности управления. Кроме того, образовательный подход содействует рациональной фармакотерапии и улучшению показателей общественного здоровья.

Таким образом, медицинское образование выступает как устойчивый стратегический механизм развития фармацевтического сектора.

Ключевые слова: *медицинское образование, фармацевтический маркетинг, управленческие возможности, устойчивое развитие, зеленая экономика, инновационная экономика.*

Introduction.

The service sector's long-term expansion is one of the most crucial factors for the economy to be stable and for the region to stay competitive. More over 40% of Uzbekistan's GDP comes from the service industry, and healthcare and pharmaceutical services are still rising significantly. This growth is being driven by changes in the population, improvements to healthcare facilities, and policies aimed at increasing local pharmaceutical production.
In these cases, drug companies need to put a lot of effort into improving their marketing and management skills. Old ways of advertising things are slowly being replaced by knowledge-based and relationship-based methods. One of the best ways to make this shift happen is through medical education.

Literature Review.

Current research underscores the significance of knowledge-based marketing, relationship marketing, and sustainable management as fundamental sources of competitive advantage. Researchers say that getting involved in education makes it easier to share information, builds trust, and creates long-term collaborations.
Medical education is becoming more and more recognized as a value-based and socially responsible marketing strategy in the pharmaceutical industry, where ethical standards and professional reputation are very important. It changes the focus from direct advertising to expert help and sharing of information.

Results and Discussion.

The study demonstrates that pharmaceutical companies who employ structured medical education programs attain: • more loyalty to the brand, • better communication with health care professionals, Having a stronger position in the market, • better planning of strategies and use of resources. Educational marketing helps managers work more efficiently by making it easier to make decisions based on data, improved forecasts, and organized segmentation. Digital technologies like online meetings, CRM systems,

and targeted training platforms also make it easier to scale up and accept new ideas.

Green and Innovative Economy Perspective

The concepts of the green economy are very similar to those of medical education. It helps cut down on unnecessary drug use and waste of medical resources by encouraging sensible pharmacotherapy and evidence-based prescribing.

From the point of view of the innovative economy, digital learning systems, online CME programs, CRM integration, and analytical targeting mechanisms show how knowledge-based initiatives can give a business a long-term lead over its competitors.

Regional Economic Impact.

Better marketing and management skills make drugs more available, make treatments better, and improve public health indicators. Because of this, medical education indirectly helps the economy and social welfare in the area. Better healthcare services have a multiplier effect on the economy, which makes educational marketing in the pharmaceutical service sector even more important.

Scientific-Theoretical Proposals.

1. Think of medical education as a part of a larger marketing strategy for the pharmaceutical service sector.

2. Create long-lasting success measures that take into account both marketing effectiveness and green economic standards.

3. Broaden theoretical frameworks that connect educational marketing to regional economic advancement.

4. Practical Recommendations

1. Make systematic CME-based marketing initiatives a part of your business.

2. Create digital instructional platforms for doctors on a nationwide level.

3. Make it easier for pharmaceutical corporations and higher medical education institutes to work together.

Conclusion

Medical education is a long-term and strategic way to improve marketing and managerial skills in Uzbekistan's pharmaceutical service sector. Its inclusion in larger development plans encourages new ideas, ethical promotion, appropriate drug therapy, and long-term economic prosperity in the region.

References:

1. World Bank. (2023). World Development Indicators.
2. Kotler, P., & Keller, K. (2016). Marketing Management.
3. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations.

N.I.Shermamatova *– tayanch doktorant, “Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand*

MEHMONXONA XIZMATLARIDA KADRLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mehmonxona xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirishga asoslangan yondashuv doirasida mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasi foydalanish. Shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirishda e’tiborga olish zarur bo‘lgan tamoyillari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehmonxona xizmatlari, kadrlarni boshqarish, boshqaruv samaradorligi, motivatsiya tizimi, boshqaruv madaniyati, sotsiologik so‘rovnoma.*

Аннотация. *В данной статье представлена методология оценки эффективности управления человеческими ресурсами в гостиничном бизнесе в рамках подхода, основанного на повышении эффективности деятельности гостиничных предприятий. Также изложены принципы, которые следует учитывать при развитии человеческого потенциала.*

Ключевые слова: *Гостиничный бизнес, управление человеческими ресурсами, эффективность управления, система мотивации, культура управления, социологический опросник.*

Abstract. *This article presents the methodology for assessing the effectiveness of human resource management in hotel services within the framework of an approach based on improving the efficiency of hotel business activities. It also presents the principles that should be taken into account when developing human resource potential.*

Keywords. *Hotel services, human resource management, management efficiency, motivation system, management culture, sociological questionnaire.*

Kirish. Mehmonxona xizmatlarida kadrlar boshqaruvi samaradorligini baholash metodologiyasi mutaxassis xodimlardan so‘rovnoma o‘tkazishni, sotsiologik ma’lumotlarni olish, tahlil qilish va ularning integrallashgan ko‘rsatkichlarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligini baholash algoritmi o‘z ichiga to‘rt bosqichni qamrab oladi (3.1-rasm).

1-bosqichda mehmonxona xodimlari yoki maxsus konsalting firmalari tomonidan mehmonxona xodimlarini o‘rganish rejalashtiriladi va maxsus ishchi guruh tuziladi. Mehmonxona xodimlarini o‘rganish rejasi va dasturi ishlab chiqiladi, xususan: maqsadlar, vazifalar, yondashuvlar va usullarni belgilash, shuningdek, tadqiqotning formati va vaqtini belgilashga qaratilgan. Xodimlar xulq-atvorini boshqarish samaradorligini baholash uchun 2 ta so‘rovnoma tavsiya etiladi. 1-so‘rovnoma o‘rganilgan ko‘rsatkichlarning boshqaruv samaradorligining umumiy darajasiga qo‘shgan hissasini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘ladi. 2-so‘rovnoma mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligining individual xususiyatlarining rivojlanish darajalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.



3.1-rasm – Mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligi darajasini baholash metodologiyasi algoritmi

2-bosqichda mehmonxona xodimlari haqida ma’lumot to‘planadi. Mehmonxona xodimlaridan so‘rovnoma o’tkazish jarayonida ikkita maqsadga erishiladi. Birinchidan, menejerlar xodimlar xulq-atvori samaradorligining umumiy darajasini aniqlash uchun 1-so‘rovnomada eng muhim xususiyatlarni aniqlashlari kerak. Har bir xususiyatga daraja beriladi. 1-daraja eng afzal ko‘rilgan xususiyatga, 2-daraja keyingi eng yuqoriga va hokazolarga beriladi. Ikkinchidan, 2-so‘rovnomaga ko‘ra, respondentlar individual motivatsion xususiyatlar, mehmonxona madaniyati hamda xodimning shaxsiy va professional fazilatlarining rivojlanish darajalarini ko‘rsatishlari kerak.

3-bosqichda to‘plangan ma’lumotlar qayta ishlanadi. So‘rovnomalarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, mehmonxona xizmatlarida kadrlar boshqaruv samaradorligining oraliq, o‘ziga xos va integral ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

4-bosqichda yuqorida hisoblangan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va sintez qilish natijasida mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish chiqiladi. Tadqiqot obyektining alohida qismlari – mehmonxona kadrlarini boshqarish – ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalarni birlashtirish (sintez) tahlildan so‘ng tadqiqot

obyektining yaxlitligini tiklaydi, uning tuzilishi va yaxlitligini chuqurroq tushunishni ta’minlaydi. Sintez o‘rganilayotgan obyektning ma’lum xususiyatlarini umumlashtirish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning daromadlilik darajasini pasaytiradi, kapital barqarorligini zaiflashtiradi hamda likvidlik bilan bog‘liq xatarlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni faqat qarzdorlikni undirish choralarini qo‘llash bilan cheklanib qolmasligi, balki ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash, chuqur tahlil qilish va oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvni o‘z ichiga olishi lozim. Ayniqsa, riskka asoslangan boshqaruv modeli kredit faoliyatida ehtimoliy xatarlarni oldindan baholash, ularni minimallashtirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishi bank ichki faoliyati bilan bog‘liq omillar hamda tashqi iqtisodiy muhit ta’siri natijasida shakllanadi. Ichki omillar qatoriga kredit siyosatining yetarli darajada puxta ishlab chiqilmaganligi, qarz oluvchilarning to‘lovga layoqatini baholash jarayonida risk tahlilining yetarli darajada amalga oshirilmasligi, kreditlar monitoringi tizimining samarali ishlamasligi hamda bank va qarz oluvchi o‘rtasida axborot nomutanosibligining mavjudligi kiradi. Shu bilan birga, tashqi omillar ham muammoli kreditlar hajmiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikning buzilishi, inflyatsiya darajasining oshishi, foiz stavkalarining keskin o‘zgarishi, real sektor korxonalarining moliyaviy holatining yomonlashuvi hamda tashqi iqtisodiy beqarorlik kabi omillar kreditlarning o‘z vaqtida qaytmaslik xavfini oshiradi. Mazkur omillarning kompleks ta’siri natijasida bank kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi ortib boradi va bu holat kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarishda kredit risklarini baholash mexanizmlarining to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit risklarini aniqlash va baholash jarayonida zamonaviy moliyaviy vositalar, jumladan, ichki reyting tizimlari, kredit skoring modellari hamda stress-testlash usullaridan foydalanish banklarga kredit portfelining holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar yordamida kredit portfelidagi yuqori riskka ega bo‘lgan segmentlar aniqlanadi va ehtimoliy yo‘qotishlarning oldini olishga qaratilgan zarur choralar ishlab chiqiladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, kredit risklarini yetarli darajada baholamagan banklarda muammoli kreditlar ulushi yuqori bo‘lib, bu holat bank aktivlari sifatining yomonlashishiga va moliyaviy yo‘qotishlarning ortishiga olib keladi. Shu bois kredit risklarini baholashning riskka asoslangan mexanizmlarini takomillashtirish bank risk-menejment tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli kreditlar bilan ishlashda kredit monitoringi tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Kredit monitoringining samarali tashkil etilishi qarz oluvchilarning moliyaviy holatidagi salbiy tendensiyalarni dastlabki bosqichlarda aniqlash imkonini beradi. Monitoring jarayonida qarz oluvchining to‘lov intizomi, pul oqimlarining barqarorligi, kredit shartnomasi talablariga rioya etilishi hamda xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv banklarga kredit riskining oshish ehtimolini oldindan baholash va tegishli boshqaruv choralarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu

bilan birga, riskka asoslangan monitoring tizimi kredit portfelini risk darajasiga qarab guruhlash orqali nazorat resurslarini samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Natijada bank kredit portfelining sifati yaxshilanadi, muammoli kreditlar ulushi kamayadi va bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotida restrukturizatsiya mexanizmi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Restrukturizatsiya jarayoni qarz oluvchining mavjud moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini inobatga olgan holda kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish, jumladan, to‘lov muddatlarini uzaytirish, foiz stavkalarini qayta belgilash yoki qarzni qaytarish jadvalini moslashtirishni nazarda tutadi. Ilmiy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jihatdan asoslangan va puxta rejalashtirilgan restrukturizatsiya choralari kreditlarning to‘liq yo‘qotishga aylanishining oldini olishga yordam beradi hamda banklarning moliyaviy zararlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, restrukturizatsiya mexanizmlarini asossiz yoki yetarli tahlilsiz qo‘llash qarz oluvchilarning moliyaviy intizomiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli restrukturizatsiya jarayonlarini amalga oshirishda risk darajasiga asoslangan aniq mezonlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Muammoli kreditlarni undirish jarayonini tashkil etish ham riskga asoslangan boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kreditlarni undirishda faqat majburiy choralarni qo‘llash bilan cheklanib qolmasdan, balki qarz oluvchi bilan muzokaralar olib borish, qarzni qayta kelishish, aktivlarni samarali boshqarish hamda muqobil yechimlardan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, undirish strategiyasini qarz oluvchining moliyaviy holati va risk darajasiga mos ravishda ishlab chiqish banklarning ehtimoliy yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa muammoli kreditlar bilan ishlashda differensial va individual yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish tizimini takomillashtirish riskga asoslangan boshqaruv tamoyillarini kompleks ravishda joriy etishni talab etadi. Kredit risklarini o‘z vaqtida aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, muntazam monitoring qilish hamda mos boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash bank aktivlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tahlillar natijalari riskga asoslangan yondashuv muammoli kreditlarni boshqarishda eng samarali usullardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Ushbu yondashuv banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam asos yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kredit resurslaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiyotning real sektorini barqaror moliyalashtirish nuqtayi nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega. Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning daromadlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etish bilan bir qatorda, butun moliya tizimi barqarorligiga ham xavf tug‘diradi.

Xususan, makroiqtisodiy beqarorlik, qarz oluvchilarning moliyaviy holatining yomonlashuvi hamda kredit risklarini yetarli darajada baholash mexanizmlarining takomillashmaganligi muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo‘layotgan omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, muammoli kreditlarni boshqarishda riskga asoslangan yondashuvni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv banklarga kredit risklarini dastlabki bosqichlarda aniqlash, ularni kompleks baholash va ehtimoliy yo‘qotishlarning oldini olish imkonini yaratadi. Natijada kredit portfelining sifati yaxshilanadi, moliyaviy yo‘qotishlar kamayadi va bank kapitalining barqarorligi mustahkamlanadi. Bundan tashqari, riskka asoslangan boshqaruv tizimining joriy etilishi kreditlash jarayonida asosli va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi hamda tijorat banklarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun mustahkam asos yaratadi.

Bank tizimini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tijorat banklarida kredit risklarini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Qarz oluvchilarning kreditga layoqatini baholash jarayonida faqat ularning avvalgi moliyaviy ko‘rsatkichlariga tayanib qolmasdan, balki kelgusidagi pul oqimlari barqarorligi, biznes modelining samaradorligi va bozor sharoitlarining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv kredit risklarini yanada aniqroq baholash va ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar bilan ishlash jarayonida restrukturizatsiya va undirish mexanizmlarini qarz oluvchining real moliyaviy holati hamda risk darajasini hisobga olgan holda individual yondashuv asosida amalga oshirish banklar uchun yanada samarali natijalarni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, banklarning ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, risk-menejment tizimining samaradorligini oshirish, ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli yechimlar va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlaridan foydalanish kredit portfelining holatini real vaqt rejimida monitoring qilish, risklarni tezkor aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, muammoli kreditlarni boshqarish tizimini riskka asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish tijorat banklarining kredit faoliyatini yanada barqaror, shaffof va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bank aktivlari sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kredit resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash bilan bir qatorda, iqtisodiyotning real sektorini barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Hull J. Risk Management and Financial Institutions. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2018. – 760 p.
2. Jorion P. Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. – New York: McGraw-Hill, 2007. – 592 p.

Shirin Usmonova *– tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,*

Zarif Axrorov *– kafedra mudiri, i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH VA ELEKTRON BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*: Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari, zamonaviy IT-texnologiyalarning (Big Data, bulutli texnologiyalar, blockchain, mobil banking va boshqalar) joriy etilishi hamda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, bank xizmatlarini raqamlashtirishning raqobatbardoshlikka, komission daromadlar hajmiga va mijozlar bazasining kengayishiga ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Raqamli transformatsiya, tijorat banklari, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, internet banking.*

Аннотация*: В данной статье анализируются процессы цифровой трансформации в деятельности коммерческих банков, внедрение современных IT-технологий (Big Data, облачные технологии, blockchain, мобильный банкинг и др.), а также тенденции развития дистанционных банковских услуг. Кроме того, освещено влияние цифровизации банковских услуг на конкурентоспособность банков, объем комиссионных доходов и расширение клиентской базы.*

Ключевые слова*: цифровая трансформация, коммерческие банки, дистанционные банковские услуги, мобильный банкинг, интернет-банкинг.*

Abstract*: This article analyzes the processes of digital transformation in commercial banks, the implementation of modern IT technologies (Big Data, cloud technologies, blockchain, mobile banking, etc.), and the development trends of remote banking services. It also highlights the impact of digitalization of banking services on competitiveness, commission income, and the expansion of the customer base.*

Keywords*: digital transformation, commercial banks, remote banking services, mobile banking, internet banking.*

Raqamli transformatsiya bank xizmatlarini ko‘rsatishning yangi usullarini joriy qilinishini nazarda tutadi. Banklar filiallari soni kamayadi, ko‘plab xizmatlar onlayn usuliga o‘tkaziladi. Hozirgi paytda banklar uchun raqamlashtirish shunchaki rivojlanishning bir yo‘li emas, balki chetlab o‘tib bo‘lmaydigan bir jarayon bo‘lib qoldi, chunki bugungi kunda iqtisodiyotning har bir tarmog‘i raqamlashtirilmoqda, banklar bundan mustasno emas. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mobil banking onlayn bankingga qaraganda ikki barobar tez rivojlanayapti.

Jahon iqtisodiyotida tijorat banklari faoliyatida oxirgi 10 yilda quyidagi IT-texnologiyalari rivojlanmoqda:

1. Big Data (Katta ma’lumotlar) texnologiyalarining rivojlanishi qarz oluvchining arizasini tez muddatlarda ko‘rib chiqish va mijozning to‘lovga layoqatliligini tahlil qilishda vaqtni sezilarli darajada tejashga erishadi. Tijorat banklari plastik kartalar bilan amalga oshiriladigan har xil noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish hamda mijozlar bilan ishlashda risk-menejmentni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ushbu texnologiyalarni rivojlantirishdan manfaatdor.
2. Bulutli texnologiyalar (Cloud computing) kiruvchi ma’lumotlarni qayta ishlash va tasniflash instrumenti bo‘lib hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar rasmiy dasturiy ta’minot, litsenziyalangan texnik vositalarni o‘z ichiga oladi.
3. Moddiy predmetlar hisoblash tarmog‘ida Internet predmetlarning paydo bo‘lishi yangilik bo‘lib hisoblanadi (masalan, smart watches). Bu yangilik bank ishtirokilariga o‘z mijozlarining talablarini o‘rganib, shundan kelib chiqqan holda ularga alohida xizmatlar taklif qilish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida bankning brendini ko‘tarishga, mijozlarning bankka sodiq qolishlariga olib keladi.
4. BlockChain texnologiyalari raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lib hisoblanadi, uning bazasida virtual pul birligi Bitcoin qurilgan. BlockChainning kiritilishi bir tomondan, virtual valyutalarning ishonchliligini davlat darajasida oshirilishini ko‘zda tutsa, ikkinchi tomondan, markazlashmagan kriptomamlakat g‘oyasini ilgari suradi.
5. Elektron to‘lov tizimlari, mobil ilovalar va elektron hamyonlar aholi turmush tarzida ommalashib bormoqda. Ushbu tizimlarning yaxshi ishlashi tijorat bankining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.
6. Agile-technologies mohiyati interaktiv qurilmalarni ishlatishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minotni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Har bir bosqichda yangi dasturiy ta’minotga oid mahsulot testdan o‘tkaziladi, keyinchalik mijozlar talabidan kelib chiqib mikrodarajada va mamlakat joriy holatidan kelib chiqib makrodarajada moslashtiriladi. Agiletechnologies tijorat banklariga joriy qilinishi bankning raqobatbardoshligini saqlashga, yangi mahsulotlarni amaliyotga o‘z vaqtida joriy qilishga yordam beradi [2].

Raqamli transformatsiya yuzaga kelishining uch asosiy tashqi omillarini sanab o‘tish mumkin:

1. Internet paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan raqamli texnologiyalar (smartfon, bulutli texnologiya, onlayn to‘lov tizimlari, kriptovalyuta).
2. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan elektron tijoratda kuchli raqobatning yuzaga kelishi. Facebook, Apple, Amazon, Netflix and Google kabi raqamli texnologiyalarga asoslangan kompaniyalarning daromadi juda keskin oshib ketishi buning isbotidir.
3. Bank mijozlarining xohishlari moliyaviy tashkilotlarning raqamli transformatsiyasiga muvofiq ravishda o‘zgardi. Bugungi kunda mijozlar raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yanada kengroq axborotga ega bo‘lmoqdalar va tanlash imkoniyati kengaydi. Agar moliyaviy tashkilotlar va

banklar xaridorlarning talablariga o‘z vaqtida javob bera olmasa, o‘z mijozlarini yo‘qotib qo‘yishadi [1].

Bank faoliyatda operatsiyalardan olingan komission daromadlar ulushi va mutlaq soni, shuningdek xizmatlardan foydalanadigan faol mijozlar soni menejerlar faoliyatining samardorlik ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilinadi. Internet-bankingni joriy etish va uni amalga oshiruvchi jamoani tashkil etish uchun loyiha xarajatlari odatda yangi formatdagi mijozlarga xizmat ko‘rsatishdan olingan komission daromad hisobiga qoplanmagan. Chunki mijozlar dastlab taqdim etilayotgan qulayliklarga ehtiyotkorlik bilan qarashdi va faol mijozlar soni sekin ortdi. Biroq bir necha yil o‘tib vaziyat o‘zgardi va mijozlar yuqori sifatli internet xizmatlariga ko‘proq e’tibor berishi ma’lum bo‘ldi.

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- faol mijozlar soni (faol mijoz sifatida, odatda, bank xizmatidan bir chorakda kamida bir marta foydalangan –bitim tuzgan mijoz olinadi);
- masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning bankning umumiy mijozlar soniagi ulushi);
- masofaviy xizmatlardan olingan komission daromad.

Bank tizimi ko‘p hollarda konservativ tizim bo‘lib kelgan, bu tizimga kirish uchun nobank raqobatchilar uchun yuqori to‘siqlar mavjud bo‘lgan. Ammo bulutli, mobil, ijtimoiy va analitik texnologiyalarga asoslangan raqamli texnologiyalar bu to‘siqlarni ancha kamaytirishga erishdi. Bank tizimida innovatsiyalarni kuchaytirish maqsadida ko‘plab mamlakatlarning tartibga soluvchi organlari tizimda faoliyat olib borish uchun yengilliklarni joriy qilishdi. Natijada eski tizimdan farqli o‘laroq, to‘liq raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy tashkilotlar mijozlarning talablarini yangi va murakkab usullarda zudlik bilan qondirib, mijozlarini o‘zlariga qaratmoqdalar. Bularga misol qilib, elektron tijoratning yetakchilari – Yevropadagi Tesco, Osiyo-Tinch okeani hududida Rakuten va AQShda Walmart bank tizimiga kirib keldi. Hozirgi paytda dunyo bo‘ylab tadbirkorlar, hatto an’anaviy banklarning o‘zlari ham to‘liq raqamli bank yoki neobanklar tashkil qilishmoqda. BankMobile, Number 26, Atom, ZenBanx and NuBank kabilar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu neobanklarning umumlashtirib turuvchi yagona jihati ularning taklif qilayotgan xizmatlari raqamli texnologiyalarga asoslanganligidir [2].

2010-yillarning boshlarida jahonda moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida raqobatlashish uchun shunchaki internet saytlari, internet-banking va bankomatlar tizimining mavjudligi yetarli emasligi aniq bo‘ldi va bank faoliyati amaliyotida raqamli strategiya yoki masofaviy kanallarni rivojlantirish strategiyasi atamalari keng qo‘llana boshlandi.

An’anaviy yondashuv bo‘yicha “Masofaviy bank xizmatlari” strategiyasi – bu bankning umumiy strategiyasida internet bank va bankomatlar tarmog‘iga xizmat ko‘rsatish va sotish uchun “muqobil” (filiallar tarmog‘iga nisbatan) kanal joyi berilgan bo‘lim hisoblaandi.

Bugungi kunda “masofaviy bank xizmatlari” strategiyasi iborasi o‘rniga “bankning elektron biznes strategiyasi” iborasi ko‘proq ishlatilmoqda. Ilgari bu jarayonlarning texnik va ekpluatatsion mohiyati, jumladan muntazam operatsiyalarni bajarish, xizmat funksionalligini oshirish, mobil ilova ishlab chiqish va h.k.lar haqida ko‘proq gap ketar edi. Masofaviy bank xizmatlari ko‘pincha oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxona yoki savdo tarmog‘iga tegishli edi. Endilikda marketing birinchi o‘ringa chiqmoqda, onlayn marketing yordamida tarmoq orqali mijozlarni jalb etish, internet-banking va mobil ilovalar orqali bank mahsulotlarini sotish va xizmat ko‘rsatish, mijozlarga messenjerlar, e-mail, sms, ijtimoiy tarmoqlar orqali xizmat ko‘rsatish va ular bilan aloqa o‘rnatish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiyaning asosiy jihatlari mijozlarning maqsadli segmentlari, bank resurslarini internetda, e-mail- va sms-aksiyalarda harakatlantirish vositalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Veb-saytlar, internet-banking, mobil ilovalar va bugungi kunda juda rivojlangan messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar, e-mail- va sms-aksiyalar mijoz bilan o‘zaro munosabatlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan holda mijozlarni jalb qilish hamda mahsulot va xizmatlarni sotish vositalarining to‘plamiga aylanmoqda. Elektron biznes bo‘linmalari bank tarkibida mustaqil byudjetga ega bo‘lgan blok va bo‘linmalarga ajratilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Peter C. Verhoef, et al., “Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda” Published in Journal of Business Research, November 2019.

2 Sharipova, N. (2020) The process of digital transformation in the activities of commercial banks and prospects for its application in uzbekistan, International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 3, Article 10. https://uzjournals.edu.uz/interfnance/vol2020/iss3/10.

***F.O.O‘roqov** – SamISI mustaqil izlanuvchisi*

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun qay darajada ahamiyatli ekanligi, shuningdek, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishdagi o‘rni to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *moliyalashtirish strategiyasi, davlat budjeti, tibbiy yordam hajmi, tibbiy xizmatlar sifati, litsenziya, tibbiy xizmatlar samaradorliligi, moliyalashtirish tizimi.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается об изменениях, происходящих в сфере финансирования системы здравоохранения в нашей стране в последние годы, о том, насколько они важны для экономики нашей страны, а также об их роли в повышении уровня жизни и благосостояния населения. - состав населения.*

Ключевые слова: *стратегия финансирования, государственный бюджет, объем медицинской помощи, качество медицинских услуг, лицензия, эффективность медицинских услуг, система финансирования.*

Abstract: *This article talks about the changes that have been taking place in the field of financing the healthcare system in our country in recent years, how important they are for the economy of our country, as well as their role in improving the standard of living and well-being of the population.*

Keywords: *financing strategy, state budget, volume of medical care, quality of medical services, license, effectiveness of medical services, financing system.*

2021-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish strategiyasi tasdiqlanadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish va tibbiy yordam ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasida belgilangan[26].

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida joylashtirilgan qaror loyihasida tibbiy yordam ko‘rsatish uchun Davlat byudjeti va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag‘larni jamlash, boshqarish va maqsadli sarflash funksiyalarini amalga oshiruvchi Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda shakllantirilgan:

- 2021 yil 1 yanvardan boshlab byudjet hisobidan saqlanadigan koykalar fondi buyurtma asosida moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;
- 2021–2022 yillarda mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga qayta tashkil etilgan holda, davlat ulushlari auksion savdolari orqali xususiy investorlarga tibbiy faoliyatni amalga oshirish sharti bilan sotiladigan tibbiyot muassasalari;
- 2021–2023 yillarda tibbiy faoliyatni amalga oshirish yoki uni tashkil etish sohasida amaliy tajribaga ega tadbirkorlik sub’ektlariga davlat-xususiy sheriklik asosida ishonchli boshqaruvga beriladigan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari ma’qullanadi.

Belgilanishicha, davlat mulki ob’ektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar, istisno tariqasida, qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi byudjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasiga qoldiriladigan mablag‘lar, shuningdek, baholovchi tashkilot va savdo tashkilotchisi xizmatlari uchun xarajatlar chegirilgan holda, Sog‘liqni saqlash vazirligining Rivojlantirish va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun maqsadli sarflanadi.

Ushbu band bilan bog‘liq chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya

[26] https://qalampir.uz/uz/news/soglik-ni-sak-lash-tizimini-moliyalashtirish-strategiyasi-tasdik-lanadi-26023

vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rahbarlari shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yiladi.

Belgilab qo‘yilishicha, 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab:

a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga ayrim tibbiy yordam turlarini davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlarida olish huquqini beruvchi tibbiy yo‘llanmalar joriy etiladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatilishi uchun yo‘llanma (order) olishning quyidagi tartibi o‘rnatiladi:

- bemor yashash joyi bo‘yicha qishloq vrachlik punkti yoki oilaviy poliklinikaning yo‘llanmasi va boshqa zarur hujjatlarni tegishli tibbiyot birlashmasining markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikasiga sog‘liqni saqlash milliy integratsiyalashgan axborot tizimi (SSMIAT) orqali yuboradi;
- tuman (shahar) markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalari bemorning tibbiy hujjatlarini ko‘rib chiqish va uni, zarur hollarda, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish natijalarini, shuningdek, ular bo‘yicha tuzilgan xulosani bemor murojaat qilgan kundan e’tiboran ikki ish kunidan kechiktirmay SSMIATga kiritadi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tibbiyot tashkilotlari tuman (shahar) tibbiyot tashkilotlari tomonidan yagona integratsiyalashgan axborot tizimiga kiritilgan ma’lumotlar asosida bemor murojaatidan so‘ng ikki ish kuni ichida, zarur hollarda, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazadi va unga yo‘llanma (order) beradi yohud ularni olish uchun SSMIAT orqali navbatga qo‘yadi.

Bunda, bemorlar o‘z so‘rovlariga ko‘ra murojaatining ko‘rib chiqilishi holati hamda yo‘llanma (order) olish yohud bepul davolanish uchun navbati haqidagi axborotni real vaqt rejimida elektron shaxsiy kabinet orqali, shuningdek, qisqa xabar (SMS) ko‘rinishida olish tizimi yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro‘yxati tasdiqlanadi.

Belgilab qo‘yilishicha:

- ushbu bandda nazarda tutilgan ro‘yxatga muvofiq imtiyozli toifadagi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat turlari va hajmlari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi;
- kam ta’minlangan oilalarga mansub shaxslar toifasiga kiruvchi fuqarolar 2021 yil 1 yanvardan respublikaning barcha hududlarida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga muvofiq aniqlanadi. Har bir xizmat guruhi o‘ziga xos xususiyatlarga ega[27].

Tibbiy xizmat bo‘yicha bemorlarning elektron navbatini tashkil etgan davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalariga beg‘araz yordam doirasida kelgan tibbiy texnika va jihozlardan, agar O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro

[27]Ortikniyozovich U. F. The Significance of Theoretical Concepts of Services and Service Activity //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – Т. 5. – №. 6. – С. 43-45.

shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, pullik tibbiy xizmatlarni tashkil etishda foydalanishga ruxsat beriladi.

2021-yil 1-martdan boshlab tibbiy faoliyatni litsenziyalashning quyidagilarni nazarda tutuvchi soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi:

- tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya berish haqidagi arizani umumiy tartibda ko‘rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish muddati amaldagi 20 kundan 15 kungacha qisqartiriladi;
- tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya talablari va shartlari buzilgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishi faqat bunday buzilishlarga yo‘l qo‘yilgan tibbiy ixtisoslik turi qismida tugatiladi (to‘xtatiladi) va litsenziya amaldagi boshqa tibbiy ixtisoslik turlari qismida belgilangan tartibda qayta rasmiylashtiriladi;
- qo‘shimcha tibbiy ixtisoslik turiga yoki tashkilot filialiga litsenziya olishda, litsenziya talabgorining xohishiga ko‘ra, uning litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini o‘rganish faqat so‘ralayotgan tibbiy ixtisoslik turi hamda tashkilot filiali qismida o‘tkaziladi va ushbu ixtisoslik turiga (filialga) litsenziya belgilangan tartibda mavjud litsenziyaning amal qilish muddatiga beriladi. Bunda amaldagi litsenziya tegishli qo‘shimchalar kiritilgan holda qayta rasmiylashtiriladi.

2020-yil 1-noyabrdan boshlab Akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro forumning (IAF) to‘laqonli a’zosi bo‘lgan organlar tomonidan “Oziq-ovqat va dori vositalari boshqarmasi” (FDA) va (yoki) “Yevropa muvofiqligi” (SE) xalqaro standartlari talablariga muvofiq sertifikatlangan tibbiy texnikalar O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida ularning xavfsizligi, sifati va samaradorligini aniqlash maqsadida laboratoriya sinovlaridan o‘tkazilmaydi va ro‘yxatdan o‘tkazish uchun murojaat qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Belgilanishicha, nazarda tutilgan tartib ro‘yxatda keltirilgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tibbiy texnikalarga nisbatan tatbiq etiladi. 2021-yil 1-martdan boshlab belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shifokorlar ko‘rsatmalarini uy sharoitlarida bajarish va bemorlarni o‘z uylarida parvarish qilish – “hamshiralik ishi” faoliyatini amalga oshirish tartibi joriy etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi bilan eng ko‘p ish olib boradigan qishloq vrachlik punktining umumiy amaliyot shifokori zimmasiga 146 turdan ziyod kasallikka diagnoz qo‘yish va davolash, 213 dan ortiq birlamchi diagnoz qo‘yish va yo‘llanma berish, shuningdek, reabilitatsiya, dispanserizatsiya va profilaktika bo‘yicha juda ko‘p vazifalar yuklatilgan. Shu bois, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomtligini mustahkamlash yili” davlat dasturi loyihasida tibbiyot sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator kechiktirib bo‘lmas masalalar qamrab olinmoqda

Darhaqiqat 2021-yilgi Davlat dasturi loyihasida amaldagi umumiy amaliyot shifokori va hamshiralar o‘rniga oilaviy shifokor, uning terapiya va pediatriya yo‘nalishlari bo‘yicha yordamchilari, patronaj hamshiralari va doyadan iborat

bo‘lgan “tibbiyot brigadalari”ni tashkil qilish vazifasi belgilangan. Ijtimoiy sohada ko’rsatilayotgan xizmatlar hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda[28]. Endilikda, sog‘lom turmush tarziga amal qilinmasligi natijasida kelib chiqayotgan kasalliklar ko‘rsatkichini 55 foizdan sezilarli darajaga tushirish maqsadida uy sharoitida bolalar uchun tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida 6-23 oylik bolalar mikronutriyent kukuni bilan, 6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarni “A” vitamini bilan hamda 2-10 yoshdagi bolalar gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta’minlandi[29]**.**

Tahlillar natijasida shifokorlarning ish kunining 60 foizi bemorlarni davolashga emas, hisobot to‘ldirishga sarf bo‘layotgani aniqlangan. Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida sog‘liqni saqlash tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning huquqiy asoslarini yaratish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Yagona elektron ro‘yxatga olish va internet tarmoq orqali shifokor qabuliga yozilishni ta’minlab beruvchi «Elektron poliklinika» avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishga tushirilishi natijasida hududlarda yashovchi fuqarolarning yagona tibbiy kartasi yaratilmoqda. Bunday tizim orqali fuqarolarimiz respublikamizning barcha tibbiyot muassasalaridan o‘zining kasallik varaqalaridan elektron tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

Bu kabi tizimlarning joriy qilinishi nafaqt shifokorlarga, balki bemorlarga ham vaqt va mablag‘ masalasini tejash borasida bir qator qulayliklarni yaratmoqda. Xususan, 2021-yilgi Davlat dasturi loyihasining 177-bandida belgilab berilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida hududlarda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash maqsadida respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o‘rtasida telemeditsina aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.

Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga ko‘rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni yanada takomillashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning yagona siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, shuningdek muhtoj shaxslarni protez-ortopedik buyumlar va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta’minlash faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

[28]Ortikniyozovich U. F. The Significance of Theoretical Concepts of Services and Service Activity //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – Т. 5. – №. 6. – С. 43-45.

[29] https://uzpharmagency.uz/oz/news/aholi-sogligini-saqlashda-tibbiy-texnikalarning-orni-va-ahamiyati-katta

Fazliddinov Behruz Shuxrat o’g’li *– magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

KORXONA FOYDASINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI BYUDJET DAROMADLARINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonalar foydasini samarali boshqarish orqali byudjet daromadlariga olinadigan soliqlarning roli, ularning ahamiyati keltirib o’tilgan. Shuningdek, O’zbekiston sharoitida byudjet daromadlari tarkibini oshirish uchun soliq qonunchiligida olib borilishi kerak bo’lgan ishlar masalasi ko’rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *korxona foydasi, yalpi foyda, soliq yuki, byudjet daromadi.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается роль налогов на бюджетные доходы посредством эффективного управления прибылью предприятий, их значение. Также рассматривается вопрос о работе, которую необходимо провести в налоговом законодательстве для повышения структуры бюджетных доходов в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова*: прибыль предприятий, валовая прибыль, налоговая нагрузка, доход бюджета.*

Abstract*: This article examines the role of taxes on budget revenues through effective corporate profit management and their importance. It also considers the work needed in tax legislation to improve the structure of budget revenues in Uzbekistan.*

Key words*: enterprise profit, gross profit, tax burden, budget revenue.*

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda milliy soliq tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki soliq tizimini muntazam ravishda isloh qilib borilishi, uni jahon iqtisodiy munosabatlariga hamohang tarzda moslashtirilishi korxonalar zimmasidagi soliq yukini yengillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini o’zlashtirish, mavjudlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish imkonini berib iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning bevosita ishtirokini kamaytirish va ishlab chiqarish sub’ektlari faoliyatini tubdan rivojlantirishda yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish soliq siyosatining muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xo’jalik yuritish munosabatlarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun boshqaruv bo’g’ini nafaqat bu boradagi faoliyatni yaxshi talqin qila olish balki, iqtisodiyotning barcha jabhalaridagi o’ziga xos xususiyatlarni chuqur idrok etib, xo’jalik yuritishning eng samarali darajasiga erishish uchun moliyaviy dastaklar va boshqaruv rag’batlaridan oqilona foydalana bilishi kerak. Xo’jalik yuritish va uni boshqarish falsafasi ham, korxona foydasi va xarajatlarini boshqarishning mohiyati va ahamiyati ham, mulkchilik shakllari ham o’zgargani va ko’lami tobora kengayib borayotgani bois biznes sub’ektlarining foyda olish va bu borada ish olib borish usullari doirasi tobora kengayayotgan bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitida mazkur masala yanada dolzarblashib, menejment oldiga korxona foydasi va xarajatlarini samarali boshqarish masalasini qo’ymoqda. Chunki foyda olish byudjet daromadlarini oshirilishiga zamin yaratmoqda.

Korxona foydasi va xarajatlarini boshqarishning ahamiyati uning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ta’sir doirasida yotadi. Mikroiqtisodiy ta’sir korxonaning o’ziga o’zi ko’rsatadigan ta’sir bildirsa, makroiqtisodiy ta’sir u oladigan foyda va qiladigan xarajatlarning, nafaqat byudjet daromadlariga, balki milliy iqtisodiyotga ta’sirini anglatadi.

Milliy iqtisodiyotda tovar-pul munosabatlarining amal qilishi pul, kredit, moliya va boshqa qiymat kategoriyalaridan foydalanishni taqozo qiladi. Foyda tarixiy kategoriya sifatida jamiyatning sinflarga bo’linishi bilan vujudga kelgan. Korxona foydasi iqtisodiy kategoriya sifatida yangi emas. Ammo, endilikda unga turi, shakllanish xususiyatlarni, mohiyati va funktsiyalari jihatidan yangilanib borayotgan kategoriya sifatida qarash mumkin. Foyda korxonalar tadbirkorlik faoliyatining pirovard moliyaviy natijasi, kapital va ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, aql-idrok bilan ish yuritib, xatarli ishga tavakkal qo’l o’rganlik uchun tegadigan moliyaviy mablag’ hisoblanadi.

Boshqarish va foyda solig’ini byudjet daromadlaridagi ahamiyatining maqsadida nuqtai nazaridan foyda quyidagi 3 muhim funktsiyani, bajaradi:

- iqtisodiy ko’rsatkich tarzida xo’jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettiradi;
- manfaatdorlik funktsiyasi shundaki, undan foydalaniladi, u uchun harakat qilinadi, boshqaruv xarajatlari manbai sifatida namoyon bo’ladi;
- korxonalarning moliyaviy resurslari, mahalliy va davlat byudjeti daromad qismlari manbalarini shakllantirish asosidir.

Foyda iste’molini va byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuniga qarab, moliyaviy menejment ob’ektlaridan hisoblanadi. Foyda taqsimoti jarayonida davlat organlari orqali jamiyatning, ayrim fuqarolar manfaatlari alohida hisobga olinadi. Taqsimotning ob’ekti – yalpi foyda. Yalpi foydaning bir qismi amaldagi qonun-qoidalar asosida soliq va boshqa majburiy to’lovlar sifatida davlat byudjetiga kelib tushishi ta’minlanadi.

1-jadval asosida foyda kategoriyasiga mualliflar tomonidan berilgan qator ta’riflarni ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Foydaga oid ayrim ta’riflar

T/r	Muallif	Ta’rif
1.	Sheffle E.F.	Foyda – investitsiya qilingan kapital qaytimi [1]
2.	Nidlz B., Anderson X., Kolduell D.	Foyda – xo‘jalik faoliyatini yuritish natijasida qo‘yilgan kapitalni oshishi [2]
3.	Xiks J.	Foyda – ma’lum bir vaqt oralig‘ida ishlatish mumkin bo‘lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobiy qoldiqqa ega bo‘lishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich [3]
4.	Pokropivniy S.F.	Foyda – korxona ishlab chiqarishi va savdo faoliyatiga qilingan xarajatlardan keyingi qoladigan tushumning bir qismi [4]
5.	Podderogin A.M.	Foyda – ishlab chiqarilgan va sotilgan, taqsimlashga tayyorlangan qiymatni qaytadan yaratish qismi [5]
6.	Rayzberg B.A.,	Foyda – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish

	Lozovskiy L.Sh., Starodubseva Ye.B.	xarajatlaridan ularni sotishdan olingan daromadlarning oshishi [6]
7.	Salov A. I.	Iqtisodiy foyda – yalpi daromad va iqtisodiy xarajatlar o‘rtasidagi farq [7]
8.	Seleznova N.N., Ionova A.F.	Foyda – qo‘shilgan kapitalga nisbatan sof daromadning pul shaklidagi ko‘rinishi [8]
9.	Haydarov N.X.	Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarining so‘nggi moliyaviy natijasi bo‘lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi [9]
10.	Aliyeva S.S.	Foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to‘lov, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonini o‘zgartirish, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot [10]
11.	Zaripov X.B.	Foyda – ishlab chiqarish omillarining (mehnat, kapital, tabiiy resurslar) uzviy aloqadorligi asosida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan pirovard moliyaviy natijadir [11]

Korxona foydasini boshqarishda uning taqsimoti o’ziga xos quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- byudjet oldidagi moliyaviy majburiyatlar bajariladi;
- qolgan qismi iqtisodiy asoslangan nisbatda jamg’arma va iste’molga bo’linadi.

Foyda tadbirkorlik faoliyatining oxirgi moliyaviy ko’rsatkichi sifatida daromadlar umumiy summasidan xarajatlar umumiy summasi chegirib tashlangandan so’ng qolgan moliyaviy natijani aks ettiradi, shuningdek, bir qancha komponentlarning o’zaro harakati natijalari asosida shakllantiriladi.

Korxona foydasi va xarajatlarini boshqarishda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan, 2003-yil 23-dekabrdagi 657-qarori bilan o’zgartirishlar kiritilgan “Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risidagi Nizom” huquqiy asosdir. U xo’jalik yurituvchi sub’ektlar – yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo’lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi; buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlaridagi xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo’ladigan tafovutlarni, soliqqa tortiluvchi bazani aniqlashda, korxona sof foydasi va boshqa foyda turlari hisobini to’g’ri yuritishda xo’jalik sub’ektlarida mahsulot realizatsiyasidan tushum va uning xarajat elementlari bo’yicha taqsimlanish mexanizmini ham o’z ichiga olganligi bois byudjet daromadlarini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Soliq tizimining nobarqarorligi va, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish mexanizmlarining o’zgaruvchanligi soliq to’lovchilar iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Zero, soliqlar keng kamrovli, ayni paytda har bir soha, tarmoq va korxonaga

alohida qayishqoq va sharoitga moslashuvchan bo’lmog’i lozim. Bundan tashqari, soliq tizimining turli xil soliq rejimlariga asoslangan holda, tabaqalashib ketgani hozirgi globalizatsiya sharoitida bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash, korxonalarning investitsion faolligini rag’batlantirish hamda soliq ma’murchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash uchun:

1) tadbirkorlar va keng jamoatchilik orasida mavjud soliq imtiyozlari to’g’risida ommaviy targ’ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish hamda mavjud soliq imtiyozlarini tahlil qilib samarasiz va foydalanilmayotgan imtiyozlarni bekor qilish;

2) ilg’or xorij tajribani chuqur tahlil qilgan holda mamlakatimizdagi soliq tizimini soddalashtirish va soliqlarning yig’uvchanlik darajasini oshirish;

3) soliq solinadigan foydani aniqlashda xarajatlar tasnifi tartibini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni, ishlab chiqarish fondlarini yangilashni yanada rag’batlantirish;

4) tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yangi ishlab chiqarishda joriy etilgan innovatsiyalardan olingan daromadni soliqqa tortishda imtiyozlar berish orqali rag’batlantirishni kuchaytirish yo’nalishidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni zarur deb hisoblaymiz.

Bu esa o’z navbatida xo’jalik sub’ektlari zimmasiga tushayotgan soliq yukini yanada kamayishiga, soliq ma’murchiligini takomillashishiga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni soliqlar vositasida rag’batlantirilishiga, fuqarolarning daromadlari barqarorlashishi va ularning xarid qobiliyatining oshishiga, mahalliy byudjetlar daromadlarining mustahkamlanishiga xizmat qilib “Xalq boy bo’lsa, davlat ham, albatta, boy va qudratli bo’ladi” degan prinsip asosida mamlakatimizning kelgusida iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Мануйленко В.В., Садовская Т.А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект. //Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2012. №33. – с. 26.

2. Needles B.E., Anderson H.R., Caldwell J.C. The basic principles of accounting. //Publishing House Arc. – 2000.

3. Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – С. 170-189.

4. Покропивный С.В. Экономика предприятия: Учебник. - Київ: КНЕУ, 2017. - 608 с.

5. Поддерьогин А.М. Финансы предприятий. Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. - Київ: КНЕУ, 2013. – 460 с.

6. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2016. – 244 с.

7. Салов А.И. Экономика. Краткий курс лекций. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. – с. 197.

8. Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. Управление финансами. Учеб. пособие для вузов – 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007 – с.159

9. Ҳайдаров Н. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. – Т.: Akademiya, 2007. – 54 б.

10. Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. Автореф.дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.

11. Зарипов Х.Б. Солиқларнинг корхоналар молиявий-хўжалик фаолиятига таъсирини баҳолаш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Т.: 2020. – 14-б.

Fattoyev O.G’., *tayanch doktorant, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O’zbekiston*

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SOLIQ IMTIYOZLARINING TUTGAN O’RNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada soliq imtiyozlarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Soliq imtiyozlari davlat fiskal siyosatining muhim vositasi sifatida ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsion faollikni oshirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsion xarajatlarni chegirish va soliq ta’tili kabi mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligi ko‘rib chiqilgan. 2025-yil prognoz ma’lumotlari asosida soliq imtiyozlari va to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Xulosa sifatida, soliq imtiyozlarini qo‘llashda iqtisodiy asoslanganlik va muvozanat tamoyillariga rioya etish zarurligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *soliq imtiyozlari, fiskal siyosat, iqtisodiy o‘sish, investitsion faollik, to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, tezlashtirilgan amortizatsiya, soliq ta’tili, investitsiya muhiti, budjet daromadlari, makroiqtisodiy barqarorlik.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована роль налоговых льгот в экономической системе и их влияние на экономический рост с теоретической и практической точек зрения. Налоговые льготы рассматриваются как важный инструмент фискальной политики, направленный на расширение производства, повышение инвестиционной активности и поддержку предпринимательства. В исследовании оценивается экономическая эффективность таких механизмов, как ускоренная амортизация, вычеты инвестиционных расходов и налоговые каникулы. На основе прогнозных данных за 2025 год проанализирована взаимосвязь между налоговыми льготами и прямыми иностранными инвестициями. В заключение подчеркивается необходимость применения налоговых льгот на основе экономической обоснованности и принципов сбалансированной политики.*

Ключевые слова: *налоговые льготы, фискальная политика, экономический рост, инвестиционная активность, прямые иностранные инвестиции, ускоренная амортизация, налоговые каникулы, инвестиционный климат, бюджетные доходы, макроэкономическая стабильность.*

Abstract: *This article analyzes the role of tax incentives within the economic system and their impact on economic growth from both theoretical and practical perspectives. Tax incentives are examined as an important instrument of fiscal policy aimed at expanding production, increasing investment activity, and supporting entrepreneurship. The study evaluates the economic effectiveness of mechanisms such as accelerated depreciation, investment expense deductions, and tax holidays. Based on the 2025 forecast data, the relationship between tax incentives and foreign direct investment is assessed. The findings emphasize the necessity of applying tax incentives on the basis of economic justification and balanced policy principles.*

Keywords: *tax incentives, fiscal policy, economic growth, investment activity, foreign direct investment, accelerated depreciation, tax holidays, investment climate, budget revenues, macroeconomic stability.*

Kirish. Iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarini bosib o‘tgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar tizimida soliq imtiyozlari muhim o‘rin egallaydi. Ular davlatning fiskal siyosati doirasida iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlantirish va tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida soliq imtiyozlari ustuvor iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda samarali instrument bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu mexanizmdan noto‘g‘ri foydalanish yoki uni yetarlicha asoslanmagan tarzda qo‘llash kutilgan natijani bermasligi, hattoki iqtisodiy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Если принимается решение об изменении процесса управления, на первый план выходит задача более точного и тщательного управления всеми его компонентами. В большинстве случаев потребуется более тесная синхронизация процесса с партнерами, поставщиками и клиентами за рубежом. Местные топ-менеджеры крупных предприятий в нашей стране подчеркивают важность решения таких проблем офшорного аутсорсинга: быстрый доступ в Интернет; свободный доступ клиентов к веб-сайту компании в любое удобное для них время, а также ежедневное резервное копирование данных; сбои в системе управления базами данных (СУБД), корпоративной электронной почте, наличие эффективно функционирующей сети передачи данных, телефонной сети, своевременное «отражение» вирусов и хакерских атак и т. д.

Учитывая специфику нашей страны, отметим, что среди услуг, наиболее часто передаваемых на аутсорсинг в рамках отечественного аутсорсинга, на первом месте находится подбор персонала, на втором — организация питания, на третьем — информационные технологии, на четвертом — расчет заработной платы и бухгалтерский учет; на пятом — выполнение отдельных видов строительных работ.

Требования к договору аутсорсинга следует рассматривать на примере одного отраслевого министерства, а именно в соответствии с Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 626 от 25 июля 2019 года «О дальнейшем совершенствовании системы здорового питания в государственных дошкольных образовательных учреждениях».

Отбор аутсорсеров осуществляется в соответствии с утвержденной процедурой, и к аутсорсерам предъявляются следующие общие требования:

- не менее одного года опыта работы в сфере общественного питания; наличие оборотного капитала в размере суммы договора на оказание услуг аутсорсинга не менее чем на два месяца;

- отсутствие налоговых задолженностей, платежей, других обязательных платежей и финансовых санкций со стороны соответствующих организаций не менее чем за один месяц до даты подачи заявки на участие в конкурсе (тендере);

- подтверждение квалификационных категорий квалифицированных специалистов (инженер-технолог, диетолог, повар) с опытом работы не менее 2 лет в области технологии приготовления пищи для организации здорового питания;

- Разработать индивидуальный план организации здорового питания путем аутсорсинга на основе технических задач, поставленных дошкольной образовательной организацией, и провести презентацию (по возможности, с демонстрацией готовых блюд);

указать в презентации допустимые нормы питания для различных групп учащихся по возрасту, полу, физиологическому состоянию;

максимальный размер надбавки за аутсорсинг услуг здорового питания - не более 20 процентов от стоимости предоставленных услуг;

реализовывать здоровое питание в государственной дошкольной образовательной организации путем аутсорсинга в рамках продовольственных цен, утвержденных районным (городским) хокимиятом;

сумма предлагаемых инвестиционных средств для каждого лота составляет не менее 1000 (одна тысяча) базовых расчетных сумм для города Ташкента, областных центров, 500 (пятьсот) для городов и районных центров области, 250 (двести пятьдесят) для сел и аулов.

Кроме того, одним из требований к аутсорсерам является то, что экономическая субъектность, имеющая конфликт интересов с заказчиком, не может быть участником конкуренции.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ. В качестве одной из основ внедрения аутсорсинга в государственном секторе целесообразно сосредоточиться на опыте стран, где аутсорсинг высоко развит.

В период 2010–2025 годов малый бизнес в Сурхандарьинской области:

Составлял 75–83% экономики.

Обеспечивал 75–81% занятости.

Играл ведущую роль в строительстве и торговле.

В 2024–2025 годах наблюдался резкий рост промышленности.

Это свидетельствует о постепенном углублении механизмов аутсорсинга и субподряда в регионе и их превращении в важный элемент экономической системы.

Организация экономического сотрудничества и развития постоянно анализирует и оценивает долю аутсорсинга в государственном секторе.

В зарубежных странах функции государственных органов, переданные на аутсорсинг, делятся на три группы.

Первая группа включает вспомогательные функции, такие как общественное питание, уборка зданий, утилизация отходов, охранные услуги. Эти функции легко поддаются аутсорсингу, поскольку они не считаются основными задачами органов бюджетной организации и управления, их использование относительно простое, стандартизированное и не предъявляет высоких требований к исполнителям, а также не требует высокого уровня знаний.

Вторая группа функций включает вспомогательные функции, требующие от исполнителей достаточно высокой профессиональной квалификации. К этой группе относятся финансы и бухгалтерский учет, управление персоналом, юридические услуги, документооборот и использование информационных технологий.

В последние годы аутсорсинг в государственном секторе за рубежом в основном связан с выполнением функций этой группы, при этом наиболее распространенной функцией аутсорсинга является использование информационных технологий.

Третья группа функций, которые могут быть переданы на аутсорсинг, включает основные функции, которые непосредственно выполняются самими государственными органами; этот вид аутсорсинга очень редок за рубежом.

Таким образом, необходимость оптимизации бюджетных расходов на национальном и местном уровнях заключается в повышении эффективности бюджетных расходов за счет использования аутсорсинга.

В целом, при применении аутсорсинга к услугам государственных учреждений целесообразно использовать его для повышения конкурентоспособности бюджетных организаций, коммерческих и некоммерческих организаций, предоставляющих бюджетные услуги, а также эффективности бюджетных расходов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Po‘latov M.E., Xolmamatov D.H., Yahyoxonov N.B. Xizmatlar marketing.

O‘quv qo‘llanma. Samarqand. Fan bulog‘i nashryoti, 2021 y., - 445 bet.

2. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari.-O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: “Iqtisodiyot”, 2019. - 305 bet.

3. Norimovich, R. A., & Namazovna, A. N. (2024). Evaluative indicators of increasing the production efficiency of industrial sectors. Образование наука и инновационные идеи в мире, 42,

4. Mukhitdinov, K. S., & Rakhimov, A. N. (2020). The forecast for the development of the public services sector. Scopus. Solid State Technology, 63(6).

5. Raximov, A. (2022). Aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojida ichki va yondosh tarmoqlarning ta’sirini baholash (qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot va ta’lim, 23(4), 397-402.

6. Рахимов, А. М. (2021). Услуги по проживанию и обслуживанию населения значение эконометрического моделирования в нормативной оценке требований потребителей для улучшения качества отображения. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy, 9(12), 1043-1048.

7. Равшанова, М. М. (2023). Эконометрические модели, суть их использования и необходимость эконометрического анализа. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 5-9.

9. Karimova, S. (2024). Elektron tijorat platformalarini takomillashtirishda virtual ekotizimlarning o‘rni. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(4), 26-33.

10. Равшанова, М. М. (2024). Значение педагогических экспериментов в развитии эконометрических навыков учащихся. Экономика и социум, (3-1 (118)), 836-839.

To’lqin Yahyoyev *–i.f.f.d., dotsent v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

QURILISH XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOB XALQARO STANDARTLARI BO’YICHA MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNI ALOHIDA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*: Ushbu maqolada qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadni tan olish, tugallanmagan qurilish hisobi, smeta va haqiqiy xarajatlar tahlili, shartnoma majburiyatlari hamda moliyaviy natijalarni taqdim etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotni IAS 1 talablari asosida shakllantirishning ahamiyati va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida qurilish korxonalarida moliyaviy axborotning shaffofligi va ishonchliligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: qurilish korxonasi, moliyaviy hisobot, tugallanmagan qurilish, uzoq muddatli shartnoma, daromadni tan olish, IAS 1, xalqaro standartlar, moliyaviy tahlil.*

Аннотация*: В данной статье рассмотрены особенности формирования финансовой отчетности в строительных организациях, в частности признание выручки по долгосрочным контрактам, учет незавершенного строительства, анализ сметных и фактических затрат, отражение договорных обязательств и представление финансовых результатов. Особое внимание уделено формированию отчетности в соответствии с требованиями IAS 1. По результатам исследования разработаны предложения по повышению прозрачности и достоверности финансовой информации в строительных предприятиях.*

Ключевые слова*: строительная организация, финансовая отчетность, незавершенное строительство, долгосрочный контракт, признание выручки, IAS 1, международные стандарты, финансовый анализ.*

Abstract*: This article examines the specific features of financial reporting in construction companies, particularly revenue recognition under long-term contracts, accounting for work in progress, analysis of estimated and actual costs, recognition of contractual obligations, and presentation of financial results. Special attention is given to the preparation of financial statements in accordance with IAS 1 requirements. Based on the study, recommendations were developed to enhance the transparency and reliability of financial information in construction enterprises.*

Keywords*: construction company, financial reporting, work in progress, long-term contract, revenue recognition, IAS 1, international standards, financial analysis.*

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayoni boshqa ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalariga nisbatan ancha murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Buning asosiy sababi shundaki, qurilish faoliyati odatda uzoq muddatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi, ishlar bosqichma-bosqich bajariladi, xarajatlar smeta asosida rejalashtiriladi hamda obyektlar ko‘pincha bir necha hisobot davrini qamrab oladi. Shu bois qurilish korxonalarida moliyaviy natijalarni aniqlash, daromad va xarajatlarni tan olish, pul oqimlarini boshqarish hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash jarayoni alohida yondashuvni talab qiladi. Qurilish xizmatlarini

ko’rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tuzilishining alohida xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qurilish korxonalarida daromadni tan olish tartibi muhim ahamiyatga ega. Odatda qurilish obyektlari qisqa muddatda emas, balki bir necha oy yoki yillar davomida barpo etiladi. Shuning uchun daromadni faqat obyekt to‘liq topshirilgandan keyin tan olish korxonaning moliyaviy holatini noto‘g‘ri aks ettirishi mumkin. Amaliyotda ko‘proq bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda daromadni tan olish usuli qo‘llaniladi. Bu usulga ko‘ra, har bir hisobot davrida bajarilgan ishlar ulushi aniqlanadi va shu ulushga mos ravishda daromad e’tirof etiladi. Xalqaro amaliyotda bu jarayon IFRS 15 talablari asosida tartibga solinadi. Ushbu standartga ko‘ra, daromad buyurtmachi oldidagi majburiyatlar bajarilishi darajasiga qarab tan olinadi, ya’ni nazorat huquqi bosqichma-bosqich buyurtmachiga o‘tishi inobatga olinadi.

Ikkinchidan, qurilish sohasida moliyaviy hisobotning yana bir muhim jihati - tugallanmagan qurilish (tugallanmagan ishlab chiqarish) hisobidir. Hisobot davri oxiriga qadar yakunlanmagan obyektlar bo‘yicha sarflangan barcha xarajatlar aktiv sifatida balansda aks ettiriladi. Bu xarajatlar kelgusida daromad keltirishi kutilayotgan iqtisodiy resurs sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, buyurtmachidan olingan avans to‘lovlari majburiyat sifatida hisobga olinadi, chunki korxona hali ushbu mablag‘ evaziga to‘liq xizmat ko‘rsatmagan bo‘ladi. Tugallanmagan qurilish summasining yuqoriligi korxonaning aylanma mablag‘lariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda alohida e’tibor talab qiladi.

Uchunchidan, qurilish korxonalarida xarajatlarni hisobga olish ham o‘ziga xosdir. Har bir obyekt uchun alohida smeta tuziladi va barcha xarajatlar obyektlar kesimida yuritiladi. Xarajatlar tarkibiga qurilish materiallari, ishchi kuchi xarajatlari, ijtimoiy ajratmalar, maxsus texnika amortizatsiyasi, transport xarajatlari va boshqa bevosita hamda bilvosita xarajatlar kiradi. Haqiqiy xarajatlarning smeta ko‘rsatkichlaridan og‘ishi foyda miqdoriga bevosita ta’sir qiladi. Agar xarajatlar rejalashtirilganidan ortib ketsa, korxona foydasi kamayadi yoki zarar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli qurilish tashkilotlarida ichki nazorat tizimi kuchli bo‘lishi zarur.

To’rtinchidan, materiallar hisobi ham moliyaviy hisobotda katta o‘rin tutadi. Qurilish jarayonida sement, metall konstruksiyalar, yog‘och mahsulotlari, elektr jihozlari va boshqa ko‘plab materiallar ishlatiladi. Ularning omborga qabul qilinishi, saqlanishi va obyektlarga sarflanishi aniq hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi. Materiallar noto‘g‘ri hisobga olinishi qurilish tannarxining noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi va bu moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, qurilish korxonalarida asosiy vositalar ulushi yuqori bo‘ladi. Qurilish texnikasi, mexanizmlar, maxsus transport vositalari va uskunalar korxonaning asosiy ishlab chiqarish bazasini tashkil etadi. Ularning amortizatsiyasi qurilish xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Asosiy vositalarning

eskirish darajasi va yangilanish sur’ati korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotni tuzishda 1-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti - IAS 1 “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” talablari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu standart moliyaviy hisobotni taqdim etishning umumiy qoidalarini belgilaydi va barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar qatori qurilish korxonalariga ham tatbiq etiladi. Biroq qurilish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli IAS 1 “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” talablari amaliyotda ayrim alohida jihatlar bilan namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, IAS 1 “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” moliyaviy hisobotning to‘liq to‘plamini taqdim etishni talab qiladi. Unga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (balans), foyda yoki zarar va boshqa umumiy daromad to‘g‘risidagi hisobot, kapitaldagi o‘zgarishlar hisobot, pul oqimlari hisobot hamda izohlar kiradi. Qurilish korxonalarida ayniqsa moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot tarkibi muhimdir, chunki unda tugallanmagan qurilish obyektlari, shartnoma aktivlari va majburiyatlari, uzoq muddatli qarzlar katta ulushni egallaydi. IAS 1 “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” aktiv va majburiyatlarni qisqa va uzoq muddatli toifalarga ajratishni talab qiladi. Qurilish korxonalarida bir yildan ortiq davom etadigan loyihalar mavjudligi sababli ushbu tasniflash masalasi alohida e’tibor talab etadi.

Ikkinchidan, hisobot tuzilmasining izchilligi (consistency of presentation) ham muhim talab hisoblanadi. Qurilish tashkiloti bir davrdan ikkinchisiga o‘tganda hisobot shakllarini asossiz ravishda o‘zgartirmasligi kerak. Bu foydalanuvchilarga moliyaviy natijalarni tahlil qilishni osonlashtiradi.

Uchunchidan, 1-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti qurilish korxonalarida moliyaviy hisobotni shaffof, taqqoslanadigan va ishonchli shaklda taqdim etishni ta’minlaydi. Qurilish faoliyatining uzoq muddatli va yuqori riskli xususiyati sababli IAS 1 talablari ayniqsa izohlar berish, aktiv va majburiyatlarni to‘g‘ri tasniflash, muhim loyihalarni alohida ochib berish hamda uzluksizlik tamoyiliga rioya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayoni o‘zining murakkabligi va ko‘p bosqichliligi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli shartnomalar, tugallanmagan qurilish hajmining kattaligi, avans to‘lovlari, subpudratchilar bilan hisob-kitoblar hamda yirik miqdordagi asosiy vositalar mavjudligi moliyaviy hisobotni tuzishda alohida yondashuvni talab qiladi. IAS 1 talablari asosida moliyaviy hisobotni tuzish qurilish korxonalarida axborotning shaffofligi, haqqoniyligi va taqqoslanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, aktiv va majburiyatlarni to‘g‘ri tasniflash, muhim loyihalar bo‘yicha ma’lumotlarni ochib berish, uzluksizlik tamoyiliga rioya qilish hamda hisob siyosatini aniq yoritish qurilish korxonasining moliyaviy holatini real baholash imkonini beradi. Shunday qilib, qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot nafaqat buxgalteriya ma’lumotlarini jamlash vositasi, balki boshqaruv

qarorlarini qabul qilish, investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

Takliflar

1. Har bir qurilish obyektini alohida moliyaviy markaz sifatida yuritish, smeta va haqiqiy xarajatlarni doimiy solishtirib borish hamda avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu tugallanmagan qurilish va shartnoma majburiyatlarini aniq hisobga olish imkonini beradi.

2. Yirik shartnomalar, kutilayotgan risklar, baholash usullari va daromadni tan olish mezonlari bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirishlar berish zarur. Bu investorlar va kreditorlar uchun axborotning ishonchliligini oshiradi hamda moliyaviy tahlilni yengillashtiradi.

3. Buxgalteriya xodimlarining xalqaro standartlar, xususan IAS 1 talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ichki hisob siyosatini ushbu standartlarga mos ravishda doimiy yangilab borish tavsiya etiladi. Bu qurilish korxonasining moliyaviy hisobotini xalqaro talablarga mos va investitsiyaviy jozibador qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. International Accounting Standards Board. IAS 1 – *Presentation of Financial Statements.* London: IFRS Foundation.
2. International Accounting Standards Board. IFRS 15 – *Revenue from Contracts with Customers.* London: IFRS Foundation.
3. Kieso, Donald E., Weygandt, Jerry J., Warfield, Terry D.. Intermediate Accounting. Wiley.
4. Epstein, Barry J., Mirza, Abbas Ali. Wiley IFRS*: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards.* Wiley.
5. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation.

Shakarov Shahzod Sobir O’g’li – *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Magistratura bo’limi 1-bosqich MA-125 gurux talabasi*

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, BAHOLASH VA ESKIRISH HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALASI

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 16 – “Asosiy vositalar” asosida asosiy vositalarni tan olish, baholash va eskirish hisobini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida asosiy vositalarning boshlang‘ich tannarxini shakllantirish, keyingi xarajatlarni hisobga olish, tannarx va qayta baholash modellari o‘rtasidagi farqlar hamda eskirishni hisoblash usullari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, asosiy vositalarning qadrsizlanishi, hisobdan chiqarilishi va moliyaviy hisobotlarda ochib berilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar BHXS talablari asosida o‘rganilgan. Maqolada xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish, asosiy vositalar hisobini yanada shaffof va samarali tashkil etish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *asosiy vositalar, BHXS 16, tan olish, baholash, eskirish, qayta baholash modeli, qadrsizlanish, moliyaviy hisobot.*

Abstract:*This article examines the issues of improving the recognition, measurement, and depreciation accounting of property, plant, and equipment in accordance with International Accounting Standard IAS 16 “Property, Plant and Equipment.” The study analyzes the formation of initial cost, the accounting treatment of subsequent expenditures, the differences between the cost model and the revaluation model, as well as methods of depreciation. In addition, matters related to impairment, disposal of fixed assets, and disclosure requirements in financial statements are reviewed based on International Financial Reporting Standards. The article substantiates the role of applying international standards in enhancing the reliability, transparency, and analytical usefulness of financial reporting on fixed assets.*

Keywords: *property, plant and equipment, IAS 16, recognition, measurement, depreciation, revaluation model, impairment, financial reporting.*

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning globallashuvi va moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta’minlash zarurati buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida yuritishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi asosiy vositalarni to‘g‘ri tan olish, baholash va ular bo‘yicha eskirish hisobini yuritish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 16 – “Asosiy vositalar” talablari asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar korxonaning uzoq muddatli aktivlari bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida, xizmatlar ko‘rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalaniladi va korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilab beradi. Ularning noto‘g‘ri baholanishi yoki eskirish hisobining noto‘g‘ri tashkil etilishi moliyaviy natijalarning buzilishiga, foyda va zarar ko‘rsatkichlarining ishonchsiz aks ettirilishiga olib kelishi mumkin. BHXS 16 asosiy vositalarni tan olish, ularning boshlang‘ich tannarxini aniqlash, keyingi xarajatlarni hisobga olish, eskirishni hisoblash va qadrsizlanishni aniqlash bo‘yicha yagona yondashuvni belgilab beradi. Ushbu maqolaning maqsadi BHXS 16 talablari asosida asosiy vositalarni tan olish, baholash va eskirish hisobining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularni hisobga olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH VA BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Xorij olimlari va xalqaro standartlar ta’rifida asosiy vositalar **foydali xizmat muddati bo‘yicha uzoq muddatli aktivlar** sifatida ko‘riladi; BHMS 5 esa bu muddatni ko‘pincha **bir yildan ortiq** deb belgilaydi, bu milliy amaliyotda qo‘shimcha mezon sifatida ishlatiladi. IAS 16da asosiy vositani tan olishda iqtisodiy foyda keltirishi ehtimoli va tannarxni **ishonchli baholash** shartlari alohida ko‘rsatiladi — bu eurobond hisobchi nuqtai nazarida standartlashtirilgan yondashuvdir. Milliy BHMSda bu element aniq hujjatlashtirilmagan yoki qat’iy mezon sifatida berilmaydi. Xalqaro standartda amortizatsiya (eskirish) va

qadrsizlanish bo‘yicha me’yoriy yondashuvlari (eskirish summasi va modellar) aniq ko‘rsatiladi — u moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun aktivning iqtisodiy qiymatini yaxshiroq ifodalashga qaratilgan. Xorij olimlari yondashuvida asosiy vositalar hisobi xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, bu global investitsiya muhitida solishtiriladigan buxgalteriya hisobotini yaratadi. O‘zbek olimlari ham bu talablarga moslikni takomillashtirish zarurligini ta’kidlamoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, **asosiy vositalar** tushunchasi bir xil mohiyatga ega bo‘lsa-da, **standartlar va olimlar yondashuvida ayrim farqlar mavjud**. Milliy BHMS 5 asosiy mezonlarni soddalashtirib beradi, IAS 16 esa aktivni tan olish, baholash va eskirishni xalqaro moliyaviy hisobot talablari bilan yanada chuqur belgilaydi. Bu farqlar iqtisodiy subyektlar uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar bilan muvofiqligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval. «Asosiy vositalar» tushunchasiga turli xil yondashuvlar.

“Asosiy vositalar – tashkilotning uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarish jarayonida foydalaniladigan, shuningdek ijaraga berish mumkin bo‘lgan moddiy aktivlar”	5-son BHMS “Asosiy vositalar”
Asosiy vositalar – bu quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlardir: mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish yoxud ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun tutib turiladigan va bir davrdan ortiq muddat davomida foydalanilishi kutiladigan	16-son «Asosiy vositalar» BHXS
Asosiy vositalar - bu korxonalar tomonidan xo‘jalik faoliyatini yuritishda uzoq muddat davomida mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko‘rsatish, shuningdek ma’muriy va ijtimoiy – madaniy funksiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan moddiy aktivlar	K.B.Urazov

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti IAS 16 ga muvofiq, asosiy vositalar buxgalteriya hisobida aktiv sifatida tan olinishi uchun muayyan mezonlarga javob berishi lozim. Mazkur standart asosiy vositalarni tan olishda iqtisodiy mazmunga ustuvor ahamiyat berishni nazarda tutadi. IAS 16 ga ko‘ra, asosiy vosita quyidagi ikki asosiy shart bir vaqtda bajarilganda tan olinadi:

1. Mazkur aktivdan kelgusida korxonaga iqtisodiy foyda kelib tushishi ehtimoli mavjud bo‘lishi,

2. Ushbu aktivning qiymati ishonchli tarzda baholanishi lozim.

Mazkur yondashuv asosiy vositalarni faqat huquqiy egalik asosida emas, balki ularning iqtisodiy foyda keltirish qobiliyatiga qarab hisobga olishni ta’minlaydi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda aktivlarning real holatini aks ettirishga xizmat qiladi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida, xizmatlar ko‘rsatishda, ijaraga berishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi va bir hisobot davridan ortiq muddat davomida xizmat qilishi kutilishi zarur. Shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan aktivlar IAS 16 doirasiga kirmaydi va ular boshqa standartlar asosida hisobga olinadi. IAS 16 talablariga muvofiq, asosiy vositalar dastlab tan olingan paytda ularning **boshlang‘ich tannarxi** bo‘yicha baholanadi. Boshlang‘ich tannarx — bu aktivni sotib olish, qurish yoki foydalanishga tayyor holatga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha zarur xarajatlar yig‘indisidir.

Boshlang‘ich bahoga quyidagilar kiradi:

- sotib olish narxi (chegirmalar va imtiyozlar chegirilgan holda);
- bojxona to‘lovlari va qaytarib olinmaydigan soliqlar;
- aktivni belgilangan joyga yetkazish va foydalanishga tayyorlash bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar;
- montaj, o‘rnatish va sinovdan o‘tkazish xarajatlari.

Shu bilan birga, IAS 16ga muvofiq, umumxo‘jalik xarajatlari, xodimlarni tayyorlash xarajatlari yoki aktiv foydalanishga topshirilgandan keyingi xarajatlar boshlang‘ich qiymatga kiritilmaydi va ular yuzaga kelgan davr xarajatlari sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yondashuv asosiy vositalar qiymatining sun’iy oshirilishining oldini oladi va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy axborotni ta’minlaydi.

ASOSIY VOSITALAR ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiya) hisobi buxgalteriya hisobining muhim elementlaridan biri bo‘lib, asosiy vositalarning qiymatini ularning foydali xizmat muddati davomida tizimli ravishda xarajatlarga taqsimlash jarayonini ifodalaydi. Eskirish hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishi va korxonaning real moliyaviy holatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda ayrim mashhur xorijiy va mahalliy olimlarning asosiy vositalar eskirishi bo‘yicha bergan ta’riflari keltirilgan.

Olim (muallif)	Eskirish (amortizatsiya) ta’rifi
Charles T. Horngren	Amortizatsiya — bu asosiy vositalarning qiymatini ularning foydali xizmat muddati davomida daromad keltirish jarayoniga mutanosib ravishda taqsimlash jarayonidir.
Kieso, Weygandt, Warfield	Eskirish asosiy vositaning jismoniy yoki ma’naviy eskirishini emas, balki uning balans qiymatini davrlar

	bo‘yicha xarajatlarga tizimli taqsimlash usulidir.
Donald E. Kieso	Amortizatsiya aktivdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy foydaning kamayishini hisobda aks ettirish vositasidir.
A.A. Abdukarimov	Eskirish — bu asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanilishi natijasida ularning qiymatini bosqichma-bosqich mahsulot tannarxiga o‘tkazish jarayonidir.
Sh.Sh. Shoalimov	Amortizatsiya hisobining asosiy vazifasi asosiy vositalarning tiklanishini moliyaviy jihatdan ta’minlash va foyda ko‘rsatkichlarini real aks ettirishdan iborat.

Ushbu ta’riflardan ko‘rinadiki, olimlar amortizatsiyani jismoniy eskirish emas, balki **iqtisodiy qiymatning taqsimlanishi** sifatida talqin qiladilar. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti **IAS 16 “Asosiy vositalar”** ga muvofiq, asosiy vositalar bo‘yicha eskirish hisoblashda **3 ta asosiy usul** qo‘llanilishi mumkin:

1. **To‘g‘ri chiziqli usul (Straight-line method)**

– aktiv qiymati uning foydali xizmat muddati davomida teng ulushlarda xarajatlarga o‘tkaziladi.

2. **Kamayib boruvchi qoldiq usuli (Diminishing balance method)**

– dastlabki yillarda eskirish summasi yuqori, keyingi yillarda esa kamayib boradi.

3. **Ishlab chiqarish birligi usuli (Units of production method)**

– eskirish aktivdan foydalanish hajmiga (ishlab chiqarilgan mahsulot, soat, kilometr va boshqalar) bog‘liq holda hisoblanadi.

IAS 16 ga ko‘ra, tanlangan amortizatsiya usuli asosiy vositadan olinadigan iqtisodiy foydaning iste’mol qilinish modeliga mos bo‘lishi lozim va zarurat tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

BHMS 5 bo‘yicha eskirish (amortizatsiya) usullari

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi **BHMS 5 “Asosiy vositalar”** ga muvofiq, asosiy vositalar eskirishi hisoblashda **asosan 4 ta usul**dan foydalaniladi:

1. To‘g‘ri chiziqli usul
2. Kamayib boruvchi qoldiq usuli
3. Ishlab chiqarish (ish hajmiga mutanosib) usuli
4. Yillar yig‘indisi usuli

BHMS 5 da eskirish usullarining ko‘pligi milliy amaliyotda moslashuvchanlikni ta’minlasa-da, ularning tanlanishi ba’zan iqtisodiy mazmundan ko‘ra soliq hisobiga bog‘lanib qolmoqda. Mualliflik tahliliga ko‘ra, asosiy vositalar eskirishi hisobini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- amortizatsiya usulini tanlashda **soliq maqsadlari emas, balki iqtisodiy foydaning iste’mol qilinish modeli** asos qilib olinishi;

- foydali xizmat muddati va tugatish qiymatini **har yili qayta ko‘rib chiqish** amaliyotini joriy etish;
- eskirish hisobini **qadrsizlanish (IAS 36)** bilan uyg‘un holda yuritish;
- BHMS 5 talablarini IAS 16 ga yanada yaqinlashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanishini oshirish.

XULOSA

Ushbu maqolada asosiy vositalar bo‘yicha buxgalteriya hisobini xalqaro va milliy standartlar doirasida tahlil qilish amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **IAS 16 “Asosiy vositalar”** standarti asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya va qadrsizlanish bo‘yicha **aniq talablarga ega bo‘lib**, moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun aktivlar bo‘yicha axborotni haqqoniy va solishtiriladigan tarzda taqdim etadi. Xalqaro standartlarda uchta eskirish usuli—to‘g‘ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq va ishlab chiqarish birliklari usuli—mavjud bo‘lib, ular aktivlarning iqtisodiy foydaning iste’mol qilinishiga mos keladigan yondashuvni ta’minlaydi. Milliy BHMS 5 standartida ham bir nechta eskirish usullari belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ularning tanlanishi ko‘pincha soliq me’yorlariga bog‘liq bo‘lib, bu moliyaviy hisobotning xalqaro taqqoslanish qobiliyatini cheklashi mumkin.Shuningdek, adabiyotlar tahlili asosida asosiy vositalar eskirishi hisobida xalqaro standartlarda **foydali xizmat muddati va eskirish usullarining muntazam qayta ko‘rib chiqilishi** talabi mavjudligi aniqlangan. Bu esa moliyaviy hisobotda aktivlarni real qiymatda aks ettirish imkonini beradi va investitsion qarorlar qabul qilinishini yaxshilaydi.
Umuman olganda, asosiy vositalar hisobi va eskirish hisobini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: BHMS 5ni IAS 16 bilan yanada uyg‘unlashtirish, amortizatsiya siyosati tanlovini iqtisodiy foyda modeliga asoslash, foydali xizmat muddati va eskirish usulini muntazam qayta tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi **“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”**gi Qonuni (yangi tahrir).
2. Urazov K.B., Umarova Sh.K. *Strategies for Advancing the Standards Related to Accounting for Foreign Exchange Rate Fluctuations in Uzbekistan*. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Journal
3. Tashnazarov S.N., Eshpulatova Z.B., Akhmedjanov A. *Experiences and Factors of Acceleration in Transition to International Standards of Financial Reporting*. American Journal of Economics and Business Management, 2024.
4. Shakarov S., Po‘latov X., Esanov O. Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish // GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT. – 2025. – DOI: …
5. Zaripova S., To‘ychiboyev J. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (IFRS) va ularning ahamiyati // Journal of International Scientific Research. – 2025. – Vol.3, Issue 7.
6. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – 2024–2025 yillar.

7. O‘zbekiston Respublikasi “On Accounting” Qonuni. – ZRU-611, 2020.
8. President’s Decree No. PP-4611 “On additional measures on transition to IFRS”. – 24.02.2020.
9. President’s Decree No. PP-282 “On measures to improve financial accounting system…”. – 15.09.2025.

Холиқулов Озод Холмирзаевич *- “СамИСИ” илмий тадқиқотчиси*

ҚУРИЛИШ МАШИНА-МЕХАНИЗМЛАРИНИ САҚЛАШ ВА ЭКСПЛУАТАЦИЯ ҚИЛИШ ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИ ҲАМДА УЛАРНИ БАЖАРИЛГАН ИШЛАР ТАННАРХИГА КИРИТИШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: *Мазкур мақолада мамлакатимизда фаолият юритиб келаётган қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби ва уларни қурилиш жараёнида бажарилган ишлар таннархига киритиш усуллари ёки услублари моҳияти ҳамда аҳамияти бўйича тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар: *Қурилиш ташкилоти, бухгалтерия ҳисоби, қурилиш машина-механизмлар, сақлаш ҳаражатлари, эксплуатация қилиш ҳаражатлари, усуллар, бажарилган ишлар таннархи.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается сущность и значение методов расчета затрат на техническое обслуживание и эксплуатацию строительной техники и механизмов в строительных организациях, действующих в нашей стране, а также их включение в себестоимость выполненных работ в процессе строительства.*

Ключевые слова: *Организация строительства, бухгалтерский учет, строительная техника, затраты на хранение, эксплуатационные расходы, методы работы, стоимость выполненных работ.*

Annotation: *This article examines the essence and significance of methods for calculating the costs of maintenance and operation of construction equipment and mechanisms in construction organizations operating in our country, as well as their inclusion in the cost of work performed during the construction process.*

Key words: *Construction organization, accounting, construction equipment, storage costs, operating costs, work methods, cost of work performed.*

Республикамиз ҳозирги вақтда рақамли ҳамда яшил иқтисодиётни уйғунлаштиришга доир бир қанча чора-тадбирларни амалга оширишда алоҳида урғу бериш натижасида инновацион иқтисодиётни тубдан ривожлантиришни ҳам асосий мақсад сифатида аҳамият бермоқда. Бироқ 2025 йилда ялпи ички маҳсулот 1 квадриллион 630 триллион сўмдан ошиши кутилган эди. ЯИМ ўсиши 2025 йилда 6 фоиз, 2026 йилда 6,1 фоиз, 2027 йилда 6,3 фоиз бўлиши прогноз қилинганлиги маълум. Инфляцияни кейинги

йилда 7 фоизгача, 2026 йилда 5-6 фоизгача, 2027 йилда 5 фоизгача тушириш режалаштирилган[36].

“Ўзбекистон - 2030” стратегияси доирасида, яъни давлат дастури лойиҳасида 5 та устувор йўналишлари кесимида 2025 йил учун амалий чора-тадбирлар режаси, жорий йилда ишлаб чиқиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари рўйхати ва ҳар бир йўналиш кесимидаги мақсадли кўрсаткичлар назарда тутилмоқда. Давлат дастури лойиҳасида кўзда тутилган янгича ёндашувлар 2030 йилгача ялпи ички маҳсулотнинг йиллик ўсишини камида 6 фоизга етказиш. Ялпи ички маҳсулот ҳажмини 160 миллиард долларга ва аҳоли жон бошига даромадларни 4 минг долларга етказиш[37].

Мамлакатимизда қурилиш бошқарув тизимининг маҳаллий бошқарув-маъмурий тизими яхши йўлга қўйилмаганлиги ва меъёрий-ҳуқуқий база эскириб қолганлиги туфайли хорижнинг қурилиш ташкилотлар рақобатчилик курашидаги тажрибасидан оқилона фойдаланиши, қурилиш ишларининг оптимал қийматини аниқлай олиши, миллий ҳамда халқаро қурилиш пудрат бозорида катта тажрибага эгалиги, юқори даражада моддий-техник ва технологик жиҳозланганлиги боис хорижий пудратчилар Ўзбекистонда қурилиш индустриясида юзага келган вазиятдан фойдаланмоқдалар, шу боис ҳам қурилиш тенденцияларини тубдан ривожлантиришда Ўзбекистонлик қурувчилар четда қолиб кетмоқда. Чунончи мамлакатимизда амалга оширилаётган қурилиш ишлари натижасида, яъни чет эл қурилиш компониялари томонидан амалга оширилиши сабабли катта миқдордаги валюта ресурслари оқими чиқиб кетаётганлиги бизга маълумдир. Шу боис ҳам мамлакатимизда фаолият юритиб келаётган қурилиш ташкилотлари қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби ҳамда уларни бажарилган ишлар таннархига киритиш усулларини такомиллаштириш масалалари муҳим саналади.

Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларидан самарали фойдаланиш қурилиш смета ресурс нормалари тўплами жорий нархда машина-соат баҳосини ҳисобли аниқлашда қўлланилади ҳамда муқаррар тартибда қурилишни давлат бюджети ва хусусий сектор маблағларининг ҳамма босқичида ва мақсадли бюджет фондларида ишлатилади. Қурилиш ташкилотлари фаолиятида мавжуд қурилиш машина-механизмлар уларнинг ҳолати, ҳаракати ва уларни иш фаолияти, шу аснода қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби ҳамда уларни бажарилган ишлар таннархига киритиш борасида амалга ошириладиган чора-тадбирлар асосий мезонлардан бири бўлиб ҳисобланади.

---

[36] https://kun.uz/kr/news/2024/11/05/ozbekistonning-2025-yil-uchun-davlat-budjeti-loyihasi-elon-qilindi-asosiy-malumotlar.

[37] Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон – 2030 стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон.

Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг ёқилғи сарф қилиш меъёрлари бевосита статистик ҳамда оператив ҳисоб ва ҳисоботларларда юритиш, юк ташувчи машина-механизмлар ва бошқа турдаги қурилиш машина-механизмлар бажарадиган ишларида режалаштирилган таннархни аниқлаш, қурилиш ташкилотининг ёқилғи-мойлаш материалларини тежаш ва энерго-тежамкорлик режимини амалга ошириш учун мўлжалланганлиги барчамизга маълумдир. Чунончи қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг ҳар бир модели, унинг маркаси ва модификацияси учун ҳамда уларнинг классификацияси ва вазифаларига мос равишда ёқилғи сарфининг базис меъёрлари индивидуал ҳисоби юритилиш қурилиш машина-механизмларларни сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби ва уларни бажарилган ишлар таннархига киритиш учун хизмат қилади.

Қурилиш ишларини бажаришда кўп турдаги қурилиш машина-механизмлардан фойдаланилади. Юзага келган ҳар қандай қурилиш шароитларида қурилиш машина-механизмлардан самарали фойдаланиш-нинг асосий мақсади ва самарадорлиги қурилиш машина-механизмлар эксплуатацион ҳусусиятларидан келиб чиққан ҳолда баҳоланади. Қурилиш машина-механизмлардан самарали фойдаланишни тавсифловчи ҳусусиятлар эксплуатацион ҳусусият деб аталади. Қурилиш машина-механизмларнинг эксплуатацион ҳусусиятлари қуйидаги 3 турга бўлинишига алоҳида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

- технологик ҳусусият;
- техник-иқтисодий ҳусусият;
- эргономик ҳусусият.

Юқоридаги эксплуатацион ҳусусиятлар қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмлар иш фаолияти ҳисобини тўғри ва ўз вақтида юритишга асосий туртки бўлиб ҳисобланади (1-жадвал).

1-жадвал

Эксплуата-ция-он ҳусусият	**Мазмун ва моҳияти**	**Ҳисоб юритишдаги моҳияти**
технологик ҳусусият	ишчи орган ишлаб чиқариш самарадорлиги, ўтувчанлик, мобиллик, маневрлилик ва юриш текислиги кабилар тушунилади. Ушбу кўрсат-кичлар машинанинг бирон бир технологик жараённи бажаришга мослашганлиги-ни аниқлаб беради.	Қурилиш ташкилотлари-да қурилиш машина-механизм-ларини дастлабки иш жара-ёнини бошлаш этапидаги технологик жиҳатини бух-галтерия ҳисоби ва ҳи-соботларида акс эттириш ҳамда ўз вақтида юритишдан иборатдир.
техник-иқтисодий	Тортиш-тезлик, ёқилғи те-жамкорлиги ва машина	Қурилиш машина-механизм-лари ёқилғи сарфи бўйича

ҳусусият	ишончлилиги киради. Техник - тезлик хосса алоҳида берилган шароитда ишни бажаришда минимал таннарх ва юқори унумдорликка эришиш имконини берувчи машина иш режими танланади. Бунда машинани динамик ва тортиш таснифи, иш ва ҳаракат тезлиги ҳисобга олинади.	тежамкорлик ҳусусиятларини ва уларни техник ҳолатларини ҳисобга олиш ҳамда бажарилган иш ва хизматларини минимал таннархда ҳисобини аниқлашда, қурилиш машина-механизмларни иш режими ҳисобини бухгалтерияда аниқ маълумотлар асосида юритишга асос бўлади.
эргономик ҳусусият	Қурилиш машиналарини бошқаришга мослашганлиги тушунилади. Машинани бошқариш қанчалик осон бўлса, иш унумдорлиги шунча юқори ва маҳсулот таннархи эса паст бўлади.	Қурилиш машина-механизмлари иш унумдорлигини бошқарув тизимидаги ҳолат бўйича бухгалтерия ҳисобида унинг иш фаолияти бир маромда ишлашлиги бажарилган иш хизматлар таннархини юқори ёки паст ҳолатдаги ҳисобини аниқлашда хизмат қилади.

Машина эксплуатацияси (машинадан фойдаланиш) - машинанинг вазифасига мувофиқ равишда фойдаланиш ва ўрнатилган меъёрий - техник ҳужжатлар асосида максимал равишда унинг хусусиятларини сақлаш тадбирларини амалга ошириш бўйича жараёнлар йиғиндиси (тўплами)дир. Эксплуатация (фойдаланиш, ишлатиш) жараёни таркибига фойдаланишга киришиш (топшириш), вазифаси бўйича ишлатиш (фойдаланиш), ташиш (транспортировка қилиш), монтаж ва демонтаж (ёйиш ва йиғиб олиш) қилиш, техник хизмат кўрсатиш ремонт (тузатиш) ва сақлашлар киради[38].

Қурилиш машина-механизмлар эксплуатацияси - бу қурилиш ташкилотларида бевосита қурилиш машина-механизмлар ҳарактерли ҳусусиятлари, классификацияси, модификацияси ёки унинг типажига кўра қурилиш объектларига бажарариладиган ишлари бўйича, уларни ўз вақтида ҳамда реал кўчириш ва тақсимлаш жараёнидир[39].

Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларни сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисобини тўғри амалга ошириш жараёнида уларни бажарган ишлари бўйича таннархини тўғри акс эттириш муҳимдир. Қурилиш машина-механизмларни сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари уларни иш фаолияти унумдорлигини ва самарали

[38] Т.У.Усмонов, Н.К.Усмонов “Қурилиш машиналари”. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги олий ўқув юртлараро илмий-услубий бирлашмаси фаолиятини Мувофиқлаштирувчи кенгаш томонидан ўқув қўлланма сифатида тавсия этилган. ТИМИ., Т- 2011.

[39] Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан берилган тавсиявий таъриф.

фойдаланишда қурилиш смета ресурс меъёрларини ўртача ойлик вақти муҳим саналади (1-расм).



1-расм. Қурилиш ташкилотларида смета ресурс меъёрлари ўртача ойлик вақти[40].

[40] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

Қурилиш ташкилотларида амортизация чегирмалари, уларни таъмирлаш ҳамда техник хизмат кўрсатиш ҳаражатлари, қурилиш машина-механизмларини тез ишдан чиқадиган қисмларини алмаштириш, қурилиш машина-механизмларини бир қурилиш объектидан (қурилиш майдони)дан бошқа қурилиш объектига кўчиртириб ўтказиши қурилиш смета ресурс нормаларида мавжуд эмас, бунга асосий сабаб, улар физик ресурс кўрсаткичларда ўлчанмайди ҳамда қурилиш машина-механизмларнинг 1 машина-соат иши нархи Давархитект-қурилишнинг 2004 йил 6 майдаги 31-сонли буйруғи билан тасдиқланган «қурилиш машина ва механизмларидан фойдаланишда жорий нархдаги хисобини аниқлаш методик тавсияномаси асосида, қурилиш техникаси қарамоғидаги ташкилотнинг илгари (базис) даврида шаклланган харажатлардан келиб чиқиб аниқланади. Шунинг учун ҳам қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисобини ҳамда уларни бажарилган ишлар таннархига киритиш услубларини аниқлаштиришда машина-соат ўлчов бирлиги муҳим саналади.

Машина-соат - соатларда ёки мото-соат счётчик кўрсатгичларига мувофиқ (1 мото-соат бир астрономик соатга тенг бўлган шарт билан) ўлчанган машина, техникалар, механизмлар, ускуналарнинг ҳақиқий иш вақтидир.

Қурилиш ташкилотларида асосий ҳамда оғир иш вазифаларни асосан қурилиш машина-механизмлари бажариш эвазига қурилиш фаолияти яхшиланиш чоралари амалга оширилади. Шу боис ҳам қурилиш машина-механизмларни иш фаолияти ҳисобини амалга ошириш муҳим саналади. Чунончи қурилиш машина-механизмлари иш фаолиятини жадал ривожлантириш борасида қурилиш машина-механизмлар эксплуатацияси уларни бир маромда ишлаш жараёнини таъминлашда аҳамиятли касб этади. Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмлар иш фаолиятини тўғри йўлга қўйиш учун қурилиш машина-механизмлар эксплуатация қилиш ҳаражатларини ҳисоби ўз вақтида ва тўғри амалга оширилиши мақсадга мувофиқдир. Қурилиш машина-механизмлар иш фаолиятига қатъий таъсир ўтказадиган омиллардан бири уларни эксплуатация қилишга кетган сарф-ҳаражатлар тўплами ҳисобланади. Қурилиш машина-механизмларини эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисобига алоҳида тўхталиб ўтиш муҳим саналади.

Қурилиш машиналарини сақлаш ва эксплуатация қилиш харажатлари - бу қурилиш машиналари ва механизмлари машинистлари ва ҳайдовчиларига ҳисобланган иш ҳақи, ижтимоий суғуртага ажратмалар, материал харажатлари, амортизация ажратмалари, жорий ва капитал таъмирлаш ҳамда турли хизматлар қийматининг йиғиндиси[41].

[41] Уразов К.Б. “Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисоби хусусиятлари”. ЎзР Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти. Дарслик- Т.: «Фан ва технологиялар», 2019.

Мамлакатимизда фаолият юритиб келаётган қурилиш ташкилотларида, асосан 21-сон БҲМС “Хўжалик юритувчи субъектлар молиявий-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби счётлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома” га мувофиқ пудратчи қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларни эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби бевосита 2500 - “Умумишлаб чиқариш харажатлари” ҳисоб варағида олиб борилиши мақсадлидир. Қурилиш ташкилотлари бевосита ўзларининг счётлар режасини таркибида маҳсус счётни, яъни 2511-“Қурилиш машина-механизмларни сақлаш ва уларни эксплуатация қилиш ҳаражатлари” номли счётини очишлари ҳам мақсадлидир. Қурилиш ташкилотларида ушбу счётга қурилиш машина-механизмларининг турлари ёки гуруҳлари бўйича алоҳида аналитик счётларни очиш мақсадга мувофиқ. Бу счётларнинг дебетида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилишга доир барча ҳаражатлар гувоҳлик берувчи ҳужжатлар асосида тўпланади, кредитида эса сарфланган харажатларни ҳисобдан чиқарилиши, яъни уларнинг тегишли объект таннархига киритилиши акс эттирилади.

Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш харажатлари ўз ичига қуйидаги моддаларни олади:

- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш жараёнида ва қўриқлашда бевосита иштирок этадиган ишчи ходимларга иш ҳақи;
- ✓ қурилиш машина-механизмларни бир объектдан иккинчи объектга эксплуатация қилишда сарфланадиган моддий ва меҳнатга доир ҳаражатлар;
- ✓ қурилиш машина-механизмларни қурилиш объектига ўрнатиш ҳаражатлари ҳамда жорий ва капитал таъмирлаш;;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини ҳаракатланувини бошқарувчи ишчи ходимлар (машинистлар, ҳайдовчилар) га ҳисобланган иш ҳақи ҳаражатлари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини бошқарувчи ходимларнинг иш ҳақига нисбатан ижтимоий суғурта ажратмалари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг материал харажатлари (ёқилғи, мойлаш материаллари, эҳтиёт қисмлар, хўжалик материаллари ва шу кабилар);
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг амортизация харажатлари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларига турли хизматлар (электр энергия, сув, газ, иситиш, буғ, транспортировка, ижара ва бошқа хизмат турлари).

Юқорида таъкидлаб ўтилган қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилишга доир ҳаражатлари тўпламида акс эттириладиган моддалар қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмлари иш фаолияти, яъни улар томонидан бажариладиган ишлар таннархини аниқ ва

реал ҳолатини кўрсатиб беришда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларида ўз аксини топишда хизмат қиладилар.

Уразов Д.К. *– Старший преподаватель Самаркандского института экономики и сервиса*

